3. O'quv topshiriqlarni bajarish bo'yicha yo'riqnomani tushuntirish. Guruhlar bo'yicha ishni bajarish uchun zarur materiallarni tarqatadi. Topshiriqni bajarishda qanday qo'shimcha materiallardan foydalanish mumkinligini tushuntiradi. Guruhlarda ishlash qoidalarini eslatadi.

Doskada guruhli ishni bajarish bo'yicha yo'riqnomani yozadi yoki tarqatadi.

4. Ta'lim oluvchilar bilan qaytar aloqani amalga oshirish Ta'lim oluvchilar bilan guruhli ishni bajarish bo'yicha yo'riqnomani muhokama qiladi;hammalari uni tushunganlariga ishonch hosil qiladi.

5. Guruhlarda o'quv topshiriqni bajarish jarayonini tashkil etish – o'quv topshiriqni bajarish bo'yicha ishni boshlanishi haqida e'lon qiladi; Guruh ishini nazorat qiladi. Guruh ishini rejalashtirish, vazifalarni guruh a'zolari o'rtasida taqsimlash, vazifani bajarish bo'yicha yakka tartibda ishlash, yakka tartibda topilgan yechimlarni muhokama qilish, guruh uchun umumiy yechimni ifodalash, guruh ishi natijalarini taqdimotini tayyorlash, aniq topshiriqni bajarish uchun zarur bo'lgan alohida bo'lib ishlashga, ko'nikmalarni shakllantirishga e'tiborini qaratadi. Ish borishini sharhlaydi, yutuqlarni baholaydi, ayrim aniq, va samimiy tanbeh qiladi.

6. Guruh ishi taqdimotini tashkil qilish – bajarilgan ish natijalari to'g'risida ma'lumot berish uchun guruh vakillarini tayinlaydi. Baholash mezonini va ko'rsatkichlarini eslatadi.

3-Nazorat –yakuniy bosqichi



Yakun yasash – natijalar tekshiruvini o'tkazadi: guruhning har bir ishtirokchisi bilan gaplashadi; Guruh ishini tahlil qiladi, topshiriq bajarilishining yakunini qiladi, erishilgan maqsad to'g'risida xulosalar chiqaradi.

### **Hamkorlikda o'qitishning samaradorligi**

1. Axborotga tanqidiy yondashuv va o'z nuqtai nazarini dalillar bilan asoslashni shakllantiradi.
2. Ijodiy qobiliyatlar rivojlanadi.
3. Bir vaziyatda olingan bilimlar boshqa vaziyatda qo'llanishiga ko'maklashadi.
4. Dars mazmuniga ijobiy yondashuv shakllantiriladi.
5. Topshiriqlarni bajarish uchun ko'proq vaqt sarfini talab etadi.



### III. NAZARIY MATERIALLAR

**1-mavzu. Tasviriy san'atdan o'quv jarayoni va o'quv-uslubiy faoliyatni modernizatsiyalashda innovatsion ta'lim texnologiyalari. Tasviriy san'atdan o'quv jarayoni va o'quv-uslubiy faoliyatni modernizatsiyalashda innovatsion ta'lim texnologiyalari. Intellektual salohiyatga ega bo'lgan mutaxassis kadrlar tayyorlash texnologiyasi va ta'limining mazmuni. Tasviriy san'at fanlarining umumiy va xususiy tushunchalari**

#### Reja

1. Tasviriy san'atdan o'quv jarayoni va o'quv-uslubiy faoliyatni modernizatsiyalashda innovatsion ta'lim texnologiyalari

2. Tasviriy san'atdan o'quv jarayoni va o'quv-uslubiy faoliyatni modernizatsiyalashda innovatsion ta'lim texnologiyalari.

3. Intellektual salohiyatga ega bo'lgan mutaxassis kadrlar tayyorlash texnologiyasi va ta'limining mazmuni. Oliy pedagogik ta'limda tasviriy san'at o'qituvchilarining ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishda tasviriy san'atning tutgan o'rnini. Tasviriy san'atda borliqni idrok etish.

**Tayanch iboralar:** *Tasviriy san'at, kompozitsiya, konstruktsiya, ton, chiziqli qurish, rang munosabatlari, portret, janr, uslub, klassika, renessans, antik davr, haykaltaroshlik, kartina qalamtasvir, format, oliy ta'lim, rassomlik san'ati, keys texnologiyasi, innovatsion ta'lim.*

#### 1. Tasviriy san'atdan o'quv jarayoni va o'quv-uslubiy faoliyatni modernizatsiyalashda innovatsion ta'lim texnologiyalari.

Fan va ta'limning ishlab chiqarish bilan uyg'unligi barcha sohalarda taraqqiyotni ta'minlaydi. Bu borada tabiiyki, fan, ta'lim va ishlab chiqarishning integratsiyasi muhim va dolzarb vazifa. Bu esa o'z-o'zidan innovatsion klasterga yo'l ochadi. Bugungi kunga kelib innovatsion klaster – fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi mezoni ekani ayon bo'lib qoldi. Ayni kunlarda Respublikamizning deyarli barcha viloyatlari o'z katta – kichik klasterlariga ega. Klaster strategiyasini amalda qo'llash asosida milliy va mintaqaviy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirish g'oyasi yotadi (M.Porter va M.Enrayt) va uning quyidagi ustuvor jihatlari borligini ochib beradi:

- korxonalar (firma)lar uchun ta'minotchilarga, malakaviy xodimlarga, axborotlarga, xizmat va ta'lim markazlariga to'g'ridan-to'g'ri bog'lanishlari sababli mehnat unumdorligi va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga imkoniyatlar yaratiladi. Klasterlashgan mintaqalar korxonalarida mehnat unumdorligi 1,5 barobargacha, ish haqi esa 30 foizgacha ko'pligi o'z tasdig'ini topgan;

-- ta'lim va ilmiy-tadqiqot markazlari yangi ilmiy-uslubiy ishlanmalarni yaratishi, ularni qisqa muddatda sinovdan o'tkazishi, ishlab chiqarishga joriy etishi uchun shart-sharoitlar mavjud bo'ladi;

- ishlab chiqarish ilmiy izlanishlardagi xodimlar va mutaxassislar mehnatlarini



ko'proq rag'batlantirishga va yangi tovarlarni yaratishga imtiyozli sharoitlar bo'ladi.

Ta'lim tizimida ham klaster mavjud. Bu esa shaxsni kamol topishi va yetuk kadr bo'lishiga qaratilgan bo'lib, uning bog'liqligi – bog'cha, maktab, litsey, kolledj, oliy o'quv yurti, doktorantura, malaka oshirish kabi jarayonlarni qamrab oluvchi butun umr davomidagi ta'lim zanjirini bir-birigabog'langanidir.

Haqiqatdan ham Kadrlar tayyorlash milliy dasturida bu zanjir o'zini namoyon etadi. Lekin mustaqillik davrining boshlari, o'tish davrlari va undan keyingi davrlarda respublikamizda iqtisodiy, ta'lim sohalarida juda murakkab jarayonlar bosib o'tildi. Bular bir qaraganda stabil holatda ketgandek ko'rinsada, hozirga kelib ishlab chiqarishda mahalliy texnika va texnologiyalar zamon talablaridan ortda ekanligi, kasb-hunar kollejlari hamda OTMlarning bitiruvchilarini bilim va ko'nikma darajalari zamon talablaridan pastda ekanligi yaqqol sezilib qoldi. Demak, bu yerda ta'lim zanjiri ketma-ketligida uzilish bo'lmasa xam, zanjirning alohidagi bo'g'inlari ichida katta uzilishlar ro'y bergan. Bular ta'lim oluvchiga nisbatan talabning susayganligi, ta'lim oluvchining oliy ma'lumotga extiyoj sezmagani, raqobat zaruriyati bo'lmagani, sifatli ta'lim shaklini buzilishi (o'qituvchilar qo'nimsizligi), o'quv yurtlarining moddiy – texnika bazasini etishmovchiligivaboshqalar bo'ldi.

Shuning uchun ham yurtboshimiz hozirgi kunda milliy iqtisodiyotimizni "Klaster usuli"da rivojlantirish bo'yicha qo'ygan maqsad va rejasiga asoslangan holda, huddi shu usul bilan OTM va boshqa o'quv yurtlarida "Raqobatbardosh kadr tayyorlash klasteri" tashkil etish hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda ta'lim tizimiga keng kirib kelgan innovatsion ta'lim texnologiyalari jamiyatimizda yetuk mutaxassislarni kasbiy tayyorlash tizimiga ijobiy ta'sir etmoqda. Quyida tasviriy san'at fanlarini o'qitishni takomillashtirishda keys texnologiyasining namunasini taklif etamiz: Keys uslubi va texnologiyasi.

### **2. Tasviriy san'atdan o'quv jarayoni va o'quv-uslubiy faoliyatni modernizatsiyalashda innovatsion ta'lim texnologiyalari. Tasviriy san'at fanlarining umumiy va xususiy tushunchalari**

Bo'lajak rassom – pedagogni o'qitish va tarbiyalash tizimi aniq va ilmiy asosda bo'lishi kerak. Bu yo'nalishda dastlabki ta'lim va tarbiya umumta'lim maktablari doirasida amalga oshiriladi. Oliy pedagogik maktab - deganda, eng avval ta'lim va tarbiyaning aniq tizimini, bu tizimga hamda dars o'tish metodlariga o'quvchilarning ixtiyoriy ravishda buysunishini, ilmiy asoslangan bilimlarni o'zlashtirishda jiddiylik, aniqlik va badiiy ijodning amaliyotda sinalgan tajribalarini o'rganishni nazarda tutamiz.

O'tmish tarixda ijod etib o'tgan buyuk tasviriy san'at tarixida bizdan avval o'tgan ijodkorlar tasviriy san'atdagi faoliyatida erishgan tajribalari badiiy ta'limda o'rganiladigan asosiy predmet hisoblanadi. Bu san'atni o'rganib olishni xohlovchi, bu san'at dargohiga endi kirib kelayotgan rassom eng avval ilgari ijod qilgan



rassomlar asarlarini o'rganib chiqishi va olgan bilimlari hamda ko'nikmalari asosida o'z shaxsiy ijodiy qobiliyatini rivojlantirishi kerak.

Yosh rassom-o'qituvchilarga ta'lim berishda pedagog tomonidan ilgari tajribalar o'rganila borib, predmetning shakli va mazmunini to'g'ri ifoda etish uchun yordam beruvchi yangiliklar kiritib boriladi. Biroq, maktab o'quv maskani sifatida, o'quvchilar oldiga faqatgina, yangilik izlash, faqatgina ijodiy masalalarni hal etish vazifalarini qo'ymaydi, balki o'quv muassasasining asosiy masalasi o'quv tizimi talablarini hal etish bo'lib qoladi.

Har qanday o'quv predmetining rivojlanishi hech narsa bo'lmagan joydan boshlanmaydi. XVII asrning akademik rasm chizishning nazariy qoidalari uyg'onish davri rassomlarining talqinlaridayoq ifoda etila boshlangan. XVIII asrda yuzaga kelgan akademik rasm chizish va uni o'qitish nazariyasiga ma'lum o'zgartirishlar kiritilib, endi badiiy amaliyot yangi sharoitlarida amalga oshirildi. XIX asrda akademik rasm chizish nazariyoti va amaliyotida o'quv masalalarini kompleks hal etish bo'yicha faol izlanishlar boshlandi.

Badiiy maktab akademik yo'nalishida o'quvchilarni faqatgina bilim va ko'nikmalar bilangina qurollantirish emas, balki ijodiy faoliyatga ham ishtirok ettirish ko'zda tutiladi.

Ba'zi bir boshlovchi rassomlar qonun, qoidalarga amal qilmaydilar va maktab o'zining an'anaviy ko'rsatmalari bilan ularning individualligi rivojlanishiga halaqit beradi, deb o'ylab darhol murakkab ijodiy masalalarni hal etishga urinadilar. Tarixiy manba'larning guvohlik berishicha o'quv muassasasi sifatida o'zining dars o'tish ilmiy usullari bilan ijodiy qobiliyatlar rivojlanishiga hech qachon halaqit qilmagan, aksincha, u yosh rassomlar rivojlanishi, ta'lim olishi va shakllanishiga yordam bergan. Tasviriy san'atning hamma turlari uchun asosiy asos bo'lgan rasmlarni chizishni o'rganib olishda maktab ayniqsa, zarur hisoblanadi. Shuning uchun hech kim maktabni o'z usullari bilan o'zboshimchalik qilib, rassomlar studiyasiga aylantirishga haqqi yo'q. Tasviriy san'atni o'qitishda qonun qoidalarga qarshi bo'lganlar - odatda yosh, boshlovchi rassomlar orasida uchraydiki, bu ularning ijodiy rivojlanishiga halaqit beradi. Havoskor rassomlar ko'rgazmalarida juda ham mazmunli asarlar uchraydiki, ularga mazkur ijodkorlar maktabda o'qimay ham erishlari mumkin. Bunday tanqidlarga javob qaytarib X.E.Repin shunday yozgan: «Men o'zim ham yangi usulda ko'plab yangiliklarni ko'rib turibman, lekin maktab bo'lishi kerak – axir havaskorlikni maktab prinsipi qilish mumkin emas-ku»<sup>1</sup>.

Ta'lim psixologiya va pedagogikadagi ijodiy qobiliyatlar va ijodiy faollikning rivojlanishi bilan ta'lim jarayonida katta natijalar berishi mumkin.

Qadimda «Erkin ijod» usuli tarafdorlari, bolalarning oddiy-sodda rasmlari shunisi bilan ajoyibki u dunyoni o'zgacha qabul qilib ifoda etadi, unda bola o'zining ijodiy tashabbusini qizg'in namoyon etadi deb hisoblaydilar. Yosh rassom tasviriy san'atda ijod qilar ekan, ijodiy yaratuvchilikdan zavqlanadi va biz pedagoglar uni butun hayotiga saqlab qolishimiz kerak.

<sup>1</sup> Н.Н.Ростовцев. Основы академического рисунка. М., «Просвещение» 1989. 76 стр.



Badiiy ta'limni rivojlanishida oliy maktabning zarurligini e'tirof etib, rasm chizishda akademik ta'limni realistik tasviriy san'atning asosi sifatida zarurligini ta'kidlashimiz zarur. Tasviriy san'at qonun – qoidalari rassomning ijodiy imkoniyatlarini oshirishda realistik san'at usullarining imkoniyatlaridan to'laroq foydalanishimiz kerak.

Boshlovchi rassom avval naturani ko'rishda uning har bir bosqichini qog'ozga qanday tushirilishini va uning asl tasvirini hayoliy tarzda yaratishi kerak. Ya'ni, predmet shakli, o'ziga xoslik xususiyatlari haqida tasavvurlarini aniqlashi, uning umumiy sxemali shakli, shundan keyin, pedagog tushuntirgan narsa haqida kuzatishlar olib borishi va qayta tushunib olgan naturani haqiqiy va emotsional – mazmunli ifoda etilishiga yaqinlashib borishi lozim. Masalan boshlovchi rassom burun tasvirini chizar ekan, uning shaklini darhol to'g'ri ko'rsatib bera olmaydi, chunki u prespektiva hodisalarini (burun prizmatik shaklining fazodagi holatini) hisobga olmaydi, yorug'likning shaklda joylashishi qonuniyatlarini ko'ra bilmaydi.

Bu borada taniqli pedagog D.N.Kardovskiy taklif etgan «kesish» usullarida foydalanib, burun to'rtta tekisliklar bilan - oldingi, pastki va ikki yon tomon tekisliklari bilan chegaralangan prizmadan tashkil topishini tushuntira boshlaganida talaba uchun endi burunning - prizmatik prespektiv ko'rinishni to'g'ri tasvirlash uncha qiyinchilik tug'dirmaydi, keyin esa burun shaklining realistik, naturadagi tasviriga asta - sekin yaqinlashib asosiy tekisliklar bo'yicha yorug'likni to'g'ri taqsimlaydi.

Ba'zi pedagoglar naturani qurishda bunday yo'lini qo'llamaydilar, unda sxematizm talabada ijodiy turg'unlikka olib kelishini sabab qilib ko'rsatadilar. Akademik tarzda tasvirlarga qarshi chiqib, murakkab shaklni soddalashtirish sxemalarga, qoidalariga qarshi chiqadilar va ular tasvirni bosqichlarda va izchillik tizimi bo'yicha ishlansa ijodiy jarayon yo'qoladi deb ta'kidlaydilar.

Hamma o'quvchilar akademik rasm chizishning bir xil qonun va qoidalarini o'rganishlariga qaramay, har bir rasm chizuvchi naturani o'z bilganicha qabul qiladi va shuning uchun tasvirda to'la bir xillik bo'lishi mumkin emas. Rassom shu bilan birga naturadan nusxa oluvchi sifatida emas, balki uni qayta quruvchi sifatida ishtirok etadi. Bunga yana shuni ham qo'shish mumkinki, u yangi o'quv masalasini hal etishga kirishar ekan, o'zi uchun ko'plab yangiliklar yaratadi, demak, o'zini ijodiy namoyon etadi. Realistik rasmni yaratish juda murakkab ijodiy jarayon hisoblanadi va eng avval bu jarayon ob'ektning xayoliy obrazini moddiy yaratish bilan bog'liq bo'ladi, ya'ni haqiqiy uch o'lchamli predmetni tasviriy ikki o'lchamli qog'oz varag'i tekisligiga ko'chirish bilan bog'liqdir. Ko'rib turgan obrazni tasviriyga o'tkazish jarayoni ijodiy fikrlashsiz mumkin emas: bunda rassom taqqoslashga, solishtirishga, umumlashtirish, mulohaza qilishiga majburdir. O'zining ko'p asrlik mavjudlik davrida badiiy rassomchilik maktabi yosh rassomlar ijodiy qobiliyatini rivojlantirish sohasida ulkan pedagogik tajriba to'plagan.

Intellectual salohiyatga ega bo'lgan mutaxassis kadrlar tayyorlash texnologiyasi va ta'limining mazmuni.

O'tmishda rassom-pedagoglarning tajribalari diqqat bilan o'rganish va umumlashtirishni talab etadi, ularning asosida biz rasm chizish akademik





mashg'ulotlarida ijodiy qobiliyatini rivojlantirish yangi ilmiy asoslangan usullarini ishlab chiqishga kirishishimiz mumkin bo'ladi. O'tmishdagi rassomlar yutuqlari, tajribalarini e'tiborga olmaslik, maktabni yo'q bo'lishiga, san'atning "nodon"lashishiga olib keladi. nazariyot va amaliyotning tabiiy ravishda birligi yosh rassomning faol rivojlanishiga, uning ijodiy qobiliyati o'sib borishiga yordam beradi. Rassomning ilmiy bilimlari qanchalik ko'p bo'lsa, uning haqiqiylikka baho berishi shunchalik mukammal, texnik mahoratining darajasi shunchalik boy, uning ijodiy faoliyati mahsuloti shunchalik ifodali va yorqin bo'ladi. Rassomchilik maktabida ilmiylik tamoyili ijodiy qobiliyatlar rivojlanishi faol omili sifatida eng avval ilmiy bilimlar tizimini o'zlashtirib olishdan iborat bo'ladi, bu esa boshlovchi rassomga tabiat va hodisalar real haqiqiy shaklini ko'rish qonuniyatini to'g'ri tushunishga yordam buradi, shu bilan realistik san'at usullarini ham egallashga yordam beradi. Buni Qadimiy Yunonistonda va keyinchalik Yevropa akademiyalarida XVII-XIX asrlarda ham rassom-pedagoglar yaxshi tushunishgan. Tarixchilarning guvohlik berishlaricha, Sikkion rassomchilik maktabi eshigiga shunday deb yozib qo'yilgan ekan: "Bu yerga tasviriy san'at qonunlarini bilmaydigan insonlar qo'yilmaydilar". Ingliz badiiy akademiyasining buyuk rassomi va pedagogi Djoshua Reynolds shunday degan: "Bizning san'atimiz - faqatgina bu xudo bergan iste'dod emas, lekin u mexanik hunar ham emas, uning asosi aniq fanlarga tayanadi"<sup>2</sup>. Biz ilgari aytib o'tganimizdek, maktab sharoitida rassom faoliyati aniq masalani yechishda o'tadi, ular unda estetik talablar uyg'otadi, shu bilan birga tabiiy kuch bilan qoniqish izlovchi talab uyg'otadi. Qo'yilgan masalaning yechimi, agar ilgari ham bir necha bor hal etilgan, o'quvchiga yaxshi ma'lum bilimlar doirasidan chiqmasa, oson va oddiygina kelib chiqadi. Bunday holatlarda masala odatiy hal etiladi. Shundan keyin an'anaviy tajriba yetarli bo'lmagan davr keladi, yangi yo'llar izlash, fikrlar o'zgaruvchanligi, fahm-farosat kerak bo'ladi. Nima kelib chiqqani va yana nimalar qilish mumkinligini doimo tekshirib borish davri keladi. masalan, gipsli bosh rasmini chizishdan tirik boshning rasmini chizishga o'tishda talaba inson boshining shakliy tuzilish qonuniyatlarini bilib olib va qarash nuqtasiga bog'liq ravishda konstruktiv ko'rinish sxemasining o'zgarishini bila turib (perspektiv ko'rinishni), tasvirni ko'rish birinchi bosqichlarida o'z masalasini osongina hal qila oladi. Ammo keyinchalik, tirik boshning individual xususiyatlarini yetkazib berishda mavjud bilim va ko'nikmalar yetarli bo'lmay qoladi va u o'z fahm -farosatiga murojaat etadi. Bunday holatda yetishmaydigan bilimlarni naturani diqqat bilan kuzatish va ilgari egallagan ilmiy bilimlaridan ijodiy foydalanish yo'li bilan olish mumkin. O'quvchida ijodiy fahm-farosatni turli yo'llar bilan rivojlantirish mumkin.

P.P.Chistyakov akademik ko'rinisdagi naturadan rasm chizishda tana o'zining hamma qismlarida to'g'ri ifoda etilganligini diqqat bilan kuzatish kerak deb, maslahat beradi, hech qaerda xayol surib o'tirish kerak emas, bir-biridan bir ozgina farq qiluvchi har bir muskulning tuzilishining o'ziga xoslik xususiyatlarini to'g'ri ilg'ab olish uchun esa - bunda intuitiv sezgirlik zarur bo'ladi. Bunday

<sup>2</sup> Н.Н.Ростовцев. Основы академического рисунка. М., «Просвещение» 1989. 88 стр.



hollarda sezgi to'g'ri yo'l ko'rsatadi, xatoni biladi va unga ishora qiladi, joyini ko'rsatadi, qaerni tuzatish lozimligini aytadi.

Qadimgi akademik maktab namoyondalari shunday vasiyat qilganlar: naturadan rasm chizar ekansan, ko'zingga ko'ringan hamma narsani to'g'ridan-to'g'ri ko'chirib tushiraverma, balki nima uchun shundayligini o'yla, boshqacha emasligi haqida mulohaza qil.

Uyg'onish davri rassomlari "Qo'l bilan emas, balki bosh bilan chizamiz" - deb aytganlar. Ular bu fikrga tajribaga tayanish, bilish va tasvirlash tabiatini intuitiv tushunish asosida kelganlar. Bugungi kunda psixologiya fani insonning fikrlash faoliyati tabiatini ochib bermoqda. Boshlovchi rassom odam boshi shakli tuzilishininig xususiyatlarini tushunib olishiga yordam berib, akademik maktab metodikasi bir qator tartib bilan murakkablashib boruvchi o'quv masalalarini ko'zda tutgan metodikani taklif etadi: mumtoz namunadagi gipsdan yasalgan boshlar rasmini (Diadumen, Antiy, Venera, Appolon, Gattimelat, Koleon) va nihoyat turli xarakterli tirik boshning rasmini chizishga o'tishni ko'zda tutadi (keksa, yosh odamni, erkak ayolni). Har gal o'quv topshiriqlarini bajarishida boshlovchi rassom yangilikni bilib oladi, boshqacha o'rganadi, odamlar yuziga professional nazar bilan qaraydi, portretni tasvirlash san'atida yangi ko'nikmalarni egallaydi, boshqacha aytganda turli maqsadlar faol ijodiy faoliyatga kirib keladi. O'quv rasmini chizishda birinchi asosiy metodik ko'rsatmani pedagog berishi kerak. Keyinchalik rassomning ijodiy faolligi kuchayib, unda o'z ko'rsatmalari paydo bo'ladi, undan kelib chiqqan holda u ish yuritadi. Ular o'z-o'zidan qo'yilgan masalani yechishi va estetik talablari chuqurlashib borgan sari yuzaga keladi. masalan, beshinchi kurs talabalari "yalang'och odam tanasini murakkab harakatda, fazoviy fonda chizishda" akademik rassomni faqatgina hamma qonun va qoidalar bilangina emas, balki yetarlicha mazmunli ifodada berishlari kerak, bunga esa faqatgina faol ijodiy faoliyat bilangina erishish mumkin. Birgina o'quv ko'rsatma bu yerda kamlik qiladi. Muvafaqqiyatga erishish uchun esa yana "qobiliyatlari butun tizimini faollashtirish", "ma'lum faoliyat uchun zarur hamma xislatlarining o'zaro bog'liqligini mustahkamlash va aynan ana shu faoliyatda ulardan foydalanish mahoratini shakllantirish" ham kerak bo'ladi. Bunga esa talabalar tajribali pedagog yordamida erishishlari mumkin, pedagog esa buning uchun umumiy ko'rsatmalardan individual ko'rsatmalarga o'tishi kerak va har bir talaba qobiliyatini hisobga olishi kerak. Ijodiy faoliyatni faollashtirish uchun har bir o'quvchidan tushunib olib chizishni, naturani oddiygina ko'chirib qo'ymaslikni talab etish kerak: manzarali ko'rinish bo'yicha, anatomiya, soyalar nazariyasi sohasidagi o'z ilmiy bilimlaridan ijodiy foydalanish talab etiladi. Har bir o'quv rasmi ma'lum masalani yechishni maksad qilib oladi, bu esa o'zining bir maqsadni ko'zlashiga qaramasdan, bir necha yechimlarga ega bo'ladi maktabda o'quvchi pedagog yordamida ana shu yechim yo'llarini bilib oladi.

Rasm chizishga o'rgatish maktabida turli xil ishlarni bajarish jarayonida haqiqiy materillardan foydalanib olib boriladi. Bunda - uzoq puxta o'rganish, tez xomaki rasm va lavhalar chizib olish hamda xotira bilan rasm chizish, tasavvuri va xayoliy rasm chizish jarayonlari amalga oshiriladi.



Naturani ijodiy tasavvur etishda pedagog o'quvchilarga naturadagi asosiy mazmuni ko'rib olishga, ularni his etishga, ob'ektni obrazli qabul qilishga yordam berishi kerak.

Tasvirni ko'rishda idrok etish ikki psixologik vaziyatni hisobga olish kerak: predmetni ko'rish va tasvirni tushunish. Eng asosiysi shundan iboratki, bu idrok etishlarni boshqarish kerak, ularni o'zgartirish va yo'naltirish kerak.

Maqsad – bu rasm ustida ishlash jarayonida erishilishi kerak bo'lgan aniq natijadir. Masalan, talaba bosh rasmini chizar ekan, u o'z oldiga boshning konstruktiv tuzilishi shaklining xususiyatlari va qonuniyatlarini tushunishni maqsad qilib qo'yadi. U A.Dyurerning quyma – konstruktiv bosh shakli sxemasini asos qilib oladi. Oldiniga hech narsa chiqmaydi, shaklning asosini ifoda etuvchi yordamchi chiziqlar, konstruktiv sxemadan foydalana olmaydi, ular shaklni tasvirlashga yordam bermaydi, balki aksincha, halaqit qiladi. Biroq ifodasini ishga solib, pedagog yordamida u asta – sekin tekislikda shaklni ko'rish usulini o'zlashtira boradi, shakl haqidagi sub'ektiv tasavvurlari noto'g'riligini tushunadi va bosh shaklini qurish qonuniyatlari haqidagi ob'ektiv tasavvurlarga keladi, bu esa ijodiy jarayon hisoblanadi.

Ko'pchilik hollarda «erkin tarbiya» tarafdorlarida rasm chizishdan yakuniy maqsad ishning yakuniy natijasi sifatida belgilanmaydi, chunki ularning «o'quv jarayonida» avvalgi tajribalarni ijodiy o'rganib chiqish bo'lmaydi, rasm ustida ishlash aniq metodik ketma – ketlik yo'q, shaklni ko'rish ob'ektiv qonuniyatlarini tahlil qilinmaydi. Ular ishonadilarki, ijodiy rasmda eng avval rassomning haqiqatga sub'ektiv munosabati ifoda etilishi kerak: agarda rassom ob'ektiv qonuniyatlarni tushinishga harakat qilsa, unda u rassomga, nusxa oluvchiga aylanib qoladi. Shuning uchun ular maqsadni aniq belgilash yo'q va bo'lmaydi ham, chunki maqsad rassomning harakatlari aniq natijalarini ko'zda tutadi.

Akademik maktab talabalarining ijodiy qobiliyatlari rivojlanishi uchun to'siq bo'lishi mumkin emas. Birinchi kursga talaba rasm chizish san'atida hali hech bir tajribasiz, rasm chizish ko'nikmalarini yomon egallagan holatda keladi. Faqatgina pedagogning yordami bilangina, uning mohirona metodik rahbarligi hisobiga talaba zarur bilim va ko'nikmalarni o'rganib, egallab boradi. Talaba qanchalik iste'dod egasi bo'lmasin, u o'z o'zidan rivojlanib va mukammallashib bora olmaydi, buning uchun ta'lim olish, maqsadga muvofiq faoliyat bilan shug'ullanishi kerak. Buni azaldan rassom – pedagoglar juda yaxshi tushunishgan.

P.P.Chistyakov shunday deb yozadi: «Umuman olganda predmetning to'g'ri va tartibli shakli rasm chizishda hammasidan ham muhim va qimmatlidir. Iste'dodni xudo berar, qonunlar esa naturada bo'ladi. Hamma narsa qonun bo'yicha qurilgan, demak, aralash emas, oddiy va qonuniy usulni talab etadi».

Makabda o'qitish jarayonida ijodiy faollik xarakteri quyidagi badiiy – ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish deb qaraladi: bular o'xshashlikni ko'rsatib bera olish, naturada o'ziga xoslikni ko'ra olish, nisbatini – shaklning qurilishi qonuniyatlari va uning materiallik asosini yetkazib berish, anatomik qurilishi, yuzasi tuzilishini tasvirlab bera olish mahoratini faollashtirishdan iborat. Ishga bunday yondoshish boshlovchi rassomga akademik qoidalar va qonunlarni eslab qolish va tushinish



kerakligini, amaliy ishlarda bu bilimlar va ko'nikmalar zarurligini tushunib olishiga yordam beradi.

Olingan bilim va ko'nikmalar boshlovchi rassomlar ijodiy faoliyatini nafaqat faollashtiradi, balki o'z faoliyatini kabi o'z o'rtoqlari faoliyatini ham ob'ektiv baholash tajribasiga ega bo'lishga yordam beradi, badiiy – estetik baholash shaxsiy o'lchovlari shakllanishiga yordam beradi. Akademik rasm chizish mashg'ulotlarida o'quvchilar o'ylab topishlari, ixtiro qilishlari kerak, ayyorlik qilishlari kerak emas. Ular ushbu naturada ularni nima hayajonlantirayotgan narsa o'z hissiyotlari bilan javob qaytarishlari kerak, lekin bularni o'z rasmida aniq ifoda etishlari lozim. Yosh rassomning ilmiy dunyoqarashi kengayishi unga mavjud bilimlari, mahorat va ko'nikmalaridan ishonch bilan foydalanishga imkon beradi. Uning ijodiy faoliyatining aniq ko'rsatkichlari amaliy faoliyati natijalari - o'quv rasmlari hisoblanadi. Bunga qo'shimcha sifatida yana shuni aytish kerakki, o'quvchi tasvirni akademik holatini o'rganib borishida, u o'zi uchun ko'p yangiliklarni ochadi, o'zini yangi ish usullari bilan boyitadi. Tajribali rassom uchun allaqachon ma'lum va odatiy bo'lgan narsalar boshlovchi rassom uchun yangi, ajoyib, birinchi bor uchrayotgan bo'ladi. Albatta, birgina bilim hamma narsani hal qilmaydi. Chistyakov bu haqda shunday deb yozgan: «San'at bu fan emas, san'at fandan foydalanadi, san'at qonunlari bilishi va ularni ishda qo'llashi kerak, ana shuning uchun ham san'at bu – mahoratdir».

### Nazorat savollari

1. Qadimgi tasviriy san'at namoyondalarining o'qitish metodikasiga qo'shgan hissalarini.
2. Tasviriy san'atda "Erkin ijod" usuli haqiqi fikrlarni ta'riflang.
3. Badiiy amaliyotda "Kardovskiy" usunini ta'riflang.
4. Sapojnikov usuli qanday?
5. A.Dyurer kim? U qanday usulni taklif qilgan?
6. Akademik rasm deganda nimalarni tushinasiz
7. Yevropadagi birinchi badiiy akademiyalar
8. A.Dyurerning bosh shakli sxemasini tushuntirib bering
9. Qaysi davri rassomlari "Qo'l bilan emas, balki bosh bilan chizamiz" - deb aytganlar?
10. Sikkion rasomchilik maktabi eshigiga qanday so'zlar yozib qo'yilgan edi?

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdirasilov S., Tolipov N. Rangtasvir. -T.: Bilim, UMKXTM. 2005.
2. Abduraxmonov G'.M. Kompozitsiya asoslari – T.: "TDPU", 2008.
3. Baymetov B. Haykaltaroshlik va plastik anatomiya. – T.: "Iqtisod-moliya" 2007.
4. Baymetov B. Qalamtasvir. OO'Yu talabalari uchun darslik. Musiqa, -T.;
5. Baymetov B., Tolipov N., Abdirasilov S. Tasviriy san'at. Cho'lpon, -T.: 2006.



6. Baymetov B, S. Tolipov M, Azimov S. Plastik anatomiya. «Ilm ziyo», - T.: 2012 (4- qayta nashri).

7. Boltabayevich, B. B. & Pardaboy, K. (2020). Scientific and theoretical aspects of the formation of compositional abilities of students in painting classes. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 8 (3), 93-96.

8. Botir Boltabaevich Baymetov, Khusan Kholmuratovich Muratov. [Self Sketches as a Tool in the Professional Training of a Future Artist-Teacher](#). Solid State Technology. 2020/2/29. [Vol. 63 № 2 \(2020\)](#). 224-231.

9. Boltabayevich, B. B., & Shodieva, B. O. (2020). Individual Approach To The Formation Of Artistic And Creative Talents Of Students In Art Schools. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 2(08), Website: [www.usajournalshub.com/index.php/tajssei](http://www.usajournalshub.com/index.php/tajssei) 637-642.

10. Baymetov, B. B., & Sharipjonov, M. S. O. (2020). Development Of Students' Descriptive Competencies In Pencil Drawing Practice. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 2(08), Website: [www.usajournalshub.com/index.php/tajssei](http://www.usajournalshub.com/index.php/tajssei). 261-267.

11. Baymetov Botir Boltaboievich. Methods of Portraiture in the Process of Making Sketches and Drawings of the Human Face in Higher Pedagogical Education. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, Vol. 24, Issue 05, 2020 ISSN: 1475-7192. DOI: 10.37200/IJPR/V24I5/PR2020625 Received: 14 Apr 2020 | Revised: 22 Apr 2020 | Accepted: 12 May 2020. 6408-6415

12. Baymetov Botir Boltaboievich. Formation of the skills of portraying the future teacher of fine arts in pencil drawing 1122-1127. academia: An International Multidisciplinary Research Journal <https://saarj.com>

13. Baymetov Botir Boltaboievich, Sharipjonov Muhiddin Shokirjon ugli. Formation of creative competences of the fine art future teachers describing geometrical forms (on sample of pencil drawing lessons). 1996-2001. academia: An International Multidisciplinary Research Journal <https://saarj.com>

**2-mavzu. Tasviriy san'at fanlarini o'qitishda ilg'or ta'lim texnologiyasidan foydalanishning asosiy tamoyillari. Tasviriy san'atdan bo'lajak o'qituvchilargi muammoli mashg'ulotlarni tashkil etish. Tasviriy san'at asarlarini yaratishda borliqni idrok etish masalalari**

**Reja:**

1. Tasviriy san'at fanlarini o'qitishda ilg'or ta'lim texnologiyasidan foydalanishning asosiy tamoyillari. Tasviriy san'atdan bo'lajak o'qituvchilargi muammoli mashg'ulotlarni tashkil etish

2. Oliy pedagogik ta'limda tasviriy san'at o'qituvchilariga shakllarni tasvirlashda borliqni idrok etish masalalari.

3. Tasviriy san'atdan talabalar ijodiy qobiliyatlarni shakllantirishda individual yondashuv.



**Tayanch iboralar:** *Tasviriy san'at, kompozitsiya, konstruktsiya, ton, chiziqli qurish, rang munosabatlari, portret, janr, uslub, klassika, renessans, antik davr, haykaltaroshlik, kartina qalamtasvir, format, oliy ta'lim, rassomlik san'ati.*

**1. Tasviriy san'at fanlarini o'qitishda ilg'or ta'lim texnologiyasidan foydalanishning asosiy tamoyillari. Tasviriy san'atdan bo'lajak o'qituvchilarga muammoli mashg'ulotlarni tashkil etish texnologiyalari.**

Bugungi kunda o'qituvchining vazifasi-o'quv jarayonini talabalarda faqat reproduktiv fikrlashni emas, balki, ijodiy fikrlashni ham shakllantiradigan yo'sinda tashkil qilishdir. Bunda o'qitishning muammoli usuli qo'l keladi. Muammoli ta'lim-bu o'quv materialini talaba ongida ilmiy izlanish asosida bilish vazifalari va muammolarini vujudga keltiradigan yo'sinda o'rgatish uslubidir. Talabaning fikrlash faoliyatida muammoli vaziyatlar vujudga keladi va ular bolani ob'ektiv ravishda izlanishga va mantiqiy to'g'ri ilmiy xulosalar chiqarishga dav'at etadi.

**MUAMMO**-ilmiy bilishni rivojlantirish zarurligini ifodalashning sub'ektiv shaklidir. U muammoli vaziyatda, ya'ni jamiyat rivojlanishi jarayonida bilish va bilmaslik o'rtasida ob'ektiv ravishda vujudga keladigan ziddiyat.

**MUAMMOLI VAZIYAT**-talabaning ma'lum psixik holatidir. Bunday holat ma'lum topshiriqlarni bajarish (masala yechish, savolga javob topish) jarayonida ziddiyatlarni anglash tufayli vujudga keladi. Ana shu ziddiyatni anglash talabalarda ishni bajarishning usuli yoki shartlari to'g'risidagi yangi bilimlarni izlash ehtiyojini uyg'otadi.

Muammoli vaziyat muammodan farqli ravishda unga talabani jalb etishdan iboratdir. Didaktika va psixologiyaga doir adabiyotlarda muammoli vaziyatlarning tiplarini tasniflash asosida ularning yaratishning eng muhim yo'llari va usullarini ishlab chiqilgan. M.Maxmutov muammoli vaziyat tiplarini ta'riflash bilan birgalikda ularning yaratishning qo'yidagi asosiy usullarini ifodalaydi.

1. Talabalarining nazariy tushunchalarini talab qiladigan hodisalarga, faktlarga, shuningdek, hodisalar o'rtasidagi tashqi nomuvofiqliklarga duch kelishi ularni ana shu nomuvofiqliklarni tushuntirishga intilishga undaydi va bu intilish bilimlarni faol o'zlashtirishga olib keladi.

2. Talabalar o'quv yurti uyida yoki ishlab chiqarishda amaliy topshiriqlarni bajarayotganda vujudga keladigan ta'limiy va hayotiy vaziyatlardan foydalanish. Bunday holatda muammoli vaziyatlar talabaning o'z oldiga qo'yigan amaliy maqsadga mustaqil ravishda erishish uchun harakat qilishda muammoni o'zlari vujudga keltiradilar.

3. Hodisani tushuntirishga yoki uni amalda qo'llash yo'llarini izlashga doir ta'limiy-muammoli topshiriqlar qo'yish.

4. Talabani hayotiy tasavvurlar bilan faktlar va hodisalarni tahlil qilishga qiziqtirish.

5. Taxminlar, xulosalarni bayon qilish va ularni tajribalarda tekshirish.

6. Talabalarni faktlar, harakat va hodisalarni taqqoslashga hamda qarama-qarshi qo'yishga da'vat etish.



7. Talabalarni yangi faktlarni umumlashtirishga, taqqoslashga rag'batlantirish. Bunda, odatda muammoli vaziyat vujudga keladi, chunki taqqoslashda yangi faktlarning qandaydir alohida, tushuntirib bo'lmaydigan belgi va xususiyatlari aniqlanadi.

8. Fanlararo aloqalarni tashkil etish. Ko'pincha o'quv materiali muammoli vaziyatni vujudga keltirishni ta'minlaydi. Bunday holat boshqa o'quv fanlaridagi o'rganilayotgan materialga bog'liq fakt va materiallardan foydalanish lozim.

Shunday ekan ta'lim jarayonini o'qituvchi va talaba hamkorligida ongli, ma'lum maqsadga yo'naltirilgan faoliyat deb qarash to'g'ridir. Uning tarkibiy qismlari: maqsadga yo'nalganlik, ehtiyoj-intilish, mazmun, faoliyat, jarayon, nazorat-tuzatish va natijalarni baholashdan iborat. Muammoli darsda yangi o'rganilayotgan qonun-qoidaga oid faktlar to'plash, ularni taqqoslash va tahlil qilish, bilimlarni o'rganish va mustahkamlash parallel ravishda olib boriladi.

Ta'lim tizimida faoliyat ko'rsatayotgan har bir o'qituvchi dars jarayonida muammoli ta'lim usulini qo'llash uchun, avvalo, quyidagi ketma-ketlikni aniq bilib olishi zarur:

- muammo qo'yish;
- muammoni xarakterlovchi sharoitni o'rganish;
- qo'yilgan muammoni hal qilish;
- topilgan yechimning to'g'riligini asoslash;
- muammoning yechimini izlash va hal qilish jarayonida paydo bo'lgan yangi bilimlarini anglash;
- muammoni tizimlash, motivlashtirish va umumlashtirish;
- muammo yechimini o'rganish, uning yanada ixcham va qulay yo'llarini izlash.

Ta'lim texnologiyasi bo'yicha qilinadigan barcha ishlar o'ziga xos amaliy asosga ega. Ta'lim loyihasini tayyorlash o'qituvchi va o'quvchining kelajakda birgalikda amalga oshiradigan faoliyatini oldindan belgilaydi.

O'qituvchi ta'lim loyihasini amalga oshirishda, eng avvalo, talabaning fikrlash faoliyatida mantiqiy to'g'ri, ilmiy xulosalarni chiqarishga va o'zlashtirishga rag'batlantiradigan muammoli vaziyatlarni vujudga keltirishni nazarda tutmog'i lozim.

Aslida, har qanday ta'lim talaba uchun muammodir. Chunki ta'lim olish jarayonida talaba unga hozircha noma'lum bo'lgan narsa bilan tanishadi hamda ma'lum bir tushunchani egallaydi. Shunday ekan, o'qituvchi talabalarning fikrlash faoliyatida muammoli vaziyatlarni yaratish orqali ularda har narsani bilishga havas, mustaqillik, o'qishga qiziqish va ijod qilishga intilish kabi shaxsiy fazilatlarini tarbiyalab borishi lozim.

Muammoli vaziyatni vujudga keltirish, undan foydalanish usullarini yaratish, ta'lim tizimining har bir bosqichida o'rganilayotgan fanlar, ularning xususiyatlari, talabalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda yaratiladi. Bir xil yoshdagi talabalarning jismoniy va aqliy xususiyatlariga ko'ra tushunishi, fikrlashi, ishni bajarishi qobiliyati turlicha bo'ladi. Shuning uchun muammoli vaziyatni yaratishdan avvalo talabani ruhiy jihatdan puxta tayyorlash zarur.



Psixologlarning ta'kidlashicha, fikrlash doimo muammo yoki savoldan, ajablanish yoki tushuna olmaslikdan va ziddiyatdan boshlanadi (S.O.Rubinshteyn). dars jarayonida muammoli vazifalarni hal etishda aniq vaziyatlarni tahlil qilish, baxolash va keyinchalik qaror qabul qilishga e'tibor berish lozim.

Muammoli vaziyatlarni hal qilish usullarida asosiy yetakchi funksiyalar:

- o'rgatuvchi: bilimlarning dolzarbligini aniqlashga asoslanadi.
- rivojlantiruvchi: tahliliy tafakkurni, alohida faktlar orqali hodisa va qonuniylikni ko'ra bilishni shakllantiradi.
- Tarbiyalovchi: kommunikativ ko'nikmalarni shakllantiradi.

Demak, muammoli vaziyat talabalarning mustaqil ishlarini takomillashtirishga asoslangan bo'lib, ularda ilmiy tushunchalarni, amaliy ko'nikmalar va malakalarni shakllantirish, boshqa materiallarni chuqur va mantiqiy tahlil qilishga asoslangandir. Agar, siz muammoli dars o'tishni istar ekansiz, avvalambor, muammoli vaziyatlarni yaratish yo'llarini bilishingiz kerak bo'ladi. Bunda quyidagilarga e'tibor bering.

- aniq savollar qo'yasiz: umumlashtirishga, isbotlashga, aniq mantiqiy fikr yuritishga undovchi:

- talabalarga fikrlashga undovchi savollar berilib, uning yechimini mustaqil ravishda o'zlariga topishni taklif etasiz;

- nazariy va amaliy topshiriqlar orqali talabalarni taqqoslashga, umumlashtirishga, xulosalar chiqarishga, berilgan faktlarni solishtirishga da'vat qilasiz;

- bir savolga turli nuqtai-nazardan qarash lozimligini tushuntirasiz va berilgan javoblarni asoslashga undaysiz;

- talabalarga hodisalarni turli vaziyat orqali ko'rib chiqishni taklif etasiz hamda amaliy ish jarayonida duch keladigan qarama-qarshiliklarni ma'lum qilasiz.

Shunday qilib, muammo hech qanday tayyorgarliksiz, to'g'ridan-to'g'ri qo'yilmaydi. U butun darsda bosh masala sifatida bayon qilinadi. Qo'yilgan muammolarning murakkabligi tabiiyki, talabalar saviyasiga mos bo'lishi kerak. Tanishtiriladigan materiallar uncha katta bo'lmasligi lozim. Materiallarning, xususan, masalalarni talabalarning o'zlari hal qila olsalargina, ularning hal qilishdagi salohiyati ortadi.

Muammoli darslarda mavzuga oid beriladigan savollar shunday tuzilishi lozimki, talaba savolga javob berishda kamchiliklarni to'ldirsin, noma'lumni aniqlasin, o'xshashlik va farqini topsin, fikrini ifodalasin. Muammoli vaziyatni hosil qilish tadqiqot, evrestik suhbatlar, namoyish etish, muammoli bayon qilish, reproduktiv metodlardan foydalangan holda tashkil etiladi.

Tadqiqot metodida talabalarni izlanishga, o'zlari uchun yangi muammoni hal qilishga yo'naltiriladi va u quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1. Fakt va hodisalarni kuzatish va o'rganish;
2. Tushunarsiz hodisalarni oydinlashtirish;
3. Gipotezani olg'a surish;
4. Reja tuzish va uni amalga oshirish;
5. Yechimni topish va uni tekshirish;





6. Bu metoddan og'zaki va matbuot so'zlari, ko'rsatmali vositalar, amaliy ishlar, yozma va grafik ishlar, laboratoriya mashg'ulotlarida foydalaniladi.

Evrestik metod o'zaro bog'liq bo'lgan savollardan suhbatni tashkil etish yo'li bo'lib, unda talaba o'z bilimlaridan foydalanib, qolmay, balki izlanishlarni amalga oshirishi lozim.

Muammoli bayon etishning mohiyati talaba muammoni qo'yib, uni o'zi hal qilishi va yechimning ahamiyatini talabalarga tushunarli ziddiyatlar orqali ko'rsatishdan iborat.

Demak, muammoli topshiriqlar talabalarning mustaqil bilim olishlarini kuchaytiradi.

<b>MUAMMOLI DARSNI TASHKIL ETISHNING TEXNOLOGIK XARITASI</b>		
Ish bosqichlari tayyorlov bosqichi.	O'qituvchi faoliyati. Darsni tashkil etish mazmunini, qo'yiladigan muammoli vaziyatni hamda ushbu vaziyatning talabalar tomonidan hal qilinish yo'llarini, ta'limiy, rivojlantiruvchi, tarbiyalovchi maqsadni, kutilayotgan natijani va baholash mezonini belgilaydi.	Talaba faoliyati
Tashkil etish bosqichi, ya'ni muammo qo'yish, da'vat bosqichi	Dars maqsadini bayon qiladi, mavzuga oid muammoli vaziyat hosil qiladi (muammoli savollar qo'yadi) talabalarga qo'yilgan muammoni yechishga doir ko'rsatmalar va yo'llanmalar beradi va ish natijalarini baholash mezonlari bilan tanishtiradi.	Dars maqsadini va belgilangan muammoni yozib oladilar. Muammoli vaziyat va muammobayon etilgan materiallar bilan tanishadilar va uni hal qil yo'llarini o'ylaydilar
Mustaqil ishlash jarayoni, muammoning yechimini topish, anglash va fikrlash bosqichi	Qo'yilgan muammoni talabalarning to'g'ri tushinishlari, ularni muammoga yo'llash maqsadida munozara va aqliy hujum, klaster, kubik, zigzak usullaridan foydalanadi va yakka, ikkita hamda guruh bilan ishlashlarini tashkil etadi.	Talabalar berilgan muammolarni yakka tartibda, ikkita bo'lib yoki guruhlarga bo'lingan holda yechishning turli mikoniyatlarini muhokama qiladilar, tahlil qilib eng qulayliklarini topadilar va bir fikrga keladilar.



	Talabalarni faollashtirish maqsadida bir guruhdan ikkinchisiga o'tish yo'llarini amalga oshiradi.	
Natijalarni taqdim etish	Diqqat bilan tinglaydi, talabalarning fikrlarini, tushunchalarini aniqlashtiruvchi savollar beradi.	Natijalarni bayon qiladilar va boshqa guruhlar taklif qilgan natijalar bo'yicha fikr yuritadilar va savollar berish orqali tushunchalarini mustahkamlaydilar.
Yakunlash va umumlashtirish bosqichi	Belgilangan muammoni yechish usul va yunalishlarining eng asosiylarini ko'rsatib, ko'pchilik fikriga mos kelganlarini alohida ta'kidlaydi. Talabalarni qanchalik muammolarini yechishdagi intilishlari, fikrlashlari va yechimini topishini inobatga olingan holda baholaydi.	O'qituvchining xulosalarini tinglaydi, yozib oladi. Guruhlar bir-birlariga va o'z-o'zlariga baho qo'yishlari ham mumkin.

## 2. Oliy pedagogik ta'limda tasviriy san'at o'qituvchilariga shakllarni tasvirlashda borliqni idrok etish masalalari.

Rasm chizishni o'rgatishda asosiy vazifa, bu rassomda jism shaklini masofadan ko'rish va tasvirlash qobiliyatini shakllantirishdan iborat. Jism shaklini masofadan (kenglikda) ko'rish va tasvirlash – jismni «to'la hajmda», uch o'lchamli shaklda (balandligi, eni va qalinligini) ko'rish demakdir.

O'quv mashg'ulotlarining asosiy vazifasi naturani xaqqoniy uning o'lchamlarini to'g'ri ifodalagan holda, ko'rsatib bera olishdan iborat. Bunga ko'z bilan o'lchash (masofa va jism o'lchamlarini ko'zda chamalash) qobiliyatini rivojlantirish va ko'zni to'g'ri qaratish orqali erishiladi. Bunday hollarda jism o'lchami va masofani aniqlash uchun ko'z bilan chamalash qobiliyatini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Chamalash qobiliyatini shakllantirish uchun ish jarayonida doimiy ravishda ko'z bilan nisbatni aniqlash qo'l keladi. Rasm aniqligi bo'yicha ilgari suriluvchi doimiy talablar bo'lajak mutaxassislarni o'z ishlariga nisbatan e'tiborli, mas'uliyatli bo'lishga o'rgatadi, ularda tabiatni sinchkovlik bilan tahlil qilish ko'nikmalarini hosil qiladi va bir vaqtning o'zida ko'rgan qiyofani eslab qolish qobiliyatini ham rivojlantiradi.

Ko'rish orqali eslab qolish rassomning eng qimmatli va e'tiborli hislati bo'lib hisoblanadi. U tasvirdagi jism shakli, nisbati va tuzilishi haqidagi aniq va



umumiy tasavvurni xotirada saqlaydi. Bu esa shaklni «xotiradan», tasavvur va anglash asosida chizish imkonini beradi va rassomning kelgusida mustaqil kompozitsiyalar va eskizlar yaratish borasidagi ishlarini birmuncha yengillashadi.

Naturadan rasm chizish bo'yicha olib borilgan doimiy mashqlar natijasida ko'rib eslab qolish qobiliyati rivojlanadi. Bunday mashqlar, ayniqsa, rassomchilikka endi qadam bosayotgan yoshlar orasida ko'proq o'tkazilishi yaxshi natija beradi. Bu tizim jismlarning shakli, konstruksiyasi, nisbatlari va plastikasi to'g'risidagi (ko'rish orqali olingan) tasavvurni – jismlarning tabiiy ko'rinishini xotirada yanada mustahkamlanishida asosiy o'rin tutadi. Ushbu maqsadni amalga oshirishda qisqa muddatli chizgilar va rasmlar ishlash ko'zda tutiladi. Ko'rish xotirasini mustahkamlovchi bunday mashg'ulotlarda avvalo eng asosiy qism yodda tutiladi, ikkinchi darajali qismlar inkor etiladi; bunda asosiy maqsad – umumiy shaklni eslab qolish. Shuningdek mashg'ulotlar davomida eslab qolish darajasi kengayadi va chuqurlashadi: ikkinchi darajali qismlar va b'ulaklar ham xotira qoladi. Chizgilar va qisqa muddatli rasmlar talabada naturani xaqqoniy ko'ra olish–to'liq ko'rish hislatini rivojlantiradi va tarbiyalaydi.

Ko'pchilik hollarda yosh rassom bir tartibda ishlamaydi, umumiy shakldan ko'ra uning qismlariga ko'proq e'tibor qaratadi va har bir elementning mohiyatini tushunib yetmaydi. Talaba agar tasvirni to'liq ko'ra olsa va «umumiydan - qismlarga va qismlardan – yana umumiyga» tamoyilidan foydalangan holda tasvirlashdagina ish samarali bo'lishi mumkin. Doimiy ravishda qismlarni umumiy jism bilan tasvirlab ish yuritish bir vaqtning o'zida rasmning har bir qismi ustidan nazorat o'rnatish imkonini beradi.

Shaklning nisbatlari va chiziqli-konstruktiv tuzilishini shtrixlash orqali aniqlash rassomdan bir vaqtning o'zida butun rasm ustida ishlashni talab etadi. Oddiy natyurmortdan tortib, to murakkab shaklga ega bo'lgan inson qomatini tasvirlash vazifalarida ushbu tamoyilga katta e'tibor qaratiladi.

Tasvirlash malakasini o'zlashtirish orqali ma'lum bir miqdorda to'liq ko'rish qobiliyatini rivojlantirish mumkin. Bajarilayotgan ishning muvaffaqiyati talabaning molbert oldida qanday o'tirishiga va qalamni qay holatda ushlashiga bog'liq.

Talaba qalamning oxiridan-charxlangan uchiga nisbatan qarama-qarshi tarafdin ushlashi kerak. Bunda qalam qog'oz ustida istalgan burchak bo'yicha harakatlana oladi. Rasm chizish jarayonida qo'lning mustahkam holatini ta'minlash uchun jimjiloq uchini molbertga ohista tiraladi. Kerakli tus chiqarish uchun shtrixlarni teng intervallarda bir-biriga parallel ravishda chizish orqali erishiladi. Sferik yuzalarda to'q rangdan och rangga o'tish uchun shtrixlar orasidagi intervallarni kamaytirish yoki ko'paytirish hamda qalam uchini, qattiqroq yoki yengilroq bosish orqali amalga oshiriladi.

Ma'lumki, jismning to'la hajmini bir tomondan ko'rish mumkin emas. Faqatgina jismning har bir qismini atrofdan ko'rib chiqib jismning xaqiqiy shaklini bilish mumkin. Jismlarning kenglikdagi ko'rinishini tasavvur eta olish va anglash mahoratining natijasi, qo'yilgan jismning xaqqoniy tarzda tasvirlanishi bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun jismlarning bizga ko'rinish turgan chegaralari va konturlari yordamida jismga yorug'lik tushishi va hosil bo'ladigan soyani hisobga



olib jismning sirtqi tarafi to'g'risida tasavvurga ega bo'lamiz. Ko'rib anglashning ushbu xususiyatlari realistik tasviriy san'atning qonun-qoidalarini belgilab beradi. O'z navbatida, realistik tasvirda shunday xususiyatlar bo'lishi lozimki, ular jismning shakliga tusiga qarab tasvirni to'g'ri tasavvur etish yoki tushunish imkonini berishi kerak.

Tasviriy san'atga o'rgatish jismlarni kenglikda kuzata bilishni o'rgatishdan boshlanadi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad, jismlarni to'g'ri tasvirlay olishdir. Realistik tasviriy san'atda insonni o'rab turuvchi shakl va jismlar tabiatda qanday mavjud bo'lsa, hamda ularni inson ko'zi qanday qabul qilsa, shunday tasvirlanadi. Buning uchun talaba ko'rib idrok etishning ba'zi xususiyatlarini egallashi, shaklni qog'oz yuzasida to'la hajmli etib tasvirlash qoidalarini va usullarini bilishini talab etadi. Tasviriy san'atning barcha turlari va janrlarida bo'lgani kabi, qalamtasvirga o'rgatish jarayoni ham mashg'ulotlarning oddiydan – murakkabga tartibda amalga oshirilishini ko'zda tutadi. Bunda agar oldingi mashg'ulot talaba tomonidan yetarli o'zlashtirilmasa, keyingi, yanada murakkabroq vazifalarni tushunish imkonini qiyin kechadi.

### **3. Tasviriy san'atdan talabalar ijodiy qobiliyatlarni shakllantirishda individual yondashuv.**

Pedagogika oliy o'quv muassasalarida bo'lajak pedagog kadrlarni kasbiy tayyorlashda mutaxassislik fanlarning o'rni katta bo'lib, ulardan asosiysi qalamtasvir mashg'ulotlari hisoblanadi. Tasviriy san'atdan malakali pedagog-kadrlar tayyorlashda oliy o'quv yurti professor- o'qituvchisi talabani mashg'ulotlar davomida quyidagi asosiy jihatlarga yo'naltirishi lozim. Ular:

1. Talabalarga tasviriy san'atning asosiy qonun qoidalarini nazariy va amaliy jihatdan puxta o'rgatish.
2. O'quv postanovkalarini bajarish jarayonida talabada tasvirlash mahoratlarini shakllantirish (shakl hajmini tushirish jarayonida chiziqlar tortish mahoratlarini oshirishga o'rgatish).
3. Vazifaning mohiyatidan kelib chiqqan holda uni 2,3,4 seansga mo'ljallab metodik bosqilarga to'liq rioya qilgan holda olib borishga erishish.
4. O'quv postanovkalarini bajarishda naturaga bo'lgan emotsional his tuyg'uni shakllantirish.
5. Talabalarning tasvirlash mahoratlari, hamda naturani his qilishlaridan kelib chiqqan holda ularning har biriga individual yondoshish.

Yuqorida sanab o'tilgan jihatlarning barchasi bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisini kasbiy tayyorlashda muhim hisoblanadi. Shularning eng asosiylaridan biri bo'lgan amaliy va nazariy mashg'ulotlarda talaba bilan individual ishlashga kengroq to'xtalamiz.

Bo'lajak o'qituvchini rasm chizishga o'rgatish, hamda kasbiy jihatdan ijodkor sifatida shakllantirish oliy o'quv yurti professor-o'qituvchisining rassom



sifatida profesional badiiy tayyorgarligidan tashqari, psixologik-pedagogik tayyorgarligiga ham ko'p jihatdan bog'lik. U o'z o'quvchisining psixologiyasini, xarakter xususiyatlarini, shaxs sifatida uning qanday odam ekanligini bilishi, uning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun nimalarga ko'proq e'tibor qaratish kerak ekanligini anglashi muhimdir.

Ma'lumki, tasviriy san'atga har bir inson dastlab juda yoshlik chog'idan qiziqqa boshlaydi. Avval har bir yosh maktab o'quv programmasi darajasida, shundan keyin qobiliyati va qiziqishiga qarab o'rta maxsus kasb hunar kollejida tasviriy san'atdan ta'lim va tarbiya oladi. So'ngra, ma'lum darajada nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lib, qachonki o'z ustida tinmay izlanish va ko'plab amaliy mashqlar bajarish natijasida o'z yo'nalishi va uslubiga ega bo'ldi. Lekin har kimning atrof muhitni turlicha qabul qilishi, ko'rib kuzatib borliqni turlicha talqin etishiga qarab har bir individning qobiliyati turlicha bo'ladi. Shuning uchun oliy o'quv yurtida tasviriy san'atdan dars beruvchi pedagog-rassomning muvaffaqiyatga erishi uchun u o'z shogirdlarining psixologiyasini, o'ziga xos xususiyatlarini bilishi va tasviriy malakalarning qay darajada ekanligini puxta bilishi kerak. Har bir o'quvchi psixologik xususiyatlari faoliyat bilan shug'ullanuvchi aniq bir shaxsga yondoshish yo'llarini aniqlash, unga psixologik-pedagogik ta'sir etish usullarini aniqlash uchun kerak bo'ladi.

Buni o'tmishdagi rassom-pedagoglar ham yaxshi tushunishgan. P.P.Chistyakov haqida, buyuk pedagog sifatida eslab V.M.Baruzdina shunday deb yozgan: «Iste'dodlar shunchalik turli-tumanki P.P Chistyakov har birini o'z xarakteri bo'yicha o'rgatgan, ularning barchasini u hayron qoldirib, aniq topa olardi, shuning uchun ham uning o'quvchilar ham bir-biriga o'xshamaydi, o'z o'qituvchisiga ham o'xshamaydi. Ular hamma uchun bitta faqatgina qonun bo'lgan, masalan hal etishga turli usul bilan yondoshish o'quvchilarning individualligi ixtiyoriga berilgan» 1. Biz aytib o'tganimizdek, ijodiy faoliyatini faollashtirishda emotsiya va xissiyotlar katta rol o'ynaydi, lekin ustun turuvchi emotsiyalar ta'siri ostida eng katta samaraga erishish mumkin. Demak, rasm chizish akademik mashg'ulotlarida o'quvchilar ijodiy faoliyatini faollashtirish uchun bir tomondan ularda kuchli xissiyot va estetik hayajon uyg'otish kerak, ikkinchi tomondan esa- ularda ishni boshlashdan avval qanday hissiyot va hayajon paydo bo'lishini kuzatish kerak. Bir xillarida topshiriqni pedagog aytganidek, bajarish istagi paydo bo'ladi va ular ishga kirishadilar. Boshqalari esa, aksincha, o'zlariga ishonchi yo'q, qo'rqadilar, bu topshiriqni bajarishga kuchlari yetmaydi deb o'ylaydilar. Bu yerda pedagog eng avval qo'rqinchni yo'qotishi kerak, o'ziga ishonchni uyg'otishi, qo'yilgan vazifani bajara olishi mumkinligiga ishontirishi kerak. Boshqacha aytganda ijobiy emotsiyalar uyg'otishi kerak. Bu vaziyatda ijodiy faoliyatni faollashtirib, pedagog har bir o'quvchiga juda diqqat bilan e'tibor



berishi kerak: birinchi holda o'quvchini rag'batlantirib uning ijodiy tashabbusini to'g'ri yo'lga solish kerak; boshqa holatda esa aksincha, darhol to'xtatish, uning yangilashayotganini tushuntirish va uning diqqatini o'quv topshirig'ini bajarishga jalb etish kerak. O'z o'quvchilarida ijodiy qobiliyatni rivojlantirib, pedagog bilim va ko'nikmalarga qiziqishini, mustakilligini, ijodiy tashabbusini, uziga talabchanlikni hisobga olishi kerak. Ko'p yillik tajribalar ko'rsatishicha, talabalar bir-biridan idroki va xarakteri bo'yicha ham, tug'ma qobiliyati bilan ham ancha farq qiladilar. Bu individual farqlar rasm chizishga o'qitish borishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Ularni aniqlab va foydalanib, pedagog o'quvchilar bilan kerakli aloqa o'rnatiladi va ularning har birini to'g'ri yo'lga sola oladi, ya'ni uning badiiy-ijodiy qobiliyatini ochadi va ularni rivojlantiradi. Talaba akademik topshiriqni bajarganida, masalan, yalang'och odamning gavdasini tasvirlaganda, ular hammasi tasvirni ko'rish bir xil tamoyil va usullari bo'yicha ish olib boradilar. Ammo individuallik psixologik xususiyatlari hisobiga ulardan har bir naturani o'ziga qabul qiladi va aks ettiradi va har bir rasmda tasvirlash tilining individual mazmundorligi ta'sirini ko'rsatadi. Bunda shuni esda saqlash kerakki, qobiliyat faqatgina rivojlanishdagina mavjud bo'ladi va bu rivojlanish faqatgina amaliy faoliyat jarayonida amalga oshirilishi mumkin. Rasm chizishga qobiliyat o'z-o'zidan yuzaga kelmaydi, u faqatgina tasviriy faoliyat bilan shug'ullanish davrida namoyon bo'la oladi. Tasviriy ilm asoslari haqida bilim olar ekan (perspektiva qonunlari, soyalar nazariyasi, anatomiya), tasvirlash mahorat va ko'nikmalarini egallab, rasm chizuvchi bir vaqtning o'zida o'z ijodiy qobiliyatini ham rivojlantiradi. Ko'rayotganiga emotsional munosabati hajm, nisbatlarini aniq qabul qilishi:

- ko'z va qo'lning sensorli harakatlari;
- o'xshashlikni darhol topib olish; o'quv materiallarini tez va oson o'zlashtirib olishi;
- ta'sirchan va ifodali tasvirlash;
- san'atga muhabbat va katta ishchanligi qobiliyatlari belgisi hisoblanadi.

Rasm chizishga akademik mashg'ulotlarda badiiy-ijodiy qobiliyatini rivojlantirish muhim omili deb rasm chizuvchining o'quv materialini o'zlashtirishga ijobiy va emotsional munosabatini faollashtirishni hisoblash kerak. naturani his etib qabul qilishni va uning qonuniyatlarini anglab yetishni faollashtirish; shaklni rasmda badiiy-ijodiy tasvirlab ko'rsatib berishni faollashtirish hisoblanadi. Bunday faollashtirishning psixologik-pedagogik shartlari-emotsional kayfiyat yaratish (o'quv materialini yetkazib berish emotsionalligini, obrazliligi) pedagog va o'quvchi o'rtasida o'zaro aloqalar o'rnatilishi: ishlarni bajarish usullarini pedagog ko'rsatib berishi; e'tiborni



tortuvchi kerakmas narsalarni yo'qotish; o'rganilayotgan materialning o'quvchi qiziqishi bilan bog'liqligi; darslararo predmetlararo bog'liqlikni amalga oshirish (chizma geometriya- materiallarini kiritish-perspektiva, psixologiya, rasm va predmetni qabul qilish); o'quvchilarga ta'sir etishning pedagogik usullari turli – tumanligidan iborat. Rasm chizish bo'yicha hamma dasturlarda xotirasi bo'yicha va tasavvuri bo'yicha mustaqil rasm chizish maxsus topshiriqlari ko'zda tutilgan. Bu topshiriqlarni bajarishda rasm chizuvchi o'z bilim va ko'nikmalarini mustahkamlash bilan birga, ularni ijodiy qayta tushunib anglab yetadi. Mustaqil ishni bajarish auditoriyada bo'lsa ham, uyda bo'lsa ham alohida kuch bilan ijodiy faoliyatni faollashtiradi. Hamma uyga topshiriqlari muammoni xususiyatiga ega bo'ladi, chunki ularda ijodiy yondoshishni talab etuvchi bir qator masalalarni mustaqil yechishga to'g'ri keladi.

Muammoli vaziyat o'quvchidan tadqiqotchilik ko'rinishida yondoshishni, mustaqil ravishda bilimlar izlab topishni, rasm chizish sohasidagi o'z ko'nikmalaridan yangicha foydalanishni talab etadi. Muammoli vaziyat mantiqiy, ijodiy fikrlashga o'rgatadi, qiziqtiradi.

Bu yerda pedagogning metodik ishlari juda ham muhimdir: muammoni mohirlik bilan ifoda etib berish, undan asosiy bo'lmagan kichik muammolarni ajratib chiqarish, ijodiy fikrlashni faollashtirish. Ilgarigi badiiy akademiyada bunday topshiriqlar ko'zda tutilmagan edi. Lekin uning ko'plab tarbiyalanuvchilari xayolan ularning zarurligini sezganlar. Masalan, Fedor Tolstoy akademiyani tugatayotgan O.A.Kiprenskiy maslahati bilan xotira bo'yicha rasm chizish bilan mustaqil shug'ullana boshladi.

Rasm chizish mashg'ulotlarida ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda atrof-muhit ta'sirini, alohida shaxslar va jamoaning o'zaro munosabatini hisobga olish zarur. O'quv materiallarini o'zlashtira borib, har bir o'quvchi, o'z qobiliyatiga binoan natijalarga erishadi va shu bilan bir vaqtda o'z rasmini o'rtoqlari chizgan rasm bilan solishtirishga harakat qiladi, buni faqatgina o'z ishini baholash uchungina emas, balki yana o'rtoqlaridan biror narsaga o'rganish uchun bajaradi. Ko'pincha o'rganib olish taqlid qilishga aylanadi, lekin buning hech yomon tomoni yo'q, agarda bu o'quv materialini yaxshi o'zlashtirishga va ijodiy faoliyatini faollashtiradigan bo'lsa. Raqobatchilik (musobaqa) ijodiy qobiliyati rivojlanishiga foydali va samarali ta'sir ko'rsatadi. Buni eski badiiy akademiya rahbari ta'kidlab o'tganlar va muvaffaqiyat bilan tatbiq etganlar, badiiy Akademiya o'quvchilari bilan tarbiya ishlari bunday shakli ikki maqsadni ko'zlagan: rasm chizishga o'qitish yagona talab va tamoyillarini tasdiqlash va har bir o'quvchining ijodiy faoliyatini faollashtirish, ijodiy qobiliyatini rivojlantirish. Akademik rasm chizishda ijodiy faolligi ko'rinishi darajasini o'quv vazifalarini bajarishi natijalari bo'yicha, rasm chizuvchining bilim va ko'nikmalarini hisobga olib, uning idrok



etishi yo'nalganligini, tasvirga oddiy mazmundorlik kirita olish qobiliyatini hisobga olib aniqlash mumkin. Masalan, oddiy geometrik jismlarni chizishda, bir rasm chizuvchi faqatgina tasvirni qurilishi to'g'riligini kuzatib boradi, natijada rasm chizmaga o'xshash xususiyatga ega bo'lib chiqadi. O'quv masalalarini hal etishga ijodiy yondoshish darajasini baholar ekan, pedagog rasm chizuvchining kuchli yoki kuchsiz ijodiy faolligini sabablarini aniqlash kerak bo'ladi. Sabablari turlicha bo'lishi mumkin: bittasi bo'sh amaliy tayyorgarlikka ega va unga qo'shimcha mashqlar zarur bo'ladi, ikkinchisiga ishonchsizlik halal beradi- bu yerda rasm chizuvchining kayfiyatini ko'tarish, siqilishni yo'qotish kerak.uchinchisining proeksion qabul qilishi hissi ham yaxshi rivojlanmagan, u shakl qurilishi to'g'risida mantiqiy to'g'ri fikrlaydi, lekin uni tushunib tasvirga tushirishini egallay olmaydi. Bu yerda birinchidan shakllarni to'g'ri va proeksion qabul qilinishi farqini chuqur tushuntirish kerak, ikkinchidan esa, predmet shaklini proeksion tasviri xususiyatlarini va qonuniyatlarini rasmda ko'rsatib berish kerak. Ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish va faollashtirishda o'quv masalasini bajarish jarayonida har birida o'zini intizomli bo'lish va uyushqoqligini tarbiyalashga ya'ni irodasini, pedagog alohida e'tibor berishi kerak. Rasm chizish mashg'ulotlarida bu masalani hal etish pedagog uchun unchalik qiyinchilik tug'dirmaydi. «Badiiy ijod jarayonida intizomni iroda roli haqida» gapirib B.M.Teplov u ijodiy shaxs shakllanishida katta ahamiyatga ega ekanligini uqtirgan.

Iroda talaba ish bajarishning hamma bosqichlarida ham kerak bo'ladi: maqsadni anglab yetish, qaror qabul qilish, rasm chizish usullarini va materiallarini tanlashadi. Kuzatishlari shuni ko'rsatadiki, ko'pchilik talabalarda irodasi kuchi ishning oxirgi bosqichida ancha pasayib qoladi. Lekin uni pedagog ma'qullash, rag'batlantirish, kerak bo'lganida yordam berib qo'llab turishi mumkin. Iroda ongli faollik, maqsadga intilish, ijodiy qobiliyati takomillashishini bir tekisligini boshqaradi.

Ongning maqsadga muvofiq, badiiy-ijodiy faoliyatga boshqaruvsiz ta'sir ko'rsatishi-bu jarayonda ma'lum qiyinchiliklarni bosib o'tishga to'g'ri keladi. Rasm chizuvchining badiiy-ijodiy qobiliyatini ham rivojlantirish mumkin emas.

O'quvchilarda ijodiy qobiliyati rivojlanishida katta ahamiyatga ega bo'lgan iroda, tirishqoqlik, maqsadga intilish ishlab chiqish usullari turlicha bo'lishi mumkin va ularni ilg'ab olishga pedagog har bir o'quvchi bilan alohida muntazam munosabatlar davomidagina erishishi mumkin.

### Nazorat savollari

1. Tasviriy san'at o'qitish metodikasiga o'tgan asrning 70-90 yillarida ulkan hissa qo'shgan rus olimlari kimlar
2. Yoshlarning badiiy ijod psixologiyasi bilan shug'ullangan olim?





3. Badiiy asar qaysi amaliy mashqdan boshlanadi?
4. O'quvchilarning badiiy asarining muvaffaqiyatlari nimalarga bog'lik
5. O'quvchilarda ijodiy qobiliyatning rivojlanishida nima asosiy o'rin egallaydi?
6. Talabalarning tasvirlash mahoratlari, hamda naturani his qilishlarida qanday usul mos keladi?
7. Insonning qaddi-qomatini to'la tasvirlashda qanday masofadan mashq bajarish to'g'ri bo'ladi?

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdirasilov S., Tolipov N. Rangtasvir. -T.: Bilim, UMKXTM. 2005.
2. Abduraxmonov G'.M. Kompozitsiya asoslari – T.: “TDPU”, 2008.
3. Baymetov B. Haykaltaroshlik va plastik anatomiya. – T.: “Iqtisod-moliya” 2007.
4. Baymetov B., Tolipov N., Abdirasilov S. Tasviriy san'at. Cho'lpon, -T.: 2006.
5. Baymetov B, S. Tolipov M, Azimov S. Plastik anatomiya. «Ilm ziyo», - T.: 2012 (4- qayta nashri).
6. S.L.Vitman. «Pedagogika v voprosax i otvetax», 2006g.
7. V.S.Kukushina. «Pedagogicheskie texnologii». Moskva: I.K.S. «MarT» Rostov na –Donu, 2004 g.
8. Boltabayevich, B. B. & Pardaboy, K. (2020). Scientific and theoretical aspects of the formation of compositional abilities of students in painting classes. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 8 (3), 93-96.
9. Botir Boltabaevich Baymetov, Khusan Kholmuratovich Muratov. [Self Sketches as a Tool in the Professional Training of a Future Artist-Teacher](#). Solid State Technology. 2020/2/29. [Vol. 63 № 2 \(2020\)](#). 224-231.
10. Boltabayevich, B. B., & Shodieva, B. O. (2020). Individual Approach To The Formation Of Artistic And Creative Talents Of Students In Art Schools. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 2(08), Website: [www.usajournalshub.com/index.php/tajssei](http://www.usajournalshub.com/index.php/tajssei) 637-642.

### **3-mavzu. Ilg'or ta'lim texnologiyalari va vositalariga asoslangan ta'lim jarayonini ishlab chiqish. Tasviriy san'at fanlarining nazariy asoslari va qonuniyatlari**

#### **Reja:**

1. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahoratning ilmiy asoslari.
2. Qalamtasvir tasviriy san'atning asosi sifatida.
3. Tasvirlashning asosiy qonun qoidalari.
4. Perspektiva realistik tasvirlashning asosi sifatida.

**Tayanch iboralar:** *Pedagogik texnologiya, konseptuallik, samaradorlik, kompozitsiya qonuni, perspektiva qonuni, konstruksiya, ton, chiziqli qurish, rang*



*munosabatlari, portret, janr, uslub, klassika, renessans, antik davr, haykaltaroshlik, kartina qalamtasvir, format, oliy ta'lim, rassomlik san'ati.*

## **1. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahoratning ilmiy asoslari.**

Pedagogik texnologiyaning mohiyati va mazmunini aniqlashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar, monografiya va qo'llanmalar (V.P.Bespalko, V.V.Guzeev, M.V.Klarin, V.M.Monaxov, V.Yu.Pityukov, G.K.Selevko va boshqalar), maqolalar (T.S.nazarova, I.Ya.Dyachenko va boshqalar) tahlili shundan dalolat beradiki, pedagogik texnologiya tuzilmasida quyidagi komponentlar alohida ajralib turadi:

1. O'qitishning tashkiliy qismi:
  - o'quv-moddiy baza;
  - poligrafik va texnikaviy baza;
  - padagog va talaba (o'qituvchi).
2. O'qitishning mazmunli qismi:
  - makro va mikro maqsadlar;
  - o'quv material mazmuni.
3. Jarayonli qismi – texnologik jarayon:
  - o'quv jarayoni;
  - talabning biluv faoliyati metodlari va shakllari;
  - materialni o'zlashtirish jarayonini boshqarish bo'yicha o'qituvchi faoliyati.
4. O'qitishning tashxis qismi – o'lchash va baholash:
  - bilim va ko'nikmalarni o'lchash etaloni;
  - o'lchash instrumenti (shkala);
  - baholash.
5. Korreksiya qismi – tuzatish:
  - teskari aloqa;
  - yakuniy natijani ta'minlash;
  - qo'shimcha didaktik jarayonni tashkil etish.

Bir qarashda bu qismlar har qanday o'quv jarayoni uchun umumiylik kasb etadigandek tuyuladi, biroq pedagogik texnologiya quyidagi metodologik talablarga – texnologiyalanuvchanlik mezonlariga javob beradi.

1. **Konseptuallik** – loyihalananayotgan pedagogik texnologiya muayyan ilmiy konsepsiya – falsafiy, psixologik, didaktik va boshqa tegishli bo'lishi hamda ta'lim maqsadiga erishish ijtimoiy-pedagogik jihatdan asoslanishi lozim.

2. **Tizimlilik.** Pedagogik texnologiya pedagogik tizimning barcha jihatlarini – mantiqiy jarayonni, unsurlarining o'zaro aloqasini, yaxlitligini o'zida ask ettirishi lozim.

3. **Boshqaruvchanlik** – o'qitish jarayoni maqsadini tashxislash, rejalashtirish, loyihalash imkoniyatlarini, natijalarini korreksiyalash uchun bosqichma-bosqich tashxislash, vosita va usullar o'rganish muntazam almashtirishni taqozo etadi.

4. **Samaradorlik.** Zamonaviy pedagogik texnologiya raqobat sharoitida mavjud bo'ladi va natijalar bo'yicha samarali, sarf (kuch, mehnat, vaqt – N.S.)



bo'yicha eng maqbul bo'lishi, o'qitishning ma'lum andozasiga erishishni kafolatlash lozim.

5. **Takroriylik** loyihalangan pedagogik texnologiyalarning qo'llash doirasini boshqa ta'limiy muassasalarga, boshqa sub'ektlarga ko'chirish va kengaytirishni taqazo etadi.

Bu mezonlarga tayangan holda pedagogik texnologiyaga quyidagicha ta'rif beramiz: «Pedagogik texnologiya u o'qituvchining o'qitish vositalari yordamida talabalarga muayyan sharoitda va ma'lum ketma-ketlikda ta'sir etishi va aks ta'sir mahsuli sifatida ulardan oldindan belgilangan shaxs sifatlarini tezkor shakllantirishni kafolatlaydigan jarayondir».

Biz bu yerda «muayyan sharoit» deganda talabalarga qo'yilgan tashqi shart-sharoitlar yig'indisi – o'qitish shakllarini, «ma'lum ketma-ketlik» deganda esa o'qituvchi tomonidan qo'llanilayotgan faol o'qitish metodlarini nazarda tutamiz. Aslida bu ta'rif asosida ishlab chiqarishga xos bo'lgan texnologik jarayon yotadi. Uning maqsadi – berilgan (loyihalangan) namunada mahsulot olishdir. Pedagogik texnologiya ham oldindan belgilangan o'quv maqsadlariga erishishi uchun o'qitish jarayonining barcha bog'liq unsurlarini tashkiliy jihatdan tartibga keltirish, uning bosqichlarini qurish, joriy etish sharoitlarini aniqlash, imkoniyatlarini chamalash qaratilgan.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda pedagogik texnologiyaning ikki jihatini alohida qayd etish lozim:

- u oldindan loyihalalanadi;
- yakuniy natijani kafolatlaydi.

Bu prinsiplarni izohlashga harakat qilamiz: Ma'lumki, ishlab chiqarishda har qanday mahsulot muayyan texnologik xarita yordamida tayyorlanadi. Texnologik xatira – bu foydalanilayotgan vositalar ko'rsatilgan holda harakatlar ketma-ketligining qadami, bosqichlari ifodalangan jarayon yozilmasidir. Bu jarayon ko'p hollarda grafik shaklda beriladi, texnologik xaritada texnologik chizmalar – texnologik jarayonning shartini ifodalaydigan mantiqiy bog'lanishlar mavjud bo'ladi.

Demak, har bir fan mavzui uchun texnologik xarita tayyorlanishi, unda o'qituvchi, talaba va o'quv materiallari, vositalarining o'zaro harakatlari qadam-baqadam aks etishi lozim. Bunda sub'ektning xatti-xarakati ma'lum o'quv vaqti bilan ilgarilanadi. Boshqacha aytganda, o'qituvchi pedagogik jarayonga kirishishi uchun o'zida didaktik masalalarni aniq tasavvurlashi va berilgan vaqt doirasida talabaning o'quv-bilish faoliyatini tashkil etishi va boshqarishni texnologik xarita – loyiha asosida amalga oshiradi.

Shubhasiz, loyihalangan pedagogik texnologiya amaliyotga joriy etilsa, yakuniy natijani kafolatlashi lozim.

Yakuniy natija – bu belgilangan maqsadga erishish demakdir. Ma'lumki, bugun talaba o'quv materialining 55 %ni o'zlashtirsa, yakuniy natija taminlanadi, ya'ni o'quv materialini o'zlashtirish koeffitsenti -  $K_{\alpha} \geq 0,55$ . qabul qilingan<sup>1</sup>. Bu koeffitsent miqdori  $0 \leq K_{\alpha} = a - r \leq 1$  chegarada bo'ladi.

Guruh ichida ijodiy faoliyat ko'rsatadigan va o'quv materiallarning 100% o'zlashtiradigan talabalar ham borligini unutmash lozim. Shu boisdan, ta'lim



tizimimizda qo'llanilayotgan har qanday o'qitish texnologiyalari talabalarda o'quv materialining 0,55%  $K_{\alpha} \leq 1$  chegarada ta'minlashi shart ekan va shundagina yakuniy natijaning kafolatlanganligi haqida bir fikrga kelish mumkin.

Pedagogik texnologiya o'zining ta'lim amaliyotida qo'llanishiga ko'ra uch darajaga ega:

1. Umumpedagogik texnologiyalar-pedagogik tizim loyihasi sifatida mavjud bo'ladi va ko'proq muayyan mintaqa, ta'lim muassasasi, ma'lum o'qitish bosqichidagi yaxlit ta'lim jarayonini tavsiflaydi. Bu jarayon «o'qituvchi – moddiy muhit - talaba» funksional tizim qonuniyatlariga tegishli bilimlar asosida quriladi.

2. Xususiy predmetli pedagogik texnologiyalar «xususiy metodika» ma'nosida qo'llaniladi, ya'ni ta'lim va tarbiyaning aniq mazmunini joriy etish metodlari va vositalari yig'indisi sifatida bir predmet, sinf (auditoriya), o'qituvchi doirasida qo'llaniladi. Ular ko'p hollarda «o'qitish texnologiyalari» deb yuritiladi va ma'lum predmet, mavzu va savollar doirasidagi muayyan o'quv materialini o'zlashtirish yo'lini aniq texnologiya bilan ko'rsatib beradi.

3. Lokal (modulli) texnologiya o'zida o'quv jarayonining alohida qismlari, o'quv elementlariga doir masalalarni aks ettiradi. Masalan, biror mavzuni o'rganish uchun o'nta o'quv elementining ro'yxati tashxislanuvchan maqsad sifatida keltiriladi. O'qituvchchi shulardan ayrimlarini pedagogik texnologiyaga murojat qilgan holda talabalarning o'zlashtirishiga sharoit to'g'iradi, qolgan o'quv unsurlari odatdagi metodika bilan o'zlashtiriladi. Demak, bu yerda o'qituvchi mahalliy – lokal texnologiya bilan ish ko'rganligini payqash qiyin emas.

Bugun oliy ta'lim tizimida o'quv-tarbiya jarayonining ko'plab variantlari mavjud: muammoli ta'lim, algoritimli ta'lim, moduli ta'lim, tabaqalashtirilgan ta'lim, kompyuterli ta'lim, distansion ta'lim va hokazo. Biroq, bu texnologiyalar o'z maqsadi, mazmuni, bosqichlari, qo'llanilayotgan metod va shakllari bilan umumiy yaqinlik, o'xshashlik kasb etadi. Shu boisdan keyingi vaqtlarda pedagogik texnologiyalarni tasniflashga oid urinishlarni kuzatish mumkin (G.K.Seevko, M.V.Klarin va boshqalar). Olimlar tasniflash asosiga turlicha ilmiy nazariyalarni qabul qilishyapti. Shulardan biri mavjud ta'lim tizimini moderinizatsiyalash yo'nalishlari bo'yicha tasniflash hisoblanadi. (G.K.Seevko):

1. Pedagogik munosabatlarni xalqchillashtirish va demokratlashtirish asosida (E.N.Ilina, Sh.A.Amonoshvili): pedagogik hamkorlik, haqchil-shaxsiy texnologiya va boshqalar.

2. O'quvchi (talaba)lar faoliyatini jadallashtirish va demokratiyalashtirish asosida o'yin texnologiyasi, muammoli ta'lim, V.F.Shatalov texnologiyasi va boshqalar.

3. O'quv jarayonini samarli tashkil etish va boshqarish asosida (S.N.Lesnekov, V.P. Bepalko, V.D.Shadrikov, V.K.Dyachenko): dasturli ta'lim, tabaqali ta'lim, kompyuterli ta'lim va boshqalar.

Bu texnologiyalar birmuncha ommabop hisoblanib, bugun amaliyotga kirib ulgurganligi bilan ko'pchilikka tanish bo'lishi mumkin. Yuqorida ta'kidlangandek, ular zamirida an'anaviy o'qitish tizimi yotadi va uning ochilmagan imkoniyatlaridan foydalanish har bir pedagog uchun mas'uliyatli vazifadir.



Ta'limiy jarayonda talabaning tutgan mavqei bo'yicha pedagogik texnologiyalarni farqlash imkoniyati mavjud. Shu boisdan talaba mavqei va o'rnini aniq belgilash muammosi ilmiy asoslanish lozim: 80 daqiqalik o'quv vaqti davomida talaba «ob'ekt»mi va «sub'ekt»?

Dastlab falsafiy lug'atga murojat qilgan holda sub'ekt va ob'ekt tushunchalarining mohiyati belgilab olamiz.

**Sub'ekt** (yunoncha-subjectum) - 1) tashqi borliq (olam)ni bilishga intiladigan va o'z amaliy faoliyati bilan unga ta'sir ko'rsatadigan insondir;

2) qandaydir xususiyatlarni tashuvchi inson, shaxsdir.

**Ob'ekt** (yunoncha-objectum) – 1) bizdan tashqarida mavjud va bizning ongimizga bog'liq bo'lmagan tashqi olam bo'lib, bilishning, shunnigdek, sub'ektning amaliy ta'sir predmeti hisoblanadi;

2) qaysidir faoliyat yo'naltirilgan predmet, hodisa.

Borliqni anglash, bilish sub'ekt iva ob'ektlarini o'zaro harakat mahsuli hisoblanadi. Bilish sub'ekti – bu ongli va bilimlar tizimi bilan qurollangan, faoliyat usullarini egallagan insondir. Sub'ektga qarshi turadiganlarning barcha – ob'ekt. Shu bilan birga «sub'ekt» va «ob'ekt» o'rtasida nisbiylik momenti mavjuddir: Agar narsa bir munosabatda ob'ekt sifatida namoyon bo'lsa, boshqa munosabatda sub'ekt bo'lishi mumkin. Bu holat inson, uning faoliyatiga ham tegishlidir. Shu o'rinda taniqli nemis faylasufi L.Feyerbaxning quyidagi nazariyasini keltirish joiz: «O'zim uchun «men» - sub'ektman, boshqalar uchun esa – ob'ektman, xullas «men» ham ob'ekt, ham sub'ekt hisoblanaman».

Demak, inson turli holatlarda turlicha – birida sub'ekt, boshqa xolatda ob'ekt sifatida ham namoyon bo'lishi, faoliyat ko'rsatishi mumkin ekan. Xo'sh, ta'limiy jarayonda talaba qachon sub'ekt va qachon ob'ekt bo'la oladi? Qanday qilib nisbiylikning momenti aniqlanadi?

Ma'lmumki, har qanday ta'limiy texnologiyalar asosini belgilangan vaqt doirasida amalga oshiriladigan didaktik jarayon tashkil etadi. Jarayon bu pedagogik hodisa va pedagogik faoliyat akti sifatida ta'lim tizimi holatining almashishidir. Uni pedagogika fanida qabul qilingan quyidagi ramziy tenglama yordamida ifodalash mumkin:

$$Dj=M+O'f+B,$$

Bunda; Dj-didaktik jarayon, M-talabaning o'qishga bo'lgan motivatsiyasi; O'f-talabaning o'quv faoliyati; B-o'quv faoliyaning boshqarilishi.

Talabaning fan (mavzuga bo'lgan qiziqishini har doim o'qituvchi ta'minlaydi. Buning uchun zaruriy o'qitish metodlaridan (muammoli, tarixiy materialdan foydalanish, audio va vizualli ta'lim va b.) samarali foydalanadi. Demak, bu bosqichda o'qituvchi-sub'ekt, talaba shaxsi – ob'ekt ekan.

Didaktik jarayonning ikkinchi bosqichi - o'quv faoliyat mutlaq talabaga tegishli faoliyatdir. Bu yerda talaba – sub'ekt mavqeini egallaydi, ob'ekt esa – o'quv materiallari hisoblanadi. O'qituvchi bu bosqichda nazoratchi muvofiqlashtiruvchi funksiyani bajaradi va shubhasiz, sub'ekt maqomining egallaydi. Aynan shu bosqichda «sub'ekt- sub'ekt» tizimi ishga tushdi.



Uchinchi bosqich o'quv – bilish faoliyatini boshqarishda ikki holatni kuzatish mumkin: Bu faoliyatning o'qituvchi tomonidan boshqarilishi yoki talabani o'zini – o'zi boshqarishi. Birinchi holatda o'qituvchi sub'ekt, talaba – ob'ekt mavqeini egallashini farqlash qiyin emas. Ikkinchi holatda talabaga berilgan topshiriq etaloni yordamida ular o'z-o'zini boshqarish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Demak, bu yerda talabani sub'ektga aylanishi kuzatiladi. Shu asosda didaktik jarayon tuzilmasini tahlil asosida talaba shaxsining sub'ekt yoki ob'ekt mavqelarini egallashi uchun nisbiylik momentini aniqlash mumkin.

Shunday qilib, pedagogik texnologiyani muhim jihatlaridan biri, ta'limiy jarayonda talaba tutgan mavqe, o'qituvchining talabaga munosabati xisoblanadi. Shu nuqtai nazardan pedagogik texnologiyalarni quyidagi turlarga ajratish mumkin:

1. Avtoritar texnologiyada pedagog o'quv – tarbiya jarayonining yagona sub'ekti hisoblanib, talaba bor-yo'g'i «ob'ekt», bo'ysunuvchi shaxs. Bu texnologiya talaba tashabbuskorligini va mustaqilligini chegaralab qo'yishi jarayonning qat'iyatligi bilan ajralib turadi.

2. Didaktotsentrik texnologiyada ham «sub'ekt» nisbati o'qituvchi va talaba faoliyatida ustunlikka ega bo'lish bilan birga didaktik vositalar asosida bilim va ko'nikmalarni shakllantirishga e'tibor qaratiladi. Bu yerda talaba shaxsga, uning namoyon bo'lishiga mutlaqo e'tibor qaratilmaydi, ta'lim tarbiyadan ustuvor hisoblanadi. Didaktotsentrik texnologiyalar texnokratik tavsifga ega, u vositaning maqsadi ustidan, texnikaning inson qadriyatlarini ustidan ustunligi qoidasiga bo'ysunadi.

3. Shaxsga yo'naltirilgan texnologiya aynan shaxs manfaatini qanoatlantiradi, mamlakatimizda belgilangan ta'lim-tarbiya tizimining bosh maqsadi – erkin Shaxslarni shakllantirishga keng imkoniyatlar yaratadi, milliy ta'lim modeli tuzilmasiga mos keladi. Uning asosida talaba shaxsi nafaqat sub'ekt, balki ustuvorli sub'ektga aylanadi, rivojlanish uchun dahlsiz, ziddiyatsiz sharoitlar ta'minlanadi. O'qituvchi va talabani teng hamkorligi butun o'qitish davrida kuzatiladi: Mavzu maqsadini ishlab chiqish, mazmunini saralash, jarayonni boshqarish, baholash ijodiy harakatga aylanadi.

Bu texnologiya tuzilmasi nimalardan iborat? O'zida aniq o'rnatilgan didaktik masalalarni va ularni yechish texnologiyalarini mujassamlashtirgan pedagogik tizim shaxsga yo'naltirilgan ta'lim hisoblanadi. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim barcha turdagi ta'limlarni yo'naltirish bo'yicha integratsiyalashni taqozo etadi. Integral pedagogik texnologiyalar o'z navbatida talabalarning mustaqil fikrlashini ta'minlashga kafolat beradi.

### **2. Qalamtasvir tasviriy san'atning asosi sifatida.**

Qalamtasvir – barcha tasviriy san'at turlarining asosi hisoblanadi. Rassom tasviriy san'at turining qaysi birida ijod qilishidan qat'iy nazar, qalamtasvirga asoslanadi. U o'zining kuzatishlari, katta asar kompozitsiyalari ustidagi izlanishlarini avval qalamda dastlabki chizgilar bilan ifodalaydi. San'at asarlarini yaratishda esa, ushbu bajarilgan chizgilar rassomga yordamchi manba bo'lib xizmat qiladi.



Rassom u yoki bu kartinasining yaratishni qalamdan boshlaydi. Shundan keyingina ushbu san'at asari ranglar jilosi orqali tomoshabinga estetik huzur baxsh etadi. Boshqacha qilib aytganda, qalamtasvirsiz hech bir rassom o'z asarini yetuk holga keltira olmaydi.

Qalamtasvir boshqa san'at turlari orasida mustaqil ravishda tugallangan dastgohli san'at asari ham bo'lishi mumkin. tush, sangina, pastel, sous, qalam bilan bajarilgan ko'plab kartinalar jahonning turli san'at muzeyi va ko'rgazmalaridan joy olgan.

Qalamtasvir mashg'ulotlari ko'rib-kuzatib to'g'ri tasvirlash, borliqni idrok etish, qo'l, ong va sezgi organlarini shakllantirishda nafaqat bo'lajak rassomga, balki turli kasb sohasidagi kishilarga zarurdir.

Uyg'onish davrining buyuk rassomi va olimi **Leonardo da Vinching** «**Rangtasvir qonunlari**» nomli asarida jumladan shunday degan edi: «*Yoshlar o'zlarini ilm-fan, tasviriy san'atda sinamoqchi bo'lsalar, avvalo rasm chizishni mukammal bilmoqlari lozimdir*».

Qalamtasvir mashg'ulotlari boshqa mutaxassislik fanlari qatorida bo'lajak o'qituvchi-rassomlarni tayyorlashda asosiy mezon hisoblanadi. Qalamtasvir darslari bakalavriat talablarga I-IV kurslarda nazariy va amaliy mashg'ulotlar orqali olib boriladi. Shuni ta'kidlash kerakki, amaliy mashg'ulotlar qatorida nazariy bilimlar bo'lajak mutaxassislarga ularning keyingi pedagogik, ijodiy va ilmiy faoliyatlarida muhimdir.

Borliqni realistik tasvirlash talabalarga nafaqat amaliy bilimlarni beribgina qolmay, balki ularning umumiy dunyoqarashlarini o'stirishda katta ahamiyatga ega. Realistik tasvirlash san'ati, shuningdek yoshlarda borliqni haqqoniy obrazlarda ifoda etish mahoratlarini rivojlantiradi.

Rasm chizishni o'rganish talabalarga atrofdagi jismlarning hajmini haqqoniy tasvirlash bilan birga, ularning estetik didlarini ham o'stirishda katta ahamiyatga ega.

Rasm chizish asoslarini o'rganish, narsaning o'ziga qarab bosqichma-bosqich tarzda tasvirlash prinsipida qurilgandir. Tabiatga muhabbat va kuzatuvchanlik, buyumlarni to'g'ri tasvirlash kabi fazilatlar har bir tasviriy san'at bilan shug'ullanadigan talabalarga xos bo'lmog'i kerak.

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisining yetuk malakaga ega bo'lishda nafaqat amaliy bilimlarni chuqur o'zlashtirgan bo'lishi, balki tasvirlash san'ati sohasida nazariy tayyorgarligining puxtaligiga ham bog'liq.

Bo'lajak pedagog-rassomlarni buyuk rassom va tasviriy san'at sohasida ko'plab nazariy, amaliy bilimlarni meros qilib qoldirgan shaxslar hayoti va ijodiy faoliyatlari bilan tanishtirish, ularning asarlarini chuqur o'rgatish, hamda ulardan nus'halar olishga jalb etish katta ahamiyatga ega.

Qalamtasvir mashg'ulotlari pedagogika fakultetidagi mutaxassis o'quv fanlarining asosi sifatida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilariga quyidagi asosiy qonunlarni o'rgatishni maqsad qilib qo'yadi:

1. Tasviriy san'atda kompozitsiya asoslari.
2. Shakllarning chiziqli konstruktiv tuzilishi.
3. Buyumlarning o'z-aro nisbatlari.



4. Tasviriy san'atda perspektiva qonunlari.
5. Shakllarda yorug' va soya qonuniyatlari.
6. Tasvirni metodik ketma-ketlikda «analiz» va «sintez» qilib to'g'ri bajarish.

Bu ko'nikma va malakalar talabani oliy o'quv yurtining barcha bosqichlari davomida bilim olish vaqtida o'quv mashqlarini bajarish orqali rivojlanadi va takomillashib boradi. Shuningdek, ushbu bilimlar bo'lajak o'qituvchi-rassomning oliygohni tugatgandan so'ng, pedagogik va ijodiy ish jarayonida ham muhimdir.

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlashda qalamtasvir mashg'ulotlarini amaliy jihatlarini o'rgatish bilan bir qatorda, uning nazariy asoslarini puxta o'qitilishi katta ahamiyatga ega. Shuning uchun qalamtasvir mashg'ulotlari bir qator aniq predmetlar asosida olib borilishi e'tiborga molliq. Ulardan asosiysi perspektiva va plastik anatomiyasidir. Bularsiz talaba eng oddiy vazifani ham to'g'ri bajarishi mushkul. Perspektiva qonuniyatlarini bilmay turib u buyumning fazoviy holatini aniq topa olmaydi yoki odam plastik anatomiyasi borasida aniq bilimlarga ega bo'lmasdan, bu inson qomati va portretini chiza olmaydi. Yorug' va soyalarning qonunini yaxshi tushunib yetmagan talaba, tasvirlanayotgan buyum tusi, hajmi va materiallik xususiyatlarini aniq tasvirlashning uddasidan chiqqa olmaydi.

Buyumlarni tasvirlash ham boshqa aniq fanlar kabi fikrlab, chizilayotgan narsani chuqur tahlil etib, uni so'z orqali emas, turli tasvirlash vositalari bilan, obrazli qilib yaratishini taqozo etadi.

Tasviriy san'at ustasi va rus pedagoglaridan biri P.P.Chistyakov aytganidek "Tasvirlash fikrlash demakdir". U shogirdlariga doimo ta'kidlar edi, "Hech qachon fikrlamay rasm chizmang, har doim oldinigzga maqsad qo'ygan holda gapirib tasvirlang, bu yerdan bu yergacha".

So'z-tasvirlanayotgan buyumni tahlil qilib to'g'ri bajarishda eng jihatlaridan biridir. U chizuvchida fikr yuritib tasvirlash "odati"ni shakllantiradi.

Ma'lumki, tasviriy san'at atrof muhtni keng va atroflicha o'rganish natijasida, aniq fanlar kabi, tabiatni ilmiy jihatdan tahlil etish orqali o'rganiladi. Shuning uchun bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisi tabiatni qanchalik ko'p sevsa va kuzatib o'rgansa, u shunchalik tasvirlash sohasida yuksak natijalarga erishishi mumkin.

Uyg'onish davrining buyuk rassomlari tabiatni ilmiy tahlil qilib, uni asosli o'rganganlar va o'z asarlarida ishonarli tasvirlaganlar. Jumladan, Leonardo da Vinchi, Alberti va Dyurerlar inson tanasi a'zolarining har bir bo'lagini aniq o'lchamlarda o'rganib o'z tasvirlarida amaliy qo'llaganlar.

Inson qomati yoki portretini tasvirlashdan oldin uning tuzilish xususiyatlarini xuddi anatom tadqiqotchidek asosli o'rganganlar va o'zlarining butun jahonga mashhur san'at asarlarini yaratganlar.

O'quv qalamtasvirining ilmiy asoslari deganda talabani u yoki bu o'quv mashq jarayonida tasvirlashning qonun va qoidalarini aniq bajarishni nazarda tutiladi. Masalan: boshlang'ich kurslarda gipsli geometrik shakllarni chizishda, talabadan ushbu buyumlarni chiziqli konstruktiv tuzilishi hamda perspektiva qonun qoidalariga amal qilishni talab qilamiz. Inson qomatini tasvirlashda esa (yuqori





kurslarda) talabalar uning anatomik tuzilishini o'rganishlari shart. Yuqori kurslarga borib, talabalarda har birining o'ziga hos individual tasvirlash texnik xususiyatlari rivojlana boshlaydi.

Ular har bir vazifani individual texnik jihatdan amalga oshirish bilan birga qalamasvirdagi mavjud plastik anatomiya qonunlariga rioya qilishlari lozim (suyak va mushaklarning joylashishi, birlashishi, ularning nisbat va tuzilishlari, yorug', soya va boshqalar).

Uzoq o'tmishdanoq qadimgi yunon musavvirlari inson qomatini tasvirlash natijasida, hamda uni ilmiy tahlil etib shunday xulosaga kelganlarki-inson qomati tabiatning eng murakkab, oliy va go'zal mahsulidir.

Bir qarashda biri-biri bilan qarama – qarshi bo'lib tuyulgan tasviriy san'at va ilm-fan amaliyotda biri ikkinchisini to'ldirib shakllantiradi. Ong va sezgi, idrok va hissiyot doimo yaqin aloqadadir.

Demak, talaba o'quv vazifasini to'g'ri bajarishi uchun birinchi navbatta tasviriy san'atda qo'llanilishi lozim bo'lgan qonun va qoidalarga amal qilishi kerak. Ular orqali u o'quv akademik vazifalarni bajarish jarayonida tasvirdagi birinchi darajali buyumlarni bo'rttirib ko'rsatib, shaklning xarakterli xususiyatlarini aniq tasvirlashi va ikkinchi darajali buyumlarni esa, umumiy va oddiy ko'zga uncha tashlanmaydigan qilib bajarishi lozim.

Tasviriy san'at sohasidagi, xususan o'quv qalamtasvirida qo'llaniladigan qonun va qoidalar tabiat qonunlaridan kelib chiqadi. Ushbu qonunlar tasviriy san'atga ta'sir etib uning rivojlanishida katta ahamiyatga ega. Tasvirlash qonunlari talabada qalamtasvir ishlash bilimlarini oshiradi va malakalarni shakllantiradi, ijodiy qobiliyatlarini o'stiradi, hamda uni bo'lajak pedagogik faoliyatga puxta tayyorlaydi.

Buyumlarni o'ziga qarab naturadan tasvirlash mashqlari tasviriy san'atning asosi hisoblanib, u talabadan yuqorida bayon etilgan qonun va qoidalar asosida ish yuritishini talab etadi. Shu bois, talaba o'qishning dastlabki bosqichdanoq rasm chizishning asosiy qonunlari bilan to'la qurollangan, hamda o'tmishda yashab ijod etgan buyuk rassomlarning ijodini va tasvir ishlash texnikalarni chuqur o'rganishi lozim.

Tasviriy san'at, borliqdagi voqea va hodisalar hamda buyumlarning nafaqat tashqi shaklini bajarishni, balki ushbu narsa va buyumlarni ichki dunyosini, tabiatdagi hodisalarni chuqur tahlil etishni taqozo etadi. Bu borada buyuk fransuz me'mori Le Korbyuze shunday degan edi: "Tasvirlash jarayonida, buyumlarni qanday dunyoga kelishini, ularning qanday rivojlanishini, o'sishini, gullab-yashnashini ko'rasan. Bu borliqni kuzatish orqali, avvalo "ichki" dunyosini, so'ngra "tashqarisini" o'rganish natijasida amalga oshiriladi.... Buyumni haqiqiy go'zalligini avvalo tashqarisiga e'tibor berib, so'ngra chizish davomida uni sinchiklab kuzatish, idrok etish orqali, uning yuragiga yo'l topishgacha brishimiz mumkin. Tasvirlash-bu kuzatish, yaratish, ixtiro qilish demakdir".

Tasvirlanayotgan buyum shakli qanchalik murakkab bo'lsa, chizuvchi uni shunchalik ko'p o'rganishi va tahlil etishi kerak. Qalamtasvir ishlashda ilmiy yondoshish, ayniqsa buyumni chiziqli konstruktiv tuzilishi va perspektiv holatini aniqlashda katta ahamiyat kasb etadi.



Qalamtasvirda yetuk malakaga erishish ko'p jihatdan narsani o'ziga qarab tasvirlashga bog'liq. Narsani o'ziga qarab tasvirlash mahorat maktabini o'tmasdan va o'quv mashg'ulot jarayonini bilmay turib, badiiy rivojlanish pillapoyalaridan yuqoriga chiqish mumkin emas. Bu borada bir necha yetuk shogirdlarni mustaqil rassom bo'lishda katta hissa qo'shgan rus rassomi va murabbiyi P.P.Chistyakov shunday degan edi: "Avvalo chizilayotgan buyumni sinchiklab kuzatish zarur, so'ngra uni rassom o'ziga bo'ysundirishi kerak". Rassom qanday yetuklikka erishmasin, u narsani o'ziga qarab tasvirlashdan voz kechmasligi lozim. Boshqacha qilib aytganda rassomning bilimi, hayoli uni o'rab turgan borliq tabiat bilan har doim bog'liq bo'lishi lozim. Ijodkor-rassom hayolan biron-bir san'at asari ustida ijod qilishidan oldin, eng avvalo kuzatib, eslab qolgan borliq obrazlarini hayolan tiklab, tahlil qiladi, so'ngra ularni juda ko'p marta amaliy mashqlar bajarish orqali olgan bilim va tajribalari asosida bajaradi.

### 3. Tasvirlashning asosiy qonun qoidalari.

O'quv qalamtasvirini ilmiy jihatdan tahlil etish natijasida biz undagi bir necha mustaqil asosiy fanlar bilan bevosita chambarchas bog'liqligini kuzatishimiz mumkin.

I. **Perspektiva**-buyumning fazoviy holatini tekislikda to'g'ri tasvirlash metodlarini ochib beruvchi fan.

II. **Plastik anatomiya**-inson va hayvonlar tanasining tuzilishi haqidagi fan.

III. **Fizika**-buyumlarda yorug' va soyalarning taqsimlanishi borasidagi fan.

Ushbu fanlarni har bir talaba avvalo umuta'lim maktabida, so'ngra badiiy o'quv yurtida chuqur o'zlashtirgan bo'lishi, hamda ularni tasviriy faoliyatda keng qullay olishi zarur.

Yuqorida bayon etilganidek, Uyg'onish davri rassomlari o'zlarining mashhur san'at asarlarida sanab o'tilgan fanlarni keng qo'llaganlar. Buyumlarni haqqoniy tasvirlash negizida ushbu aniq fanlarning ahamiyati nihoyatda katta. Biron bir mashhur san'at asari, yo'qki, unda perspektiva qonuniyatlariga amal qilinmagan bo'lsin. O'ziga qarab chizilgan tasvirni rassom qanday holatda (ro'paradan, yonidan, o'tirib, yoki tik turib) bajarganini aniq aytib berishi mumkin.

O'tmishda yashab ijod etgan buyuk, hamda hozirgi zamonaviy rassomlar perspektivani birinchi o'ringa qo'yadilar. Bu esa bizdan fazoviy tasavvurimiz perspektiva qonuniga to'la amal qilishini talab etadi.

Buyumning fazoviy holatini to'g'ri tasvirlash uchun, uning qonunlarini to'g'ri bajarishga amal qilishimiz shart. Mashhur tasviriy san'at ustalarining badiiy ijodlari shuni ko'rsatadiki, tabiatda borliqni haqqoniy tasvirlash uchun, tasviriy san'atdagi mavjud qonun qoidalarga rioya qilish muhimdir. Leonardo da Vinchi o'zining "Rangtasvir qonuniyatlari" nomli asarida jumladan shunday degan edi: "O'quvchi avvalam bor perspektiva qonunlarini puxta bilishi lozim; so'ngra narsaning o'lchamlarini o'zlashtirishi kerak..."

Buyumlarni konstruktiv tuzilishlarini hamda ularning turli vaziyatlardagi perspektiv qisqarishlarini to'g'ri tasvirlash talabalardan tinmay amaliy mashqlar bajarishni talab etadi. Mashhur rassom murabbiylar o'zlarining ijodiy faoliyatlari bilan bir qatorda ko'plab maxsus metodik yo'llanmalar ishlab chiqqanlar. Jumladan, XIX asrining birinchi yarmida ijod etgan rus pedagoglaridan



A.P.Sapojnikov buyumlarni tasvirlashda "sinch"(karkas) usulini joriy etdi. Gipsdan ishlangan geometrik shakllarni tasvirlashda u ma'lum shaklning yoniga shu shaklning simdan ishlangan nus'hasini qo'yib yosh rassomlarga chiziqli konstruktiv tuzilish, perspektiva qonun-qoidalarini osonlikcha o'rganishlarida yordam bergan. Sinch usuli yordamida tasvirlash turli geometrik hamda boshqa shakllarni (kub, silindr, konus, prizma va boshq.) buyum tekisligidagi tayanch nuqtalarini, perspektiva asoslarini hamda fazoviy holatlarini aniqlashda katta yordam beradi.

Ma'lumki, boshlang'ich kurs dasturlarida gipsdan ishlangan turli geometrik shakllarni o'ziga qarab tasvirlash vazifalari ko'rsatilgan. Bunda talabalar kub, shar, prizma, konus, silindr, piramida, gipsli ko'za, turli naqsh va me'morlik bo'laklari va hokazolarni o'ziga qarab tasvirleydilar. Ushbu mashg'ulotlarining asosiy maqsadi, talabalarda kompozitsiya, chiziqli konstruktiv tuzilish, nisbatlar, perspektiva qonunlari kabi ko'pgina malakalarni o'rgatish hamda shakllantirishdan iboratdir. Umumta'lim maktablaridan talabalikka qabul qilingan yoshlarning aksariyat ushbu vazifalarni osongina ishlash mumkin deb o'ylaydilar. O'qituvchi tomonidan u yoki bu vazifani bajarishda unga qo'yiladigan talablarni tushungandek bo'lsalarda, yetarli malaka va ko'nikmalarning, hamda ushbu vazifani ishlashda asos hisoblangan qonun qoidalarini bilmasliklari oqibatida ancha qiyinchiliklarga uchraydilar. Masalan, ufq chizig'idan pastda joylashgan kub shaklini tasvirlash vazifasini olaylik. Bu yerda talaba kubni tasvirlashda perspektiva qonuni va uni chizishda chiziqli konstruktiv qurilish asoslarida yo'l qo'ygan xatosini ko'rishimiz mumkin rasm. Xuddi shu vazifani boshqa nuqtadan to'g'ri bajarilgan namunasi rasmda berilgan. Bunda talaba tasvirlashning barcha qonunlariga asoslangan va kubning perspektiv qisqarishini va uning konstruktiv tuzilishini sinch usulida to'g'ri bajargan.

Geometrik shakllarning rasmini chizishda ularning buyum tekisligida joylashshgan asoslarini chiziqli perspektiva qonuniga asosan to'g'ri bajarish muhimdir. Buning uchun chizuvchi buyumlarning perspektiv qisqarish qonunlari bilan bir qatorda ufq chizig'ini to'g'ri aniqlashi, hamda uning yordamida turli shakllarning buyum tekisligida o'zaro joylashgan holatlarini haqqoniy tasvirlashi mumkin.

Yana bir misol, ma'lumki har bir buyum, u qanday shaklga ega bo'lishidan qat'iy nazar, perspektiva qonunlariga asosan qisqarishga ega. Lekin, ko'p hollarda talabalar bu nazariyaga e'tibor bermaydilar. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, aylana shaklli buyumlarni tasvirlashda uning fazoviy holatini to'g'ri topa olmaydilar va uning perspektivaga asosan qisqarishida qo'pol xatoga yo'l qo'yadilar.

O'quvchining ufq chizig'idan pastda joylashgan oddiy ko'zani tasvirlashda yo'l qo'ygan hato, kamchiliklari va shu vazifani yuqorida bayon etilgan qonunlar asosida to'g'ri bajarilgan namunasi ko'rsatilgan. Ushbu misoldan ko'rinib turibdiki, talaba birinchi navbatda o'z tasvirida ko'zaning aylana sirtlarining asosi, ekvatori, bo'yini, og'zi ufq chizig'iga asosan perspektiv qisqarishini to'g'ri bajara olmagan. 3-a rasm. Natijada, ko'zaning buyum tekisligida joylashuvi soxta bajarilgan va fazoviy holati hamda hajmi aniqlanmagan. 3-6 rasmda ko'zaning chiziqli konstruktiv tuzilishi, ko'zadagi aylana sirtlarining ufq chizig'idan pastga,



buyum tekisligiga tomon uzoqlashgan sari, undagi aylana sirtlarining perspektiv holati asta-sekin qisqara borishi natijasida ko'zaning tekisligidagi fazoviy holati va hajmi aniq tasvirlangan.

Yuqorida keltirilgan misollardan ko'rinadiki, yoshlar u yoki bu buyumni tasvirlashdan avval uning shakli qanday sodda yoki murakkab tuzilgan bo'lishidan qat'iy nazar uni sinchiklab kuzatishlari va uni xuddi shishadan ishlangandek ko'rinar ko'rinmas tomonlarini ham tasavvur qilishlari shart. Ko'pincha usta rassom va muallimlar buyumni kuzatib o'rganish natijasida uni qog'oz kompozitsion jihatdan to'g'ri joylashgan, chiziqli konstruktiv qurilgan holatini hayolan tasavvur etishini so'ngra, shu kuzatish orqali ishga kirishishni maslahat beradilar. Bunday usul chizuvchining fazoviy tasavvurini shakllantiribgina qolmay, buyum tasviri to'laqonli bo'lishida katta omil bo'ladi.

Yoshlar tasviriy san'atning perspektiva qonunlarini o'qish davrining hamma bosqichlarida qo'llay bilishlari zarur. Ular nafaqat turli oddiy buyumlarni chizganda, balki tabiatning eng murakkab mahsuli bo'lgan inson qomatining turli holatlardagi ko'rinishini bajarishda ham qo'llashlari lozim.

Inson portreti yoki tanasini tasvirlashda talaba dastlabki kurslarda, geometrik shakllarni chizish davrida olgan bilim va malakalarga asoslanishi muhimdir. Chunki, tabiatdagi barcha narsalarning asosida geometrik shakllar yotadi. Geometrik shakl-tekisliklar asosida tasvir bajarish, jumladan inson qomatini chizish va konstruktiv tahlil qilishga uyg'onish davri rangtasvir, qalamtasvir ustasi va haykaltaroshi Albrext Dyurer asos solgan.

Buyuk nemis rassomi A.Dyurer tasviriy san'atni o'qitish ietodikasi borasida ko'plab ilmiy – amaliy ko'rsatmalar qoldirgan. Ijodiy faoliyatda u nafaqat his tuyg'u va kuzatishlarga, balki aniq ilmiy bilimlarga asoslanishni oldinga qo'yadi. Tasviriy san'atda ilmiy asoslar deb ta'kidlaydi Dyurer, rassomning muvaffaqiyatini belgilaydi.

Inson a'zolari va qomatini perspektiva jihatdan to'g'ri tasvirlashda u oddiy geometrik shakllardan foydalanishni ishlab chiqqan. Bu usul qalamtasvir bajarishda katta malakaga ega rassomdan tortib, badiiy ijodga endigina qadam qo'yayotgan o'quvchiga ham juda katta yordam beradi. Chizuvchi turli shaklli geometrik sirtlar orqali murakkab tuyulgan vazifani ham bajara olishi mumkin. Masalan, inson boshini chizishda uning shaklini katta-katta geometrik bo'laklar asosida tasavvur etishi va uni xuddi haykaltarosh singari kesib ishlashi ancha muhimdir.

Uyg'onish davri rassomlari o'zlarining ilmiy kuzatishlari tasviriy amaliyotga keng tadbig' etganlar. Ular plastik anatomiya, perspektiva, yorug' va soya qonunlari borasida ko'plab bilimga ega bo'lganlar va o'zlarining buyuk asarlarini yaratib, uyg'onish davri san'atini yuqori cho'qilarga olib chiqqanlar.

Yosh – rassomlarni qalamtasvir borasida puxta bilimli olishlarida perspektiva qonuni asoslari, plastik anatomiya kabilar bilan bir qatorda tasviriy san'atda yorug'-soya qonunlarini o'rgatish ham katta ahamiyatga ega. Buyumlarning chiziqli konstruktiv tuzilishini aniq bajarganlaridan so'ng, uning qanday materiallaridan tuzilganligi, bir-biriga tus jihatdan nisbatlarini, fazoviy holatini va hajmini to'g'ri bajarishlarida yorug'-soyalarining ahamiyati muhim.



Tabiatdagi mavjud hamma buyum va narsalar turli hajmga ega bo'lib, biz ularga yorug'lik tushishi natijasida hosil bo'ladigan o'zgarishlari orqali qanday hajmga ega ekanligini tasavvur qilamiz.

Ma'lumki, yorug'lik tabiiy quyosh va oy, yoki su'niy elektr va alanga shu'lasini bo'ladi.

Quyosh nurlari bizgacha nihoyat darajada uzoqdan kelib, uning yorug'lik nurlari Yerdagi barcha narsa va buyumlarga sochilib tushib, asosan sferik shakllarda buyumda yorug' va soyalar tarqoq, nisbatan noaniq ko'rinadi.

Narsani o'ziga qarab tasvirlashda su'niy yorug'lik manbalaridan foydalanish buyumlarning hajmi va shaklini to'g'ri bajarishda muhimdir. Talabalar doimo shuni yodda tutishlari kerakki, o'qish jarayoni, xususan qalamtasvir borasida, uning o'ziga xos ilmiy jihatlarini mukammal o'zlashtirishlari ularning keyingi ijodiy faoliyatlarida katta ahamiyat kasb etadi.

Qalamtasvir mashg'ulotlarida buyumlarning hajmini to'g'ri va haqqoniy tasvirlash oddiy qalamlarda amalga oshiriladi. Rangtasvirdan farqli o'laroq bu vazifa ancha mushkul bo'lib, talabalar zimmasiga qalamtasvir borasida ko'plab amaliy mashqlar bajarishni talab etadi. Shuning uchun, talabalar turli hajm va shaklga ega buyumlarning yorug' va soyalarini tasvirlanayotgan buyumlarning hajmi va shakli asosida ish yuritishni taqozo etadi. Bunda u qalam bilan buyumga tushayotgan yorug', soya, yarim soyalarni yengil chiziqlar bilan bir tekisda va chiziqlar tortishda uning dona-dona bajarilishiga e'tibor berish kerak, buyumlarga yorug'lik qanchalik tik tushsa, ularning tasviri yaqqol ko'rinadi. Aksincha, Chetdan tushayotgan yorug'lik buyumga umumiy tarzda urilib, bajarilayotgan tasvirni xiraroq bo'lishiga olib keladi. Yorug'lik bir buyumdan urilib (sinib) ikkinchisiga va uchinchisiga tushishi mumkin. Bu hol tasvirlanayotgan buyumlardagi yorug' va soyalar majmuasini tashkil etadi. Ular quyidagilardan iborat:

a) yorug'lik, b) soya, v) yarim soya, g) aks, d) yaltiroqlik.

**Yorug'lik** – deb buyum yuzasiga tik tushuvchi quyosh yoki sun'iy yoritkichlar ta'siridagi nurga aytiladi.

**Soya** – buyumlarning yoritilgan qismining orqa tomoniga (teskarisiga), yorug'lik nurlari tushmagan yeriga aytiladi.

Bunday soyalarni yana **shaxsiy soya** ham deb yuritiladi. Tasvirlar bajarilishida **tushuvchi soyalar** ham kuzatiladi. Ushbu soyalar buyumlarning biri ikkinchisini to'sishi natijasida hosil bo'ladi.

Bunday soyalar buyum tekisligiga (stol, pol, yer va hokazo) hamda, bajarilayotgan buyumlarning biridan ikkinchisiga ham tushishi mumkin. Buyumlarga qiyaroq ravishda tushuvchi yorug'lik, ularda **yarim soyalarni** tashkil etadi. Yarim soyalar asosan yorug'lik va shaxsiy soyalar oralig'idagi qismida joylashadi. Shuning uchun soyalar bir xil to'q tusda bo'lmaydi.

Faqatgina soya va yarim soyalar orqaligina, buyumlarning hajmlarini to'g'ri bajarish mumkin. Buyumlarga urilish natijasida qaytib boshqasiga tushuvchi yorug'liklar **aks yorug'likni** hosil qiladi.

Aks yorug'liklar predmetlarning bir-biridan qanday masofada joylashganiga ko'ra kuchli yoki kuchsiz bo'lishi mumkin.



Lekin hech qachon aks yorug'lik buyumlarga tik tushuvchi yorug'likka nisbatan kuchli bo'lmaydi.

Buyumga yorug'likning tik tushishi natijasida esa **yaltiroqlik** hosil bo'ladi. bu holat shisha, chinni, temir, sopol va boshqa yorug'likning qaytarish xususiyatiga ega bo'lgan ko'pgina buyumlarda kuzatladi.

Yuqorida ta'kidlanganidek o'quv qalamtasvirida yorug' va soyalar qalamda yengil chiziqlar (shtrix) bilan amalga oshiriladi. Yorug' va yarim soyalarda chiziq kuchlar tasvirlanayotgan buyumning xarakteriga va yorug'lik tushish yo'nalishi buyisha dona-dona, aniq bo'lishi kerak. Bunday bajarilgan tuslar buyumlarning konstruktiv tuzilishini yanada yaqol ko'rsatib beradi. Aksincha, buyumning soya qismlarida chiziqlar quyugroq, bir-biriga yaqin (birlashib ketgan) bo'lishi kerak. Qirrali buyumlarda tuslar yorug' va soya uchrashgan (yaqinlashgan) qismida to'qroq bo'ladi. Rasm

Tasvirlashga qo'yilgan oldingi qatordagi buyumlar aniq chiziqlar bilan chizilsa, 2- va 3- qatordagi buyumlar chizuvchidan uzoqroqda joylashganligi hisobiga umumiy tarzda bajariladi.

Bu o'z navbatida tasvirlanayotgan buyumni haqqoni (fazoviy perspektiva qonuniga asosan) bajarilishida muhimdir.

Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, oddiy qalam bilan buyumning hajmi asosida ishlash, tasvirlanayotgan buyumlarni to'laqonli hajmli bajarilishining omilidir. Pala-partish, duch kelgan tomonga chiziqlar tortish qo'yilgan maqsadga erishishga tusqinlik qiladi.

Buyumlarning hajmlarini bajarishda, chiziqlarni tortish ketma-ketligiga rioya qilish kerak. Qalamni qog'oz sirtida bir xil kuch bilan bosganda chiziqlar orasidagi masofalarning teng bo'lishiga e'tibor berib tasvirlash, chizilayotgan qo'yilmaning to'g'ri bajarilishida katta ahamiyatga ega. Dumaloq (sferik) hajmga ega bo'lgan buyumlarni bajarishda, yuqorida ta'kidlab o'tilgan chiziq tortish ellips shaklida bajarilib, buyumning ekvatoriga (qorniga) yaqinlashganda to'qroq kuchda bo'ladi.

Yorug' - soya qonunlarni perspektiva, qayishuvchanlik anatomiyasidagi qonunlar kabi tasvirlashda aniqlikni talab etadi, fizik olimlarning tadqiqotlari shuni ko'rsatdiki, yorug'lik barcha buyum va narsalarga tushishi natijasida ma'lum hajmlar qonunini tashkil etadi. Oliygoch talabasi ushbularni doimo o'z tasviriy faoliyatida bilishi va qullashi lozim:

A) yorug'lik manbaiga yaqin bo'lgan buyumlarda yorug' va soyalar har doim kuchlidir; aksincha, buyumlar yorug'lik manбайдan uzoqlashgan sari, soya yorug' kuchlari ham umimiylashib xira bo'lib ko'rinadi. Buyumlarni tasvirda aniq bo'lishi uchun yorug'lik manbaiga yaqin turganlarini keskin yorug', soyalar orqali bajarish, uzoqda joylashgan buyumlar esa, umumiy tarzda chizish tavsiya etiladi.

B) buyumning nurini tusishi natijasida u yoki bu tekislikka tushuvchi soya, har doim shu buyumning shaxsiy soyasiga nisbatan kuchliroq bo'ladi. Shuning uchun ba'zan tus jihatdan to'q bo'lgan buyumni tasvirlashda ham, uning yorug'likni to'sishi natijasida tushuvchi soya bilan solishtirish va tushuvchi soyani to'qroq bajarish kerak.



Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisi tasvirlashning texnik jihatlari bilan bir qatorda uning nazariy tomonlariga ham ko'proq e'tibor berishi lozim.

O'tmishda usta rassomlar tabiatdagi yorug' va soylarning qonunini izchil kuzatganlar va o'zlarining amaliy ishlarida muvafaqqiyat bilan qo'llay bilganlar. Jumladan, mashhur Leonardo da Vinchi shunday deydi: "To'q tusli buyumdahosil bo'luvchi aks yorug'lik doimo ochroq tUSDagiga nisbatan aniq va yaqqol ko'rinadi"<sup>3</sup>.

Ba'zi tasviriy san'atdagi amaliyotchilarning fikricha, g'uyoki tasvriyo faoliyatdagi ilmiy asoslar talabalarning ijodiy yo'nalishlariga to'sqinlik qilar va salbiy ta'sir ko'rsatar emish. Ularning ta'kidlashlariga ko'ra, agar, talabalar tasvirlashning ilmiy jihatlari asosida ma'lum vazifalarni bajarsalar, ular bajargan ish tasvirlar ham bir xil darajada bo'lar ekan. Ushbu noto'g'ri tushunchani quyidagi bir misolda tahlil etaylik. Talabalar bajarayotgan natyurmort qalamtasviri boshlang'ich bosqichdan to' oxirigacha pedagog nazoratida, uning bevosita ko'rsatmalari orqali bajarilsa ham, vazifa tugal holatga kelganda talabalar ishining har biri bajarilish uslubi va emotsional jihatlari bilan bir-biridan keskin farq qladi.

Ko'p yillik kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, talabalarga qalamtasvir mashg'ulotlarini o'qitishda ayrim pedagoglar qalamtasvirda mavjud ilmiy asoslarga;perspektiva qonunlariga, qayishuvchanlik anatomiyasiga va yorug'-soylar nazariyasiga etarli e'tibor bermaydilar. Oqibatda talabalar ushbu qonun-qoidalardan bexabar qoladilarva amaliy vazifalar puxta bajarilmaydi.

Oliy o'quv yurti o'qituvchisining asosiy vazifasi talaba yoshlarga mutaxassislik fanlar bo'yicha: rangtasvir, haykaltaroshlik, xalq amaliy san'ati va ayniqsa, qalamtasvir borasida ko'plab amaliy hamda nazariy bilimlar berish va umumta'lim maktablariga yuqori malakali mutaxassis o'qituvchilarni tayyorlashdir.

Yuqorida bayon etilgan fikrlardan xulosa shuki, talabalikka qalul qilingan yoshlarga boshlang'ich kurslardan boshlab rangtasvir, kompozitsiya, haykaltaroshlik kabi mutaxassislik fanlarning puxta o'zlashtirilishida asos boshlang'ich o'quv qalamtasviri mashg'udlotlarining amaliy jihatlari bilan, uning ilmiy nazariy tomonlari ham keng o'qitilishi shart.

O'tmish tarix shuni bizga aniq misollarda ko'rsatadiki, qaditmda buyuk tasviriy san'at ustalari o'zlarining asarlarida tasvirlashning ilmiy asoslarini qo'llash natijasida katta yutuqlarga erishganlar. Florensiya maktabi rassomlari tasviriy san'atni ilmiy izlanishlar qatoriga qo'yganlar va biz bilamizki buning natijasida bu yerldan katta-katta buyuk tasviriy san'at ustalari yetishib chiqqan.

Buyumlarni o'ziga qarab tasvirdash – tasviriy, faoliyatning alifbosidir. Bunga umumta'lim maktabi boshlang'ich sinflardan, to' oliy o'quv yurtlari talabalarigacha har doim amal qilishlari kerak. Yoshlar narsani o'ziga qarab tasvirlash davomida borliqni haqqoniy tasvirlash bilan bir qatorda tabiatdagi voqea va hodisalarni, shakllarning konstruktiv tuzilishlarini, tasvirdash qonun-qoidalari asosida

<sup>3</sup> Леонардо да Винчи. Книга о живописи. М., Огиз-Изогиз, 1935. 127-бет.



o'rganadilar. Bularni talaba yoshlarga o'qitishda didaktiv prinsiplarning asosiysi hisoblangan – ilmiylik prinsipi etakchi o'rin egallashi lozim.

#### 4. Perspektiva realistik tasvirlashning asosi sifatida.

Tasvirlanayotgan buyumlar, ushbu buyumning qaysi tomonidan tasvirlanishidan qat'iy nazar (uzoqdan, yaqindan, yuqoridan, pastdan, to'g'ridan yoki chekkadan) chizuvchiga o'zgarib ko'rinadi. Masalan, kubni u yoki bu tomonga burib, uning tomonlarini chizuvchiga perspektiv o'zgarib ko'rinishini kuzatamiz.

Buyumlarni tekislikda haqqoniy tasvirlashda rassom perspektiva qonuniga bevosita murojaat qiladi. bu holatni shunday ta'riflash mumkin: «*Tabiatdagi barcha buyumlar qanday shaklga ega bo'lmasin, perspektiv qonun va qoidalarga bo'ysunadi*»,

Perspektiv qonunlarni mukammal o'rganib, har qanday buyumning ko'rinar va ko'rinmas tomonlarini to'g'ri tasvirlash mumkin. Perspektiva qonunlarining asosiy xususiyatlari shundaki, buyumlar qanday kattalikda bo'lmasin, chizuvchidan uzoqlashgan sari va tekislikda qanday joylashganiga qarab perspektiv qisqaradi.

O'z navbatida perspektiv qonuni haqqoniy tasvirlash «**alifbo**» laridan biri bo'lgan «*sura'at tekisligi*», «*buyum tekisligi*», «*ko'rish maydoni*», «*ko'rish nuqtasi*», «*ufq chizig'i*» kabi qonuniyatlar bilan chambarchas bog'liqdir.

**Surat tekisligi** deb tasvirlanayotgan natyurmort, manzara, portret va hokazolar bilan rassom orasidagi bo'shliqqa aytiladi.

Fiziologik nuqtai nazardan qaralganda, yorug'lik chizilayotgan buyumga tushib, rassomga u yoki bu qismining shakli ko'rinadi. Shundan keyingina, rassom uni idrok etib tasvirlashga o'tadi. **Surat tekisligi** rassom bilan natura o'rtasidagi vosita bo'lib xizmat qiladi.

**Buyum tekisligi** deb tasvirlanayotgan buyumning joylashgan tekisligiga aytiladi. Buyum tekisligi vazifasida stol, pol, yer va boshqa chizish uchun bajariladigan moslama bo'lishi mumkin.

**Ko'rish maydoni** bu chizuvchining tasvirlanayotgan buyumni ko'rish vaqtida qamrab olishdir. Rassom tasvirlanayotgan ob'ektning qancha uzoqlashib borgan sari uning ko'rish maydoni ham kengayib boradi, bu esa tasvirlanayotgan ob'ektning barcha qismlarini aniq ko'rish va tasvirlashga imkon yaratadi rasm. Lekin, ob'ektdan juda katta masofada turib, undagi hamma bo'laklarni va hajmlarni to'laqonli tasvirlash ancha qiyin. Aksincha, tasvirlanayotgan ob'ektga juda yaqin masofada turib ham, ushbu ob'ektdagi hamma qismlarni ko'z bilan ilg'ab olish mashkul. Shuning uchun har qanday tasvirni bajarayotganda chamalash orqali masofani to'g'ri tanlay olish, ko'rish maydonini to'g'ri belgilash rassomdan mahorat talab etadi. Ko'p hollarda rassomlar tasvirlanayotgan predmet kattaligini 3 hissa ko'paytirilganiga teng masofada turib tasvirleydilar. Masalan, inson qomatini to'laqonli tasvirlash uchun rassom naturadan taxminan 5-5,5 metrlar masofada turishi kerak. Shundagina u tasvirni to'laqonli tasavvur etib vazifani aniq bajarishi mumkin.

**Ufq chizig'i** deb, ko'zimiz balandligida o'tadigan nurga aytiladi. Buni aniqlash uchun qog'ozni olib uni gorizontol holatda ko'zimiz darajasigacha





ko'tarib ufq chizig'ini aniqlashimiz mumkin. Buyum chizuvchiga uch holatda ko'rinishi mumkin.

1. Ufq chizig'idan yuqorida.
2. Ufq chizig'idan pastda.
3. Ko'zimiz nuri balandligida (ufq chizig'i balandligi darajasida).

Ufq chizig'i har doim ko'zimiz nuri balandligidan o'tadi. Agar biz yuqoriga chiqsak u biz bilan ko'tariladi, pastga tushsak ufq chizig'i ham pastda kuzatiladi.

**Fazoviy perspektiva** deb buyumlarning fazo (bo'shliq) ta'sirida o'zgarib (qisqarib) ko'rinishiga aytiladi. Fazo – tiniq muhitdir. Lekin, uning tiniqligi tabiatning turli hodisalari ta'sirida o'zgarib turishi mumkin. Masalan: havo namligi, atmosfera bosimining o'zgarishi, havodagi chang-to'zoning ta'sirida havo bulutligi va boshqalar. Shuning uchun tasvirlanayotgan ob'ektning fazo bo'shlig'ida qay darajada chuqur joylashganiga qarab rang, nisbat, tus va undagi alohida bo'laklarning (yaqqol yoki xira) ko'rinishlariga keskin ta'sir etadi.

Fazo perspektivasi ob'ektning kunning qaysi vaqtida tasvirlanayotganligiga (ertalab, kunduzi, kechqurun) yil fasllari (bahor, yoz, kuz,) hamda atmosfera o'zgarishiga (quyosh yoki bulut) qarab ham o'zgaradi.

Fazoviy perspektivaning bir necha asosiy qoidalari mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

1. Bajarilayotgan tasvir rassomga yaqin bo'lgan buyumlar yaqqol, uzoqdagilar esa umumiy ko'rinadi. tasvirda fazoni sezdirish uchun yaqin masofada joylashgan buyumlarni yaqqol, uzoqdagilarni esa umumiy tarzda tasvirlash kerak.

2. Fazo bo'shlig'ida (kengligida) joylashgan buyumlar chizuvchidan qanchalik uzoqda joylashgan bo'lsa, xira tusda ko'rinadi. Tasvirda fazoviy perspektivani to'g'ri ko'ratish uchun uzoqda joylashgan buyumlarni ozroq yengil oldingi qatordagi buyumlarni esa yaqqol tasvirlash kerak.

3. Yaqin masofada joylashgan buyumlar fazoda yaqqol hajmli bo'lib ko'rinadi, uzoqdagilari esa xiraroq ko'rinadi. tasvirlashda ham ushbu tartibga rioya qilmoq zarur.

4. Chizuvchidan uzoqroq joylashgan buyumlar, atmosfera bosimi ta'sirida siyohrang, havorang va och tusda ko'rinadi. fazoviy perspektivani yanada kuchliroq ko'rsatish uchun yaqin masofadagi yaqqol ko'rinib turgan buyumlarni aniqroq chizgilar bilan, uzoqdagilarni esa ochroq tusda tasvirlash mumkin.

5. Oldingi qatorda joylashgan buyumlar haqiqiy o'z tusida (rangida), uzoqdagilari bir xil bo'lib ko'rinadi. Fazoviy perspektivaning bu qonuni rassomdan oldingi masofada joylashgan buyumlarni yaqqol, uzoqdagilarni esa umumiy tarzda xiraroq qilib tasvirlashni talab etadi.

Fazoviy perspektivaning ushbu qonuni-qoidalariga rioya qilish talaba uchun muhimdir. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan qoidalar talabaning qanday vazifa bajarishidan qat'iy nazar (portret, natyurmort, manzara va hokazo) kuzatiladi.

**Chiziqli konstruktiv tuzilish.** Tasvirlash uchun buyum qanday sodda yoki murakkab bo'lishidan qat'iy nazar u konstruktiv tuzilishga ega. **Konstruksiya** so'zi- tuzilish (qurilish) ma'nosini anglatib, rassom buyumni tasvirlashda ushbu qonunga amal qilishi shart. Buyumni haqqoniy qilib tasvirlash uchun uning



tuzilishini chiziqli konstruktiv tuzilishiga e'tibor berish maqsadga muvofi. Chiziqli konstruktiv kurish har qanday vazifani tasvirlashda amalga oshiriladi. Quyidagi antik davrga mansub gipsdan ishlangan ko'za va me'morlik bo'lagida ushbu qonunni amalda ko'rishingiz mumkin

Buyumning konstruktiv tuzilishini uning asosiy qismlaridan, hamda yordamchi chiziqlar o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi (ko'za, konus, piramida va hokazo). Chiziqli konstruktiv tuzilish orqali buyumni to'g'ri tasvirlashda perspektiv qonun-qoidalarga to'liq amal qilishni taqozo etadi. Yuqorida ko'rsatilgan rasmdagi gips ko'zaning hajmini to'g'ri amalga oshirish jarayonida ko'za asosi (buyum tekisligida joylashgan), ekvatori, bo'g'izi va yuqori qismi aylanalarining buyum tekisligidagi holatiga asosan perspektiv qisqarishini ko'ramaz. Demak, chiziqli konstruktiv qurish buyumning chekka qirralarini kontur chiziqlar bilan, murakkab tuzilishga ega (bir necha mayda bo'laklardan iborat). Buyumlarda esa ushbu bo'laklarning yengil birlashib yaxlit bir butunlikni tashkil etishdan iboratdir (*15 rasm*).

Buyumlar o'z hajmiga ega bo'lishdan tashqari nisbatlarda ham, balandligi va eniga egadir. Bu esa **buyumlarning nisbati** deyiladi. Bir necha buyumlardan tashkil etilgan qo'yilma o'z nisbatlaridan tashqari o'zaro ham katta-kichikligiga qarab nisbatlari mavjud. Realistik tasvirlashda buyumlar nisbatini to'g'ri aniqlash katta ahamiyat kasb etadi. Buyum nisbatlarini to'g'ri aniqlash va tasvirlash quyidagi usulda amalga oshiriladi. Masalan, gips naqsh rozetkasini olaylik. Rozetkaning balandligini eniga nisbatan kattaligini aniqlash uchun qo'lga qalamni ushlab uzatgan holda rozetkaning kichik tomoni-enining o'lchamini qalamda bosh barmoq bilan belgilab rozetka balandligiga qo'yib taqqoslaymiz. So'ngra ushbu topilgan nisbatni qog'ozda belgilaymiz. Shu usulda bir guruh buyumlardan tashkil etilgan natyurmort yoki boshqa o'zining hamda o'zaro nisbatlarini to'g'ri tasvirlash mumkin.

**Hajmlar.** Har bir buyum o'zining hajmiga ega. Uning hajmi qirralari, balandligi, bo'yi va enining mavjudligi bilan belgilanadi. Agar buyumning hajmi to'g'ri to'rtburchaklardan iborat bo'lsa, uning hajmi ham tekis yuzadan iboratdir. Egri chiziqlardan tashkil topgan buyumlar (shar, konus, silindir va boshqalar) tekis yuzalilarga nisbatan ancha hajmdor hisoblanadi. Yuqorida sanab o'tilgan shakllar kontur<sup>1</sup> chiziqlar vositasida amalga oshiriladi. Kontur chizig'ining buyum shaklini namoyon etishda ahamiyati benihoyat katta. Buyumning tuzilishi, harakati, nisbatlari, uning qanday materialdan tuzilganligini va boshqalarni tasviriy ifodalashda rassom kontur chiziqlardan foydalanadi.

---

<sup>1</sup> Контур – (Французча KONTOUR) буюм шаклини акс эттирувчи чизи<sup>3</sup> деб аталади.

Buyumning shakllari to'g'ri to'rtburchaklardan iborat bo'lsa (kub, piramida, prizma va boshqalar), uning hajmlarini bajarish to'g'ri chiziqlar vositasida amalga oshiriladi yoki uning konturlari egri chiziqlardan iborat bo'lsa, hajmlilik ellips, aylana shakllar orqali amalga oshiriladi.

Buyumni hajmdor tarzda tasvirlash, uning qanday shaklga ega ekanligiga va uni to'g'ri tuslash orqali bajariladi. Qirrali buyumlarda, masalan, kub hajmini to'g'ri tasvirlashda ko'pincha talabalar xatolikka yo'l qo'yadilar.

Kubning hajmini yorug' soyalar vositasida bajarish jarayonida uni yanada yorqinroq aks ettirish uchun uning qirralarini kontur chiziq bilan alohida bo'rttirib ko'rsatadilar. Bu esa mutlaqo noto'g'ri. Tabiatda esa qirrali buyumlar yuzalarining bir-biridan tus jihatidan och va to'qligi bilan belgilanadi. Faqat (kub yoki boshqa qirrali buyumlarda) soya qismidagi qirradi yorug' qismidagi yuzaga yaqinroq yerida tus jihatdan kuchliroq ekanligi bilan harakterlidir.

Dumaloq shaklli buyumlarni hajmlarini ellips, aylana chiziqlar orqali bajariladi. Tasvirlashda dumaloq hajmga ega buyumlarning ekvator qismi tus jihatdan kuchliroqdir. Qirrali buyumlarda bo'lgani kabi sharsimon buyumlarni tasvirlashda ham uning chetlari quyuq kontur chiziq bilan amalga oshirilmaydi. Faqatgina uning turgan holatiga qarab yorug' va orqa fondagi soyalar chegarasi bor xolos.

Lekin yevropa realistik tasviriy san'atdan farqli ravishda sharq tasviriy san'ati ham o'zining betakrorligi bilan ma'lum va mashhur. Chunonchi, ustoz Kamoliddin Behzod tomonidan ishlangan Sulton Husayn Mirzo portretini olaylik. Ushbu portretning hajmdorligi garchi yorug' soya qonuniyatlariga va perspektiva qoidalariga rioya qilinib yaratilmagan bo'lsada, undagi lokal chiziq va konturlar orqali rassom asar qahramonini mohirona tasvirlagan.

Biror bir yuzada jismni xaqqoniy tasvirlash uchun, jismning ko'rinib turgan qismi, unga xos bo'lgan quyidagi barcha xarakterli jihatlari va xususiyatlari uyg'unlashishi lozim: tuzlishi, nisbati, hajmi, materiali bo'shliqdagi joylashuvi. Ko'chaning o'rtasidan ketaturib derazalarga qarasak, ular xuddi qisqarib borayotgandek. Aslida esa ularning o'lchami o'zgarmaydi. Parallel temir yo'l releslari, olisga qaralganida, ufq tomonga qarab birlashib, bir nuqta bo'lib ko'rinadi, sim yog'ochlar binolar, daraxt va odamlar bizdan uzoqlashgani sari kichrayib boradi. Uzoq masofalarda katta hajmdagi jismlar tekis bo'lib, noaniq belgilar, chiziqlar va bo'laklar shaklida ko'rinadi. Jismlarning bunday o'zgarishi





ma'lum qonunlarga bo'ysunadi. Ushbu qonunlar insonning ko'rish qobiliyatiga, jismlarning masofa o'zgarishi natijasida qisqarishi natijasida vujudga keladi. Bularni tasviriy san'atda *perspektiva qonuni* deb ataladi.

Shakllarning perspektiv ko'rinishini qurishda tabiat tomonidan yaratilgan ne'matlarning tuzilishini misol qilib ko'rsatishi maqsadga muvofiq. Masalan, palma tuzilishi va uning perspektiv ko'rinishi inson barmoqlarini tasvirlashda perspektiv qoidalarini qurish jarayonida ko'rish mumkin.<sup>4</sup>

Bizning jism haqidagi tasavvurlarimiz, o'sha jismni kuzatayotgan paytimizdagi shart-sharoitlar (masofa, hajm, havo o'zgarishi, yil fasli va boshq.) asosida o'zgaradi. Jismlar shaklining ko'z oldimizda o'zgarishi aniq perspektiv qonunlarga bo'ysunadi. Olisdagi jismlar shaklining perspektiv qisqarishi antik davr qo'lyozmalarida ham uchraydi. XV asr o'rtalarida yashab ijod qilgan italyan rassomi Petro del Borgo ushbu nazariyaning birinchi namoyandalaridan biri bo'lib hisoblanadi. Leonardo da Vinchi ham o'zining «Rasm haqidagi ilmiy maqola»sida chiziqli hamda fazoviy perspektiva qonunlari to'g'risida aytib o'tgan edi. Ushbu qonunning nazariy jihatdan rivojlanishi nemis rassomi va nazariyotchisi Albrecht Dyurer nomi bilan ham bog'liq. A. P. Losenko va yana ko'plab rus rassomlari perspektivaning nazariy jihatlaridan o'rganganlar.

Quyida jismlarning perspektiv qisqarishi uchun o'ta muhim bo'lgan qonun-qoidalarni ko'rib chiqamiz. Buning uchun eng avvalo ko'rish organimiz haqida ma'lumotga ega bo'lishimiz lozim. Ma'lumki, yorug'lik nurlari ko'z qorachig'i orqali ichkariga kiradi, g'ayxardan o'tib (ikki taraflama qavariq linza orqali), ko'zning to'rsimon muguz pardasiga tushadi. Ushbu pardaning eng mayda kolbalari nervlarning ta'sirlanishini yuzaga keltiradi va uni bosh miyaga uzatadi, buning natijasida biz yorug'likni his etamiz. Yorug'lik nurlari ko'zga konus shaklidagi nur holatida kiradi va konus ko'z qorachig'ining yuqori qismida joylashadi.

Masofa o'zgarishi, jism masshtabining o'zgarishi, jismning ko'zdan uzoqlashishi bilan faqatgina uning kengligi va balandligi emas, balki chuqurligi ham o'zgaradi. Shuningdek jism balandligi va hajmi ham kenglikning o'zgarishi natijasida kichrayadi. Shuning uchun olisdagi jism hajmi yaqindagi jism hajmiga nisbatan noaniq bo'lib ko'rinadi. Ko'zdan juda ham olislashib ketganida jismlar umuman kichrayib ufq chizig'ida bir chiziq holda tekis bo'lib ko'rinadi. Jismlar kichrayishi bilan ular o'rtasidagi masofa ham kamayadi. Uzoqdagi narsalar xuddi yaqinlashib qolgandek va ularni ajratib turgan bo'shliq g'oyib bo'lgandek tuyuladi. Jismlar va ko'z o'rtasidagi masofa yanada ortganida jismlar bir-birlari bilan bir nuqtaga birlashib ketadi. Jism shaklini idrok etish perspektiv tasvirga nisbatan ko'proq oldindan ma'lum bo'lgan jism tuzilishiga bog'liq. Shu sababli, biz parallel chiziqlar olislashgani sari bir-birlari bilan qo'shib ketganlarini ko'rsakda, ma'lumki, bizning ko'z oldimizda turgan parallel chiziqlar kesishishi mumkin emas. Qisqacha aytadigan bo'lsak, biz bir narsani ko'ramiz, ammo uni boshqacha qabul qilamiz.

<sup>4</sup> Michael Hampton. FIGURE DRAWING Design and Inventio. nwww.figuredrawing.info. mh@figuredrawing.info Published by M. Hampton. ISBN-10: 0-615-27281-9 ISBN-13: 978-0-615-27281-8 Printed in China. Copyright ©2009



Tajribasiz rassomning chizgan rasmi yosh bolaning rasmidan farqlanmaydi, - bunda perspektiva mavjud bo'lmaydi (barcha jismlar faqatgina ikki o'lchamda tasvirlanadi) – bu o'z navbatida realistik tasvirni bilmaslikdan kelib chiqadi. Jismlar shaklining qisqarishini aniq va ravshan ko'rsatib berish uchun, o'zimizdan bir oz uzoqroqqa to'g'ri burchakli oyna bo'lagini joylashtiramiz va u orqali jism yoki jismlar guruhini tomosha qilamiz. Jismdan kelayotgan nur ko'zimiz to'rt pardasiga tushishdan oldin, tomoshabin va jism o'rtasida joylashgan oyna yuzasidan ma'lum nuqtalarda o'tishi lozim. Boshimiz holatini o'zgartirmasdan, ko'rinayotgan jism konturi bo'yicha oynaga tush yoki siyoh bilan chizamiz. Oynada to'g'ri perspektiv tasvir hosil bo'ladi. Ushbu holatda oyna *rasm chizish yuzasi* bo'lib xizmat qiladi.

Jismning joylashgan o'rniga (ko'zdan balandda yoki pastda, bizdan olisda yoki yaqinda) va burilish darajasiga ko'ra jismning ko'zga ko'rinadigan qismi o'zgaradi. Jismni ko'zdan yiroqlashtirilishi, uning hajmining kichrayib borishiga olib keladi. Gorizont chiziqlar (yo'lak chetlari, temiryo'l releslari va hok.) ko'zdan uzoqlashib, tomoshabinning ko'zi oldida joylashgan shartli tekislik tomon harakatlanadi: ko'zdan balandda bo'lgan jismlar balanddan pastka tomon, ko'zdan pastda bo'lganlari esa pastdan yuqoriga tomon kichrayadi. Parallel gorizont chiziqlar olislashganida nafaqat bir-birlariga yaqinlashadilar, balki bir nuqtada birlashadilar. Tabiatda vertikal yo'nalishga ega bo'lgan barcha narsalar (masalan, telegraf ustunlari) rasmda ham vertikal ko'rinishda bo'ladi.

Oynada kuzatilgan barcha perspektiv o'zgarishlar borliqqa, tabiatga asoslanib rasm chizilganida qog'ozga tushishi lozim.

Tabiatga asoslanib rasm chizishdan avval, jismning gorizont chizig'iga nisbatan joylashuvini aniqlash muhimdir: u gorizontdan pastda, yuqorida yoki gorizontda joylashganligini aniqlash lozim.

Gorizont chizig'i kuzatuvchi ko'zi darajasida joylashgan bo'ladi, shuning uchun rassomning holati o'zgarishi bilan, gorizont chizig'ining joylashuvi ham o'zgaradi. Jismni gorizont chizig'ini hisobga olgan holda tasvirlanganda jismning ko'rinadigan qismi o'zgarib turadi: gorizont chizig'idan yuqorida joylashgan jismlar kuzatilganda, ularning pastki qismi, gorizontdan pastda joylashganlarining esa yuqori qismi ko'rinadi.

Gorizont bo'yicha to'g'ri burchak hosil qilgan istalgan shaklning (masalan, kubning vertikal qirradi) vertikal chizig'i olislashganida ham vertikal bo'lib ko'rinadi. Shaklning gorizont chizig'i esa gorizont bilan mos keladi va rasmda gorizont holatda aks etadi.

Gorizont chiziqlarning perspektiv harakatini kitob javoni misolida aniq ko'rishimiz mumkin. Tabiatdan rasm chizilganida gorizont tomon harakatlanuvchi gorizont chiziqlarning yotqlik burchagini aniqlash va uni rasmda to'g'ri ifodalash muhim vazifa bo'lib hisoblanadi. Misol uchun, ko'zdan pastga, stolga kitob qo'yamiz. Kitobning hech bir qirradi bilan ko'z nuri perpendikulyar bo'lmasligi lozim. Kitobning gorizont qirralarini gorizont chizig'i bo'yicha pastdan yuqoriga harakatlanadi deb qabul qilamiz. Buni aniq sezish uchun, stolga, kitob qirrasining old tarafiga (ko'z nuriga perpendikulyar qilib) qalam qo'yamiz yoki qo'limizni oldinga cho'zib qalamni gorizont, ko'z nuriga nisbatan



perpendikulyar holatda ushlab turamiz (bunda qalam kitobning pastki uch qirrasining eng quyi qismiga to'g'ri kelishi kerak). Ob'ektga bir ko'zimizni yumib qaraymiz va kitobning gorizont qirralarining yotqlik burchagini aniqlaymiz. Bu burchaklarni rasmda ifodalash uchun qalam o'rniga A V gorizont to'g'ri chiziq chiziladi, kitob qirralarining o'rniga esa – K nuqtadan boshlanuvchi yotiq to'g'ri chiziqlar chiziladi.

To'la hajmli jismlarni qog'ozga tushirishni o'rganish uchun avvalo geometrik shakllarning perspektiv tuzilishini o'rganib chiqish lozim. Quyidagi geometrik shakllar – kub, silindr, shar, prizma – boshqa shakllarni yasashda asos bo'lib xizmat qiluvchi eng oddiy shakllar bo'lib hisoblanadi. Eng murakkab jismlarning konstruksiyasi oddiy jismlarni uyg'unligi natijasida vujudga keladi. Sodda shakllar misolida jismlarning perspektiv tuzilishi qonunini osonlikcha o'zlashtirish mumkin. Oddiy geometrik shakllarni perspektiv qoida asosida chizishni to'la o'zlashtirish, tabiatdagi har qanday jismni hech qanday qiyinchiliklarsiz chizish imkonini beradi.

Uch o'lchamli jismni qog'ozda tasvirlash tamoyillarini egallash uchun, turli jismlarni bir necha bor gorizont chizig'iga nisbatan turli joylashtirib, shuningdek, rassomga nisbatan rasmlarni turli burchaklarda burib chizish muhim.

### Nazorat savollari

1. Tasviriy san'atda kompozitsiyaning o'rni haqida tushuncha bering.
2. Chiziqli konstruktiv qurish nima?
3. Konstruksiya nima?
4. O'zbek milliy Tasviriy san'atning portret janrida ijod qilgan eng mashhur rassomlarni keltiring.
5. Marina janri qanday janr?
6. Antik davr san'ati to'g'risida ma'lumot bering.
7. Jismlarni qisqarib ko'inishi qanday ataladi?
8. Ko'zdan balandda yoki pastda-tasviriy san'atning qanday qonuniga tegishli?

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdirasilov S., Tolipov N. Rangtasvir. -T.: Bilim, UMKXTM. 2005.
2. Abduraxmonov G'.M. Kompozitsiya asoslari – T.: "TDPU", 2008.
3. Baymetov B. Haykaltaroshlik va plastik anatomiya. – T.: "Iqtisod-moliya" 2007.
4. Baymetov B., Tolipov N., Abdirasilov S. Tasviriy san'at. Cho'lpon, -T.: 2006.
5. Baymetov B, S. Tolipov M, Azimov S. Plastik anatomiya. «Ilm ziyo», - T.: 2012 (4- qayta nashri).
6. S.L.Vitman. «Pedagogika v voprosax i otvetax», 2006g.
7. V.S.Kukushina. «Pedagogicheskie texnologii». Moskva: I.K.S. «MarT» Rostov na –Donu, 2004 g.
8. Boltabayevich, B. B. & Pardaboy, K. (2020). Scientific and theoretical aspects of the formation of compositional abilities of students in painting classes.

European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 8 (3), 93-96.

9. Botir Boltabaevich Baymetov, Khusan Kholmuratovich Muratov. [Self Sketches as a Tool in the Professional Training of a Future Artist-Teacher](#). Solid State Technology. 2020/2/29. [Vol. 63 № 2 \(2020\)](#). 224-231.

10. Boltabayevich, B. B., & Shodieva, B. O. (2020). Individual Approach To The Formation Of Artistic And Creative Talents Of Students In Art Schools. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 2(08), Website: [www.usajournalshub.com/index.php/tajssei](http://www.usajournalshub.com/index.php/tajssei) 637-642.

#### **4 mavzu. Yuqori malakali tasviriy san'at o'qituvchilari tayyorlashda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o'rni va ahamiyati. Tasviriy san'at rivojlanish tarixi va taraqqiyot bosqichlari.**

##### **Reja**

1. Intellektual o'qitish tizimi.
2. Tasviriy san'atning rivojlanish tarixi
3. O'zbekistonda tasviriy san'at taraqqiyot bosqichlari.

**Tayanch iboralar:** *Axborot makoni, intellektual o'qitish, animatsiya, audio matnlar, tasviriy san'atning tarixiy rivojlanish bosqichlari, Zaravutsoy, Chust, Dalvarzintepa, janr, uslub, klassika san'ati, renessans, antik davr, haykaltaroshlik, kartina qalamtasvir, format, oliy ta'lim, rassomlik san'ati.*

##### **1. Intellektual o'qitish tizimi.**

Intellektual o'qitish tizimi axborot va kommunikatsiya texnologiyalari asosida oliy kasbiy ta'limni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan, talabalarining mustaqil ta'limi olish ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiluvchi ma'lumotlarni uzatish vositalari, axborot ashyolari, o'zaro aloqalar qaydnomalari, dasturiy va tashkiliy-metodik ta'minotlarning tizimli-tashkiliy majmuidir. Intellektual o'qitish tizimi ta'limning ochiqligini ta'minlovchi quyidagi tamoyillar asosida shakllantiriladi: - ta'lim oluvchilarni qabul qilishning ochiqligi; - ta'limni ochiq rejalaigirish, ya'ni, ta'lim yo'nalishi va unga mos o'quv rejasi doirasida ta'lim olishning individual traektoriyasini tuzish erkinligi; - ta'lim vaqti va sur'atlarining erkin tanlanishi, ya'ni, talabalarni intellektual o'qitish tizimiga qabul qilishning butun yil davomida amalga oshirilishi hamda ta'lim olish uchun muddatlarning qat'iy belgilanmaganligi; - ta'lim o'rnining erkin tanlanishi, ya'ni, ta'lim davrining asosiy qismida talabalar bevosita o'quv auditoriyalarida bo'lmaydilar hamda qaerda ta'lim olishni musgaqil belgilaydilar. - yetakchi professor-o'qituvchilar kasbiy salohiyatiga tayangan holda ta'lim sifatini oshirish; - talabalar uchun uzluksiz ta'lim olish imkoniyatini yaratish. Intellektual o'qitish tizimi quyidagi bloklardan iborat bo'lishi taklif etilmoqda:

- I. Talabaga qo'yiladigan talablar.



II. Tizimga kirish uchun ro'yxatdan o'tish. I

II. O'quv fanlari.

IV. O'zlashtirish monitoringi.

V. Yakuniy attestatsiya.

VI. Mutaxassisga qo'yiladigan talablar.

I. Talabaga qo'yiladigan talablar bloki intellektual o'qitish tizimiga kiritiladigan o'quv materiallarini ishlab chiqishni standartlashtirish hamda talabalar bilim darajasi monitoringi mezonlarini ishlab chiqish maqsadlariga xizmat qiladi. Ushbu blok talabaning tizimiga kirishiga qadar ega bo'lishi talab etiladigan kasbiy va shaxsiy sifatlarni belgilab beradi.

II. Intellektual o'qitish tizimidan foydalanish uchun talabada dastlab belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tishi talab etiladi. Taklif etilayotgan tizim oliy ta'lim muassasalari talablari uchun mo'ljallangan. Ushbu blokda ta'lim yo'nalishlari ro'yxati va ularga tegishli o'quv rejalari taqdim etilib, ushbu ma'lumotlar asosida talaba o'zi uchun zarur yo'nalishni belgilab olishiga sharoit yaratiladi. Zarur yo'nalishni tanlagan talaba intellektual o'qitish tizimi kirish uchun talab etiladigan shaxsiy ma'lumotlarni belgilangan tartibda kiritib, tizimga kirish uchun o'zining shaxsiy logini va paroliga ega bo'ladi. Ushbu login orqali talaba intellektual o'qitish tizimi yordamada tahsil olishni istagan vaqtda to'xtatib turishi, o'ziga ma'qul bo'lgan vaqtda qayta tashrif buyurishi va dasturni o'zlaigirishda davom etishi mumkin. Ro'yxatdan o'tishda talabaning shaxsiy ma'lumotlari, tayanch ma'lumotlari hamda aloqa bog'lash uchun ma'lumotlar qayd etiladi. Shundan so'ng, intellektual o'qitish tizimi bilan yaqindan ganishish uchun talaba e'tiboriga ko'p beriladigan savollar va ularning javoblari taqdim etiladi. Tizim bilan tanishishning mazkur tar- tibi zamonaviy axborot tizimlarida keng tarqalgan bo'lib, u foydalanuvchini eng zarur bilimlar bilan qiziqarli taxlitda tanishtirish imkonini beradi. Tizimga kirgan talaba, o'zi tanlagan o'quv rejadagi fanlar asosida, o'z qiziqishlari hamda intellektual imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda fanlarni o'zlaigirishning shaxsiy traektoriyasini tanlash imkoniyati yaratiladi. Bu borada talabaning ko'maklashish maqsadida intellektual o'qitish tizimida talabaga eng ko'p tanlanadigan ta'lim traektoriyalari ro'yxati hamda shablon traektoriyalar taklif etiladi.

III. O'quv fanlari bloki modulli ta'lim prinsiplariga asosan ishlab chiqilgan bo'lib, u nazariy mashg'ulotlar, amaliy mashg'ulotlar hamda elektron maslahat berish tizimini o'z ichiga oladi. Nazariy mashg'ulotlar tizimi talaba tomonidan nazariy bilimlarni egallash, to'ldirish, rivojlantirish hamda tizimlashtirishga qaratilgan bo'lib, unda o'quv daspuriga mos ravishda matnli, audio va video materiallar hamda animatsion leksiyalar berib boriladi. Leksiya mappulotlari real hamda noreal vaqt tartibida tashkil etilishi mumkin.

1. Matnli materiallar. Nazariy mashg'ulotlarni tashkil etishning matnli ma'ruza qismi eng salmoqli o'rinni egallaydi. Odatda, o'quv dasguriga kiruvchi barcha materiallar matnli shaklda yaratilib, shundan so'ng ularga qo'shimcha ravishda audio hamda video materiallar ishlab chiqiladi. O'quv materialining bu taxlitda taqdim etilishi an'anaviy leksiyalarning bir qator kamchiliklar (zarur o'rinlarni ko'chirib olish, qayd qilish, ma'ruzachi tomonidan uni qayta-qayta





takrorlashga ortiqcha vaqt sarflanishi)ni bartaraf etilishini ta'minlaydi. Leksiya matnida zarur ta'kidlashlarning rang, harflar shakli hamda illyustratsiyalar orqali berilishi esa u orqali hissiyotlarni uzatilishini ta'minlaydi.

2. Audio materiallar. Bu turdagi materiallar ikki rejim orqali tarqatiladi. On-line rejimidagi audiomateriallar kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib tarqatiladi. Audiomateriallar telekommunikatsiya qurilmalariga yuqori talab qo'yimasligi, pedagog va talabalarda turli jismoniy holatlarni sezdirmasligi bilan ajralib turadi. Off-line rejimidagi audiomateriallar audiokassetalar, audiodisklar, fayllarga yozilgan holda tarmoq texnologiyalari orqali tarqatiladi. Talabalar tomonidan ma'ruzalarni eshitish ham shu kabi qulay va ixcham bo'lgan audio qurilmalar orqali amalga oshiriladi.

3. Video materiallar. Bunday materiallar ham On-line va Offline rejimlari orqali tarqatiladi. On-line rejimida video materiallar to'g'ridan-to'g'ri uzatilganligi uni deyarli an'anaviy ma'ruzadan farqini qoldirmaydi. Bunda pedagog va talabalar bir-birini real vaqtda ko'rib va eshitib turishi ular orasidagi masofaviy oraliqni yo'q bo'lishiga olib keladi. Bu texnologiya pedagog va talabaning bevosita muloqoti asosida tashkil etilishi bilan ajralib turadi. Off-line rejimida video materiallar videokassetlar va diskarga yozib olinib tarqatiladi. Bunday video materiallar tarkibiga ma'ruza, mavzuga ta'luqli ilmiy videomateriallar, shu sohaning yetuk mutaxassislari bilan uchrashuv videolavhalari kiritiladi. Bunday video materiallardan foydalanish ixtiyoriy joyda va vaqtda, takror va takror bajarilishi mumkin.

4. Animatsion ma'ruzalar. Bunday ma'ruzalar talabalarga interaktiv tuzilishga ega bo'lgan o'rgatuvchi kompyuter dasturlari orqali yetkaziladi. Animatsion ma'ruzalar multimedia texnologiyasidan foydalanib, shunday shakllantirildiki, bunda har bir talaba o'zining psixofiziologik xususiyatidan kelib chiqib, bu turdagi ma'ruzada o'z traektoriyasi, o'zlashtirish sur'ati, o'rganish usullari tanlaydi. Amaliy mashg'ulotlar kompyuter texnologiyalarining eng so'nggi zamonaviy yutuqlarini mujassamlashtiruvchi trenajerlar, virtual reallik asosida o'qitish vositalari, ekspert o'rgatuvchi tizimlarga asoslanadi. Intellektual o'qitish tizimida trenajyorlar talabaning aqliy va mehnat operatsiyalarini sun'iy ravishda imitatsiyalash asosida o'zlashtirishi asosiga quriladi. Virtual reallik ta'lim muhitini ideallashtirish asosiga qurilib, u bo'lajak mutaxassislar kasbiy tayyorgarligini jadallashtirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish imkonini beradi. Jumladan, pedagog kadrlar tayyorlash, ijtimoiy va texnologik jarayonlarni boshqarish, tibbiyot sohasida mutaxassislar tayyorlashda virtual reallik asosida ta'limni tashkil etish keng istiqbollar yaratadi. Ekspert o'rgatuvchi tizimi intellektual o'qitish tizimining xususiy holi bo'lib, uning qo'llanishi bilimlar va ma'lumotlar banki asosida tegishli faoliyat sohasining yetuk mutaxassis o'rinini bosa oluvchi funksiyalarni mujassamlashtiradi. Ushbu tizim talaba bilim darajasini aniqlash va rivojlantirib borish ta'lim jarayonini tashkillashtirishni ko'zda tutadi. O'quv fanlari dasturini o'zlashtirish modulli ta'lim prinsiplari asosiga qurilganligi sababli, uni mustaqil o'zlashtirishda talabada mutnazam ravishda qo'shimcha manbalarga murojaat qilish ehtiyoji yuzaga keladi. Bu boradagi ehtiyojlarni qondirish maqsadida intellektual o'qitish tizimida ON LINE va OG'G' LINE



rejimidagi maslahatlar, javobni tayanch so'z bo'yicha qidirish hamda bilimlar bankidan tarkib topgan elektron maslahat bloki ko'zda tutilgan. ON LINE rejimida maslahat. Bu turdagi maslahatlar chat texnologiyasidan foydalanib amalga oshiriladi. Pedagog maslahatlar beriladigan vaqt haqida avvaldan elektron pochta orqali talabalarga xabar beradi. Bunday maslahatlar quyida keltirilgan hollarda amalga oshiriladi: - o'zlashtirilishi murakkab bo'lgan mavzular; - amaliy mashg'ulotlarni bajarishda kutilmaganda yuzaga keladigan savollarga javob berishda; - yangi materiallarni taqdim etishda; - mutaxassislar bilan uchrashishda. Intellektual o'qitish tizimida elektron maslahatchidan foydalanishda talaba dastlab tezkor javob olish uchun ON LINE rejimida maslahat oladi, agar ushbu javob uni qoniqtirmasa, yoki tegishli javobni topa olmasa u OFF LINE rejimida yuqori malakali mutaxassisdan maslahat olishi mumkin. OFF LINE rejimida maslahat. Bunday maslahatlar forumlar va elektron pochtdan foydalangan holda o'tkaziladi. OG'G' LINE rejimidagi maslahatlar mavzularga doir qo'shimcha materiallar berishda, amaliy mashg'ulotlarni bajarishda yuzaga kelgan muammolarni tahlil qilishda, turli mavzudagi yangiliklarni tarqatishda foydalaniladi. Javobni tayanch so'z bo'yicha qidirish ulkan axborotlar hajmidan zarur tushunchani tez va oson topish imkonini beradi. U elektron maslahatchidan foydalanishning dasglabki bosqich sifatida qo'llanishi mumkin. Bilimlar banki - o'z tarkibiga axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanib, o'quv darsliklar, qo'llanmalar, kompyuter multimediali o'rgatuvchi tizimlar, audio va video o'quv-axborot materiallari, lug'at va ma'lumotnomalarni elektron versiyalarini mujassamlashtiradi. Bunday elektron resurslar majmuasi bir qator afzalliklarga ega: elektron resurslardagi ma'lumotlarni tez qidirib topish, ularni sistemali joylashuvi, materiallarni ko'rgazmaliligi, keltirilgan materiallar doirasini kengligi va qo'shimcha ma'lumotlarga bo'lgan murojat mavjudligi, materiallarni ixchamligi, materiallarni yetkazish usulini osonligi va tezligini yuqoriligi kabilar.

IV. O'zdashtirish monitoringi b'doki talabalar tayyorgarlik sifatining mutaxassislik davlat ta'lim standarti talablariga murofiqlitni kompyuter texnologiyalari asosida aniqlash imkoniyatini yaratadi. Shuningdek, olingan natijalar talabalarining o'zlashtirish darajasini baholashda foydalanilishi mumkin. O'zlashtirishni baholash natijalarini tegishli parol asosida talaba va tizim adminstratori olishi mumkin. Ushbu blokda o'zlashtirishni nazorat qilish asosan tesg savollari asosida tashkil etilib, olingan natijalar 100 ballik tizimda baholanadi. Taklif etilayotgan intellektual o'qitish tizimida fanlarni o'zlashtirishda minimal 55 ball, yakuniy attestatsiyani topshirish uchun fanlardan o'rtacha o'zlashtirish darajasi minimal 70 ballni tashkil qilishi talab etiladi. Talab etilgan o'zlashtirish darajasiga erisha olmagan talaba o'quv fanlari blokiga murojaat qilib, test savollariga qaytadan javob berishi mumkin bo'ladi. Talabalarining o'zlashtirish natijalari axborot-tahliliy karta shaklida rasmiylashtirilib, u ta'lim muassasasida kadrlar tayyorlash sifatini oshirish borasida qarorlar qabul qilishda hamda talabaning tegishli fan bo'yicha mustaqil ta'lim uchun ballarni belgilashda qo'llanilishi mumkin. Fanlardan test sinovlari on-line rejimida o'tkazilib, talaba tegishli javoblarni belgilab, sinovni tugallaganligini ma'lum qilgan vaqtning o'zida natijalar bilan tanishishi mumkin bo'ladi. Har bir fan bo'yicha o'zlashtirish



natijalari umumlashtirilib, avtomatik ravishda talaba reytingi tuzib boriladi. Intelleyual o'qitish tizimida olingan o'zlashtirish monitoringi natijalari ta'lim muassasasining quyidagi bo'linmalari foydalanilishi mumkin: rektorat (ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklar bo'yicha o'zlashtirishni qiyosiy o'rganishga qaratilgan tabaqalashtirish diagrammalarini tuzish; Davlat ta'lim standarti talablariga nisbatan o'zlashtirish ko'rsatkichlarini boshqa ta'lim muassasalari bilan qiyosiy o'rganish); dekanatlar (alohida ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklar o'quv rejalaridagi fanlar bloklari bo'iicha o'zlashtirishni Davlat ta'lim standarti talablariga hamda boshqa fakultetlar ko'rsatkichlariga nisbatan tahlil qilish); kafedrlar (tegishli ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklar o'quv rejalaridagi o'quv fanlarini o'zlashtirish darajasini tahlil qilish, alohida olingan akadem guruhlar o'zlashtirish diagrammalarini tuzish); professor-o'qituvchilar (talabalarning fanni o'zlashtirish darajasini hamda alohida olingan didaktik birliklarni o'zlashtirishni Davlat ta'lim standarti talablariga nisbatan tahlil qilish); talabalar (guruhdagi reyting ko'rsatkichi; o'z o'zlashtirishini Davlat ta'lim standarti talablariga nisbatan tahlil qilish)

V. Yakuniy attestatsiya bloki talabani intellektual ta'limi tizimida olgan bilimlarini umumlashtirgan holda baholash hamda uning tegishli bilim darajasini qayd etishga mo'ljallangan. Attestatsiya test savollari hamda vaziyatli topshiriqlar asosida tashkil etilib, olingan natijalar 70 balldan yuqori bo'lgan holda talaba tegishli sertifikat bilan taqdirlanadi.

VI. Mutaxassisga qo'yiladigan talablar bloki tegishli mutaxassislikka Davlat ta'lim standartida belgilangan talablar, kasb egasiga qo'yiladigan shaxsiy va kasbiy sifatlarning shakllanganlik darajasi tavsifidan iborat bo'ladi. U mutaxassis kadrlar tayyorlashning o'ziga xos modeli shaklida yoritilib, undan kelib chiqqan holda intellektual o'qitish tizimida tahsrn olgan talaba o'z-o'zini baholash va qiyoslash asosida kelajakdagi kasbiy karerasi hamda o'zo'zini tarbiyalash dasturini ishlab chiqishi mumkin.

### **2. Tasviriy san'atning rivojlanish tarixi**

Tasvirlashga nisbatan bo'lgan qiziqish insonlarni qadimdan o'ziga jalb etib kelgan. Chunki u ibtidoiy davr odamlariga o'zaro muloqot qilish, so'zlashish uchun zarur bo'lgan. Tarixdan ma'lumki, tasvirlarning aksariyati ovchilik bilan shug'ullanib kelgan qadimgi odamlarning hayvonlarni qanday ov qilganliklariga asoslangan. Ular hayvonlarning yurgan yo'llarini kuzatib, qoya va g'orlarda turli tasvir va belgilar qoldirganlar. Vaqt o'tishi bilan ularning tasvirlash qobiliyatlari rivojlanishi natijasida keyinchalik har xil ov manzaralari o'ziga hos dastlabki kompozitsiya yechimiga ega tarzda aks eta boshlagan.



**Zaravut-Soy** (Surxondaryo) g'oridan topilgan jahon e'tiboriga molik ushbu tasvirda odamlarning yevvoyi buqaga tosh va nayzalar otib, so'ngra uni tikka qoyadan pastga tushirib yuborish sahnasi tasvirlangan (2 rasm). Tasvirlarning juda sodda bo'lishiga qaramasdan aytish mumkinki, ulardagi hayotiylik, naturaga nisbatan bo'lgan kuzatuvchanlik holatlari kishini lol qoldiradi. Ushbu tasvir qadimgi tosh asri (mezolit)ga tegishlidir.

1957 yili **Xo'jakentda** (Toshkent viloyati, Bo'stonliq tumani) topilgan toshga o'yib ishlangan bug'u tasviri ham diqqatga sazovordir (3 rasm). Uning o'lchami bug'uning haqiqiy kattaligiga yaqin bo'lib, 1,9 metrni tashkil etadi. Shu yerda topilgan yevvoyi buka rasmi ham tasvirlanishi jihatidan siluet shaklida bo'lib, toshning bo'rtiqqligi (relefi) hisobga olinib ishlangan (4 rasm). Bu ikki tasvir so'nggi paleolit davriga tegishlidir.




Eramizdan avvalgi III-II asrlarga mansub kulolchilik buyumlari hamda devorlarga ishlangan rasmlarda (Chust, Dalvarzintepa) asosan osmon, er, quyosh, suv, odam va hayvonlarning tasvirlarini ko'rish mumkin.

Ibtidoiy davr odamlari qoya va toshlarga ko'mir bilan turli tasvirlarni tushirib, so'ngra ular ustidan o'tkir toshni yurg'izib chiqqanlar. Keyin esa tasvirlarni pushti rang bilan bo'yaganlar. Uni ta'kidlash lozimki, aksariyat tasvirlar afsonaviy va turli marosimlar asosida ishlangan (ritual) xarakterga ega rasmlar bo'lib, insonlarning o'sha davrdagi dunyoqarashlarining dastlabki ko'rinishlarini o'zida mujassamlashtirgan.

Keyinchalik shular asosida yozish paydo bo'la boshladi va rivojlana bordi. Avvaliga piktografik (tasviriy), so'ngra ideografik, ya'ni har bir belgi so'z ma'nosini anglatuvchi shakl, undan keyin esa dastlabki harflardan iborat yozuvlar paydo bo'la boshladi.

Odamlar tasvirlash borasidagi dastlabki malakalarni tabiatni bevosita kuzatish va unga tahlil qilish yo'li orqali egallaganlar. Tasvirlashga o'rgatish paleolit davrida ham rivojlanmagan edi. Faqatgina keyinchalik neolit davriga kelib dehqonchilik va hunarmandchilikning boshlang'ich bosqichida insonning mehnat qilishi natijasidagina sa'natga bo'lgan qiziqish yanada rivojlana bordi.

Rasm chizishga nisbatan ishtiyoq insonlarning kundalik hayotda ishlatiladigan buyumlarni bezash orqali rivojlandi. Eng avvalo sopol idishlarga turli naqsh va tasvirlar tushirish paydo bo'la boshladi. Shu tariqa tasvirlar ishlashning dastlabki



metodlari ham yuzaga keldi. Endi shogird hunarmand-ustozining tasvirlarini qanday ishlashini kuzatib unda yo'l-yo'riqlar o'rganar edi. Chunki shogirdning ustoz ko'rsatmalariga rioya qilishi keyinchalik shu hunarning davom ettirishda muhim o'rin tutgan edi.

Shunday qilib tasvir bajarishni o'rgatishning dastlabki usullari paydo bo'ldi. Lekin, ushbu dastlabki metodlar aniq ishlab chiqilgan, yo'l-yo'riqlar va tamoyillarga asoslanmagan edi. Tasviriy san'atga o'rgatish, hamda maktablar tashkil etish ancha keyin boshlangan.

Tasviriy san'atga o'rgatish metodlari to'g'risida gap borganda dastavval Qadimgi Misrning yuksak rivojlangan madaniyatini misol qilib ko'rsatish mumkin. Tarixiy manbalarda yozilishicha Qadimgi Misr maktablarida turli fanlar qatori rasm chizish ham keng o'rgatilgan. Maktabni tugatgan o'spirin xona ichki ko'rinishini tasvirlay

olishi, katta maydon chizmasini chizib, uning o'lchamlarini qo'ya bilishi, suv inshootlari tasvirini chizib bilishi shart bo'lgan. Tasviriy san'at metodlarini maktablarda o'rgatilishini biz dastlab Qadimgi Misrliklar faoliyatida ko'rishimiz mumkin.

Shuni ta'kidlash lozimki, Misrliklar rasm chizish va uning nazariy qonunlariga asos solganlar. O'sha davr maktablarida yoshlarga ta'lim berishning aniq ishlab chiqilgan didaktik tamoyillari bo'lmagan. Eshlarga rasm chizishni o'rgatish naturani kuzatish, tahlil etish, atrof tabiatdagi voqea va hodisalarni kuzatish orqali emas, balki oldindan ishlab chiqilgan andozalar olib borilgan.

Misrliklardan farqli o'laroq Qadimgi Yunon rassomlari tasviriy san'atni o'qitish borasida ta'lim-tarbiyaga o'zgacha yondoshib, uni tubdan boyitdilar. Ular yosh rassomlarni ko'proq tabiatni o'rganishga va uning ajralmas bo'laklaridan biri bo'lgan inson go'zalligini yuksak darajada tasvirlashga chaqirganlar. Parassiy, Evpomp, Pamfil, Appeleks va boshqa rassomlar o'zlarining nazariy asarlarida dunyodagi barcha narsa va buyumlar simmetrik, garmonik hamda matematik jihatdan o'lchamlarga ega ekanligi haqida yozadilar. Jumladan eramizdan avvalgi 432 yilda yashab ijod etgan haykaltarosh Poliklet odam tana bo'laklarining bir-biriga nisbatlari haqida yozib, uning isboti sifatida «*Dorifor*» ma'budasini yaratgan. Keyinchalik rasm chizishni o'rganayotgan yoshlarga Poliklet yaratgan haykallardan birini o'ziga qarab tasvirlash majburiy ravishda ta'lim tizimiga kiritilganini ko'ramiz<sup>5</sup>.

Eramizdan avvalgi IV asrga kelib qadimgi Yunonistonda Sikkion, Efess, Fivan kabi o'sha davrdagi mashhur rassomlar maktablari vujudga

keldi. Shulardan eng ko'zga ko'ringani Sikkaon maktabi bo'lib, u nafaqat rasm chizish metodlarini takomillashtirishga, balki umuman tasviriy san'atning rivojlanishiga katta hissa qo'shdi hamda yoshlarga tasviriy san'atni o'rgatish orqali go'zal tabiatni sevishtga, uning qonuniyatlarini ilmiy jihatdan o'rganishga e'tibor qaratdi.



Tasvirlash jarayonida yoshlar tabiatni kuzatish bilan bir qatorda mavjud narsalarning tuzilish xususiyatlarini ham o'rgandilar. Shuning uchun Sikkion maktabining asoschilaridan biri Pamfil rasm chizishni fan sifatida barcha o'quv dargohlariga kiritilishini yo'lga qo'ygan. U tasviriy san'atga ilmiy nuqtai nazardan qarashni birinchilardan bo'lib oldinga surdi. Tasviriy san'atning asosi bo'lgan

qalamtasvirga yuksak baho berarkan «*Qalamtasvir ishlashda yuqori darajada aniqlikva ilmiy asos bulishi kerak*» deb hisoblardi.

Ko'rib turibmizki, Pamfil tasviriy san'atni, xususan, qalamtasvir bo'yicha yoshlarga saboq berishning ilmiy asoslangan, nazariy va ilmiy metodikasini ishlab chiqdi. Uning metodikasi asosida saboq olish yoshlardan nazariy bilimlarni egallashni va ko'plab amaliy mashqlar bajarishni talab etardi. Bu yerda to'liq o'qish davri o'n ikki yil davom etgan.

<sup>5</sup> *Portrait of a Woman* marble, flavones period Capitoline Museums, Rome esigned by :Baseline Co Ltd127-129A Nguyen Hue Fiditourist 3 Floor District 1, Ho Chi Minh City. Vietnam. 16 p.



Qadimgi Yunon mo'yqalam ustalari o'z o'quvchilariga tabiatni ko'proq kuzatib idroklashni, uning beqiyos va takrorlanmas go'zalliklaridan lazzatlanishni o'rgatar edilar. Yana shuni ta'kidlash o'rinliki, yunon rassomlari narsa va buyumlarni o'ziga qarab haqqoniy tasvirlashga birinchi bo'lib asos solganlar. Rasm chizishning barcha maktablarda fan sifatida kiritilishi haqqoniy tasvirlash asoslarini yoshlarga urgatishda ular tarbiyasiga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatdi.

Qadimgi Rim davri san'atkorlari Yunon rassomlari erishgan yutuqlarni davom ettirgan holda tasviriy san'at sohasida ulkan muvaffaqiyatlarga erishdilar. O'sha davrning boy kishilari san'at asari namunalarini yig'ib, keng ommaga namoyish qilishni odat qilganlar. Ayniqsa bu hol Sezar hukumronligi davrida ko'proq amalga oshirilgan. Lekin, Yunonlik san'atkorlardan farqli o'laroq, Rim rassomlari tasviriy san'atni o'qitish tizimiga hech bir yangilik kiritmadilar. Rim imperiyasi rassom-o'qituvchisi badiiy ijod muammolari bilan shug'ullanmas edi. Asosan o'qitish tizimida Yunon rassomlari yaratgan namunalarga esa rassom-ijodkor sifatida emas, hunarmand nuqtai nazardan nusxa ko'chirish, yunon rassom-pedagoglari ishlab chiqqan o'qitishning ilmiy asoslangan uslublaridan voz kechish oxir-oqibatda tasviriy san'atning rivojlanishiga to'sqinlik qildi.

Bu vaqtga kelib tasviriy san'at darslari umum ta'lim fani sifatida o'qitish tizimidan olib tashlandi. Oqibatda o'qitishning aniq ishlab chiqilgan nazariy va metodik tizimi yo'q bo'la boshladi. Keyinchalik bu murakkab va ma'suliyatli vazifalar uyg'onish davri rassom-ijodkorlari tomonidan bajarildi.

Uyg'onish davri tasviriy san'atning rivojlanishida yangi davrni ochdi. Rasm chizish nazariyasi sohasida rassomlar yangicha metodlarni ishlab chiqib boshladilar. Salkam ming yillik turg'unlikdan so'ng, ilmiy bilimlar va san'atni rivojlantirish muammolariga bo'lgan qiziqish yana qaror topdi.

Tasviriy san'at xususan qalamtasvir bajarishning yangi metodlari bo'yicha Chennini, Alberti, Lenardo da Vinchi, Dyurer kabi ko'plab buyuk san'atkorlar shug'ullana boshladilar. Ular tasviriy san'at sohasida ilmiy izlanishlar tabiat qonunlaridan kelib chiqadi deb qaraydilar.

Rasm chizishga nisbatan ko'p bo'lmagan 4-6 o'quvchidan iborat guruhlar tashkil qilinib, ular usta rassomlar ustaxonalarida taxsil olar edilar. Qalamda tasvirlash kompozitsiya bilan chambarchas bog'liq holda olib borilardi. Usta rassom qanday qilib qalamchizgi bajarish, keyin uni materialda ishlash hamda karton (xomaki rasm) tayyorlashgacha bo'lgan barcha bosqislarni o'rgatar edi.

Qalamtasvir, me'morchilik, haykaltaroshlik, rangtasvirning haqiqiy asosi sifatida tan olinar edi. Shuning uchun ham uyg'onish davri buyuk rassomlari rasm chizish metodlariga katta e'tibor berganlar.

Chennini Chennino «**Rangtasvir qonuniyatlari**» nomli asarida qalamtasvir bajarish metodlariga katta e'tibor berib, uning zaminida narsaning o'ziga qarab tasvirlash mashqlari yetardi deb yozgan edi. Uning ta'kidlashicha yuksak maxoratga ega bulish uchun shogird xar kuni bir necha soat rasm chizishi kerak edi.


Florensiyalik me'mor – Leon Vatista Alberti ham qalamtasvir va uni o'qitish metodlariga katta e'tibor beradi. Xususan uning «**Rangtasvir to'g'risida uch kitob**» nomli mashhur asarlar to'plamida yozishicha, ranglar bilan ishlashni

o'rganishdan zarurligini aytadi. Uning ushbu asari 500 yil avval yozilganiga qaramasdan, qonuniyatlari, xulosalari, hozirgi zamon akademik rasm chizish metodlariga to'la-to'kis mos keladi. Alberti rasm chizishga jiddiy ilmiy fan sifatida qarar edi.

Rasm chizish metodlarini takomillashtirishga buyuk Leonardo da Vinchi ham o'z xissasini qo'shdi. Uning «**Rangtasvir xaqidagi kitobi**»da olamning tuzilishi, tabiatdagi o'zgarishlar, xaykaltaroshlik chiziqli va fazo perspektivasi xaqida ko'plab ilmiy asoslangan fikrlarni ko'rish mumkin.

Alberti kabi Leonardo va Vinchi ham tasviriy san'atning asosi qalamtasvir deb hisoblab, narsaning o'ziga qarab tasvirlash o'qitishning zarur qismi ekanligini ta'kidlagan edi. Shuningdek tashqari Leonardo da Vinchi inson a'zolari tuzilishini vrach-anatom kabi yuksak darajada o'qib o'rgangan. Insonning har bir muskul va to'qimalarini o'rganib, ularning tasvirlarini chizib qoldirgan. Uygonish davrining usta rassomlari orasida qalamtasvir bajarish metodlarini takomillashtirish muammolari bilan shug'ullanganlardan yana biri nemis rassomi Albrect Dyurer va Shonlardir.

Ular tasvirlashda perspektivaning asosiy qonun-qoidalari ustida ko'plab tajriba sinovlar o'tkazganlar. Rassom-olimlarning diqqatiga sazavor ishlardan yana biri inson qomatining nisbatlarini ishlab chiqish va uni kesik shakllar orqali aks ettirish metodini ishlab chiqqanligidir.



Uyg'onish davri rassomlari jahon tasviriy san'atning rivojlanishiga ulkan hissa qo'shdilar. Ularning tasviriy san'at bo'yicha ishlab chiqqan perspektiva qonunlari keyinchalik ijodkor rassomlarga misli qurilmagan darajada yordam berdi. Agar o'rta asrlarda tasvirlash metodikasi buyumlar shaklu shamoyilining o'xshashligini e'tiborga olgan holda bajarilgan bo'lsa, endi bu davr tasviriy san'ati ilmiy asoslangan, anatomiya qonunlarini chuqur o'rganish, perspektiva qoidalari to'la to'kis hisobga olib aks ettirgan holda tasvirlash metodlari rivojlangan davr bo'ldi. Yuqorida ta'kidlanganidek Uygonish davri rassomlari rasm chizish





metodikasiga katta xissa qo'shdilar va qalamtasvirni fan sifatida rivojlanishiga asos soldilar. Lekin, ular o'qitishning didaktik negizlariga kam e'tibor berdilar. Bu muhim vazifani XVI asrning oxiriga kelib turli davlatlarda tashkil etilgan badiiy Akademiyalar davom ettirib, hal eta boshladilar.

XVII asr tasviriy san'atni o'qitish metodikasi qalamtasvirning fan sifatida to'la-to'kis uning akademik tarzda davom ettishi uchun zamin yaratdi. Akademik qalamtasvirning pedagogik amaliyotda o'qitishning tizimi dastlab Florensiyadagi «Qalamtasvir akademiyasida» ishlab chiqildi. Aka-uka Karrachilir tomonidan tashkil etilgan Boloniyadagi yosh musavvirlarga quyidagi usulda saboq berganlar. Yoshlar dastlab qalamtasvir chizish metodlari, qonun-qoidalari bilan tanishganlar, so'ngra gips namunalari tasvirlaganlar, shundan keyin inson qiyofasini o'ziga qarab rasmini chizganlar. Bu mashg'ulotlarda u insonning anatomik tuzilishlarini ham chuqur o'rganish imkoniyatiga ega bo'lganlar.

Boloniya akademiyasida o'z davrida yoshlarga badiiy ta'lim berish borasida eng maqbul va namunali oliy o'quv dargohi hisoblanganligi tufayli uning metodikasini davom ettirib 1648 yilda Parij qalamtasvir va haykaltaroshlik bo'yicha qirollik Akademiyasi, 1660 yili Rimda badiiy Akademiya, 1696 yili Berlinda, 1753 yili Madridda San-Fernando, 1757 yili Peterburg Akademiyasi, 1768 yili London badiiy Akademiyasi tashkil etilgan.

Shuni ta'kidlash lozimki, davlat tomonidan tashkil etilgan Akademiyalar bilan bir qatorda xususiy san'at maktablari ham mavjud edi. O'quv adabiyotlari ustaxonalar bilan to'liq ta'minlangan maktablardan biri taniqli Flamand rassomi Rubensning xususiy maktabidir. Rubens o'z zamonasining yirik namoyondasi edi. U buyuk rangtasvir, qalamtasvir ustasi bo'libgina qolmay, balki san'at asarlarini yuksak qadrlay biladigan olim-tadqiqotchi, davlat va jamoat arbobi hamda shogirdlarning mexribon ustози bo'lgan. U yuqori darajada ma'lumotli bo'lib, ingliz, ispan, fransuz, italyan, nemis tillarida yozish va sulashni mukammal bilgan. Antik davr san'atini chuqur, o'z shogirdlarida o'sha davrda yaratilgan xaykallarni to'g'ridan-to'g'ri ko'chirish emas, balki ushbu namunalarni aks ettirish orqali inson a'zolarini tasvirlashda ilmiy tomondan yondoshishga da'vat etgan.

XVII asrning ikkinchi yarmidan boshlab Fransiya badiiy maktablarining rivojlangan markaziga aylandi. Fransuz akademiyasi badiiy ta'lim tarbiya tizimiga ko'plab yangiliklar olib kirdi. Ayniqsa u yerda akademik qalamtasvir ishlash borasida talaygina metodik yangiliklar yaratilgani ma'lum.

Qalamtasvir va uning o'qitilish metodlarini rivojlantirishga mashhur Fransuz rangtasvir ustasi Lui David ham katta xissa qo'shdi. Tasvir bajarishda deb ta'kidlar edi, u xar bir bo'lak mukammal, aniq ishlanish, shu bilan bir qatorda ushbu qism yaxlit bir butunlikni tashkil etish lozim. Inson qomatini tasvirlashda avvalambor uning ichki tuzilishini skeletini, chukur o'rganib, tashki qiyofasini chizishga o'rgatar edi.<sup>6</sup>

Qalamtasvir o'qitish metodlarini rivojlantirishga aka-uka Aleksandr va Fernand Dyupyuilar ham katta xissa qo'shdilar. 1835 yil ular Parijda yosh rassom

<sup>6</sup> P.Tomas, A.Taylor Drawing London-2011 117-p



va xunarmandlar uchun bepul maktab ochib, shogirdlarga tasviriy san'at buyicha saboq berdilar. Diqqatga sazovor joyi shundaki, ushbu maktabda o'qitishning metodik bosqichlari o'ziga xosdir. Bu yerda boshqa san'at dargoxlaridan farqli o'larok eng murakkab bo'lgan inson komatini tasvirlashni mukammal urganib bulgandan keyin gips naksh namunalari chizishga utilgan.

Aka-uka Dyupyuilarning ta'kidlashicha, o'simliklardan tashkil etilgan naqsh bo'laklari tabiatning barcha eng murakkab shakllarini o'zida mujassamlashtirgan.

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab xususiy akademiyalar yanada ko'payib bordi. Ba'zi akademiyalar ko'p yillar davomida tajriba va sinovlardan o'tib, ta'lim berishda amaliy jixatdan to'plangan tajribalarni inkor etish asosida qurilgan edi. O'qituvchi professor o'zining xususiy maktabini targ'ibot etish maqsadida o'tmishda tashkil etilgan va mavjud akademiyalarni «Eskirib, bir yerda qotib qolgan» deb hisoblab, ko'p xollarda o'zlari yoshlarga xech qanday tizimga ega bo'lmagan usulda ta'lim berardilar.

Xususiy akademiyalarga 40-50 ga yaqin o'quvchilar taklif etilib, ularni na kurslarga va na guruxlarga bo'linmagan xolda mashg'ulotlar olib borilgan. Mashg'ulotlar quyidagicha tarzda olib borilar edi: Katta xonaning bir necha joyida natura qo'yilgan bo'lib, o'quvchilar hech bir yo'nalishga ega bo'lmagan xolda taxsil olar edilar. Dars davomida o'quvchilarga erkinlik berilib, ular xoxlagan naturaga qarab rasm chizar edilar. Ko'p xollarda u yoki bu vazifani bajarish uchun aniq maqsad ko'yilmasdi. Shuni ta'kidlash kerakki, xususiy tarzda tashkil etilgan akademiyalar orasida ham aniq yo'nalishlarga ega bo'lgan o'quv dargoxlari mavjud bo'lgan: Jumladan venger rassomi **Shimon Xolloshi** (1857-1919) va yugoslav pedagog - rassomi **Anton Ashbelar** (1862-1905) maktabi diqqatga sazavordir. Yaxshi yo'lga qo'yilgan metodik va o'ziga xos ravishda tuzilgan dasturlar asosida o'qitish tizimi ularni butun jaxonga mashxur qilgan bo'lib, ushbu maktabdan o'nlab iste'dodli rassomlar etishib chiqqanlar.

XIX asrning oxiriga kelib akademik tarzda o'qitish tizimi o'z yo'nalishi jixatidan yangi zamon talablariga javob bera olmay qoldi. Qisqa vaqt ichida turli badiiy oqimlar paydo bo'la boshladi. **Neomimressionizm, kubizm, ekspressionizm, dadizm, syurrealizm** va turli oqimlarning o'zaro ziddiyatlari o'qitish metodikasi, ayniqsa qalamtasvirning rivojlanishiga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatdi. San'atshunoslik akademik tarzda o'qitish tizimiga qarshi chikib bunday shaklda ta'lim tarbiya berish yoshlarning ijodiy rivojlanishiga to'sqinlik qiladi deb xisoblar edilar. Tarixdan ma'lumki o'sha davrda namoyish etilgan ko'rgazmalardagi badiiy asarlarning umumiy madaniyat saviyasi u yokda tursin, tasvirlashning oddiy qonun-qoidalariga ham e'tibor berilmaganligini ko'ramiz. XX asrning boshlariga kelib G'arbiy Yevropa va Amerika davlatlarining badiiy maktablari to'la inqirozga uchradi. Qalamtasvir ishlash uslublari ham keskin o'zgardi. Realistik tasviriy san'atdan farqli ravishda, naturani noizchil o'rganish, uning tuzilish qonun-qoidalarini yengil-yelpi tasvirlash oqibatida uzoq muddatli akademik qalamtasvirilar ishlash o'zni qoramalar bilan almashdi. Ba'zi rassom-pedagoglar esa o'z o'quvchilariga buyumlar shakllarini xoxlagancha buzib tasvirlashga ruxsat etdilar.



Bu xol sobik sovet tuzumi davridagi o'qitish tizimiga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Akademiyalarga antik davrga mansub gips xaykal namunalari yo'q qilindi, iqtidorli rassomlar tomonidan yaratilgan akademik ishlar barbod etildi. Natijada akademik rasm chizish mustaqil o'quv fani sifatida o'zining qadrini yo'qotdi. Mashg'ulotlar uzibilarchilik tarzida o'tkazildi. Tasvirlash uchun buyum va narsalarni (quyilmalarni) o'quvchilar pedagogsiz o'zlari xoxlagan tarzda tashkil etardilar. Vazifalar esa aniq maqsadga qaratilmasdan yengil yelpi bajarilar edi. Bu esa o'quvchilar bilan yakka tartibda ishlash imkonini bermas edi. 1939 yildan boshlab sobiq ittifoqning ko'pgina yirik shaxarlarining oliy ta'lim tizimida tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlash bo'limlari tashkil etildi. 1942 yildan boshlab esa ushbu bo'limlar badiiy grafika fakultetlariga aylantirildi. Ushbu o'quv dargohlarida tasviriy san'at mashg'ulotlari xususan qalamtasvir – akademik tarzda narsa va buyumlarni xaqqoniy qilib o'xshatib tasvirlash yo'lga qo'yilgani bilan e'tiborlidir. Buning natijasida yoshlarni turli xil formalistik oqimlarga kirib ketmasliklariga imkoniyat paydo buldi. 1947 yilda esa sobiq ittifok badiiy akademiyasi tashkil etildi. Uning usha yili qabul qilingan qarorlariga esa 1947-48 o'quv yilidan boshlab barcha badiiy - oliy o'quv dargohlari birinchi kurslarda gipsdan ishlangan antik davr bosh namunalari va odam portreti, ikkinchi kurslarda esa inson qomati va gips tors namunalari, uchinchi kurslarda inson qomatining turli murakkab qomatlarini tasvirlash, to'rtinchi beshinchi kurslarda esa 2-3 libossiz gavdaning qalamtasvirini uzoq muddatda akademik tasvirlash vazifalari belgilandi.

### **O'zbekistonda tasviriy san'atning o'qitilishi**

O'zbek halqi o'zining qadimgi tasviriy, amaliy, me'morchilik san'atlari va madaniyati bilan faxrlansa arziydi. Chunki, O'zbekiston xududida eramizdan avval ham tasviriy san'atning rangtasvir, xaykaltaroshlik turlari va me'morchilik nihoyatda rivojlangan bo'lib, ularning namunalari Varaxsha, Afrosiob, Xalchayon, Tuproq qal'a, Bolalik tepa, Ayrtom, Dalvarzin tepa, Fayoz tepa, Qo'yqirilgan qal'a, Ajina tepa, Teshik kal'a va boshqa bir qator joylardan topilgan. Yana shuni xdm qayd qilish lozimki, bu asarlar yeramizdan avvalgi 4-1-asrlarda yaratilgan bo'lib ularning yoshi 5-6 ming yilga to'g'ri keladi. Bu asarlarning badiiyligi hozirgi zamon rassomlari va haykaltaroshlarining asarlaridan qolishmaydi desak mubolag'a bo'lmaydi. Bunday yuksak badiiy saviyadagi asarlarni o'sha davrda to'plangan ilg'or tajriba, tasviriy san'at maktablarisiz yaratish mumkin emas. Ma'lumki, san'at bir necha avlodning ko'p yillar davomida shakllangan an'analari, ustaning shogirga o'tkazgan bilimlari asosidagina taraqqiy topadi. Bu esa so'zsiz umumiy badiiy ta'lim yo'nalishida bo'lmasa ham, kasbiy badiiy ta'lim shaklida rivojlanganligidan dalolat beradi. AmirTemur mustaqil davlattuzgan davrda tasviriy san'atning miniatyura turini gullab-yaishagani ham buning yaqqol dalilidir. Amir Temur davrida miniatyura vakitob grafikasi Shunchalik tez rivojlandiki, u na faqat Sharq, hattoki Yevropa Natijada, Samarkdnd, Buxoro, Xirot miniatyura maktablari bilan bir qatorda Bag'dod Tabriz, Sheroz, Ozarbayjon, Hind, Isfaxon, Turk miniatyura maktablarining ham shakllandi varivojlandi. Mazkur miniatyura maktablari rassomchilikdan kasbiy ta'lim tizimida rivojlangan.

Xususan, umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun tayyorlangan dasturlarda san'ashunoslik asoslari, rangtasvir va qalam ishlash, naturaga qarab tasvirlash,



borliqni idrok etish iimlari mavjud bo'lib, kasbiy badiiy va umumiy badiiy ta'limlari o'rtasiga qat'iy chegara qo'yib bo'lmaydi. Tasviriy nazariy asoslari hisoblangan rang, hajm, perspektiva komiozitsiya asoslari kabilar, ham kasbiy, ham umumiy ta'lim tizimida o'rganiladi. Faqat tasviriy san'atni o'qitilishida va bolalarning yoshlari, idroki, psixologik xususiyatlarm. Tarixda buyuk naqqosh va musavvir Kamoliddin Bexzodga Xiroflik Mirak naqqosh ustozlik qilgani, unga miniatyura rangtasviri sirlarini o'rgatgani haqida ma'lumotlar bor. Shuningdek, ustoz Mirak naqqoshning Xirot «Nigoristoni» (San'at akademiyasi) bo'lganligi va unda Komoliddin Behzod tarbiya olganligi ham ma'lum.

Professor Orif Usmonov o'zining «Kamoliddin Behzod va uning naqqoshlik maktabi» nomli kitobida Behzod Tabrizda yashagan vaqtda nafis tasviriy san'at maktabini yaratganini qayd qiladi. U yerda musavvir o'z atrofiga yeng iste'dodli yoshlarni to'plagan, ularga san'atining sir-asrorlarini o'rgatgani va Tabrizda Sulton Muhammad, Mirzo Amir, Og'o Mirak, Muzaffar Ali, Sulton Muhammad Nur, Shomhammad Nishopuriy, Yusuf Mullo, Mir Ali, Rizo Abbosiy, Mahmud Muzaxxib, Mavlono Yoriy, Xasan Bag'dodiy, Abdulla Sheroziy, Darvesh Muhammad, Mir Said Ali, Qosim Ali, Xeraviy singari o'nlab iste'dodli musavvirlarni tarbiyalagshshigini yozadi. Uning shogirdlari Behzodning tasviriy san'at uslubini davom yetirganlari ham rasmiy ma'lumotlardan ayon.

O'zbekistonda hozirgi zamon ta'lim tizimining paydo bo'lishi XX asrning birinchi choragiga to'g'ri keladi. Rossiyada Oktyabr inqilobi so'zsiz uning mustamlakasi hisbolangan Turkistonga ham katta ta'sir ko'rsatdi. Yangi tuzum o'zini ko'rsatish maqsadida e'tibordan chetda qolgan chorizimning mustamlaka o'lkalariga e'tibor qaratdi. Shu maqsadda u bir guruh fan va madaniyat vakillarini Turkistonga yubordi. Shulardan bir guruhi Sankt-Peterburg va Moskvalik rassomlar edilar. Ularning bir qismi ijodiy ish bilan shug'ullansalar, ayrimlari yoshlar badiiy ta'limiga o'z e'tiborlarini qaratdilar. Bu rassomlar Turkistonning yirik shaxarlarida badiiy studiyalar tashkil etdilar, o'z asarlarining ko'rgazmalarini o'tkazdilar.

1918 yilda Toshkentda badiiy kommuna ochiladi, bir yildan keyin Samarqandda Turkiston o'lka badiiy xalq maktabi ishga tushadi. 1920 yilda Andijonda rangtasvir maktabi, Yangi Buxoroda san'at to'garagi tashkil etildi, musulmonlar uchun tasviriy san'at kurslari ochildi. Bir yildan so'ng respublikada badiiy maktab va studiyalar soni 29 taga yetdi va unda shug'ullanuvchilar soni 500 kishidan oshib ketdi. 1921 yil kuzida ochilgan badiiy politexnikumda 170 o'quvchidan 150 tasi o'zbeklar edi.

1924 yilda Toshkent tasviriy san'at muzeyi qsshida badiiy studiya ochildi.

Rasm darslarining asosini naturaga qarab rasm ishlash, mavzu asosida rasm ishlash, dekorativ rasm ishlash, san'at xaqida suhbat o'tkazish mashg'ulotlari tashkil etdi. Bu dasturlarda o'lkashunoslik materi-allari ko'p bo'lmasada, har kalay o'z aksini topdi, eng muhimi bu dasturda darsdagi o'qituvchining yetakchilik roli katta ekanligi belgilab qo'yildi.

Mazkur nazariya yuzasidan Rossiyada ham, Yevropada ham katta tortishuv va tanqidiy fikrlar bildirirdi. U badiiy tarbiya sohasida ham salbiy, ham ijobiy rol



o'inadi. Uning salbiy tomoni bolalar ijodiga rahbarlikni inkor etilishi va pedagogika nazariyasiga zid yo'l tutilganligi edi.

Ijobiy tomoni esa ko'proq bolalar tasviriy ijodiga etiborni kuchaytirish, bolalar shaxsiga xurmat va muhabbat bilan munosabatda bo'lish, pedagogik hamkorlikka yo'naltirilgan mustakillik va ijodni ro'yobga chiqarish bilan belgilanadi.

1924 yilga kelib maktab o'quv rejalarida rasm darslari o'z urnini topmagan bo'lsa-da ayrim rassomlar bolalar tasviriy ijodini rivojlantirishga harakat qildilar. Ana shunday iqqidri rassom grafik rassomlardan biri Iskandar Ikromov edi. U 1925 yilda «Maorif va O'qituvchi», keyin «Alanga» jurnallarida rasm chizishga doir maqolalar yelon qiddi. 1932 yilga kelib uning «Rasm chizishni o'rganish qo'llanmasi», 1933 yilda esa «. Kitob va jurnallar qanday nashr etiladi» albomi nashr etildi. 1935 yilda rassomning «Harf yozishni o'rgan» kitobi ham chop etildi. Bu maqola va kitoblar yagona mehnat va politexnika maktablari shablari asosida yaratilgan «Rasm» predmeti dasturlariga mos edi. Mazkur ishlar faqat umumiy ta'lim maktablari uchungina emas, balki tasviriy san'at studiyalari, klublar, havaskorlik go'garaklari, grafikani mustaqil o'rganuvchilar uchun ham ahamingli bo'ddi.

1920 yilgi o'quv rejalarida san'atga doir o'quv predmetlariga gegishli o'rin ajratilmagan bo'lsada, 1929 yilga kelib bu kamchilik bartaraf etila boshlandi. Maktablarda maxsus rasm o'quv predmetlari o'qitila boshlandi. Lekin, O'zbekiston maktablari Rossiya maktablari uchun yaratilgan dasturlar asosida ishlay boshladi. Bu dasturlar ma'lum miqsorda O'zbekiston sharoitiga moslab lokalizatsiyalangan edi. Shu munosabat bilan O'zbekiston xalq morifi kommissarligi tegishli joylarga yuborilgan xatida shunday deyilgan edi: «Majmuaning maqsadi unga tegishli material mazmuni, majmua bilan ishlash metodlari lokalizatsiya qilinadi. O'qituvchi oldindan o'lkashunoslik materiallarini to'plab olgan holda, o'z tumani hayotiga oid yeng xarakterli jihatlarni dasturga kiritadi».

Shu munosabat bilan boshlang'ich sinf «Rasm va loy ishi» dasturiga o'lka materiallari kiritila boshlandi. Ular tevarak-atrof tabiatiga doir narsalar, O'zbekiston halq amaliy san'atiga doir materiallar edi.

Tasviriy san'at predmeti metodikasi shakllanishida 1934 yilda Toshkentda, keyinchalik Respublikamizning har bir vshyuyat markazlarida tashkil etilgan «Markaziy badiiy tarbiya uylari» katta rol o'ynadi. Bu tarbiya uylari o'quvchilarni badiiy jihatdan tarbiyalashga oid dasturiy va metodik materiallarni ishlab chiqdi.

Badiiy tarbiya uylarida boshqa sho'balalar bilan bir qatorda tasviriy san'at sho'basi ham bo'lib, unda uch yillik tasviriy san'at studiyasi ham tashkil etilgan edi.

Bu badiiy tarbiya uyidagi ikkinchi sho'ba bolalar rasmlarining ko'rigini tashkil etish bilan shug'ullangan. Uchinchi sho'ba esa nihoyatda serqirrali bo'lib, uning asosiy vazifasi bolalar bilan uasm darslarida ish olib boruvchilarga metodik yordam ko'rsa-tishksoblanardi. Shuningdek, bu sho'ba quyidagi ishlarni ham olib borgan:

- tasviriy san'at studiyalari uchun mashgulotlar dasturini ishlab chiqish;



- maktab tasviriy san'at to'garaklari uchun mashg'ulot mavzularini ishlab chiqish;
- 1-6 sinflarda rasm mashg'ulotlarining mazmuni va mavzularini ishlab chiqish;
- 1-6 sinflarda rasm darslarining ahvolini o'rganish va o'qituvchilarga metodik yordam ko'rsatish;
- shahar maktablarining rasm o'qituvchilari uchun seminarlar tashkil etish;
- Respublika viloyatlaridan kelgan o'qituvchilar va to'garak rahbarlari uchun seminarlar tashkil etish va ularga tegishli yordam ko'rsatish.

1936 yildan boshlab Respublika miqyosida yuzaga kelgan pioner uyi va saroylari ta'lim-tarbiya, ommaviy-badiiy, texnikaviy, tabiatshunslilik kabi bir qator ish shakllarini o'zida mujassamlashtirgan muassasa ekanligini ko'rsatdi. Natijada, badiiy tarbiya uylarining vazifalari ana shu pioner uylari va saroylariga olib berildi. Sobiq pioner uyi va saroylarining soni yildan-yilga oshib borib, sifat jihatdan yangi mazmun kashf zta boshladi.

Respublikamiz uchun tayyorlangan va nashr etilgan dasturlar mazmuni va vazifasi jihatidan Rossiya maktablari uchun tayyorlangan dasturdan deyarli farq qilmagan, lekin uning hamma bo'limlarida mahalliy sharoit va materiallar ma'lum miqdorda hisobga olingan edi. Xususan, narsaga qarab rasm chizish darslarida Respublikamizga xos bo'lgan predmetlar va tabiat mahsulotlari, dekorativ ishlar bo'limida o'zbek amaliy san'at namunalarini chizdirish tavsiya etilgan edi.

1939 yillarda maktablarda rasm darslarining asosiy vazifasi o'quvchilarda tasviriy malakalarni o'stirish, ko'proq rasm chizishga o'rgatishdan iborat bo'lishi lozim deb topildi. Shuning uchun ham rasm darslarida tarbiyaviy tomonlarga yetarlicha e'tibor berilmadi.

Ikkinchi jahon urushi yillaridava qismanundan keyingi yillarda ham rasm darslarining vazifalari o'zgardi, uning mazmuniida ta'limdankoratarbiyaviy jihatlar kuchaytirilgan bo'lib, unda Asosiy e'tibor vatanparvarlik va baynalminal tarbiyaga qaratildi. 1950-60 yillar davomida tayyorlangan va nashr etilgan dasturlarda «Rasm» o'quv predmetining vazifasi urushga qadar tuzilgan dasturlardan farq qildi.

1953 yilda nashr etilgan dastur «Rasm solish» deb nomlanib u ukuvchilarni tarbiyalashda katta rol o'ynashi ta'kidlangan bo'lsa, 1956 yilda nashr etilgan «Rasm» dasturida esa bu predmetning vazifasi o'quvchilarni estetik jixatdan tarbiyalash vazifasiga xi zmat qiladigan va o'quvchilarni har tomonlama kamol toptirishga yordam beradigan o'quv predmetlaridan biridir deb ko'rsashldi. 1958-59 o'quv yiliga kelib, o'quv rejasida rasm chizishga ajratilgan soatlaroshdi vau 1-6 sinflardaqaftasiga 1 soatdan o'qitila bogdlandi.

Umuman olganda, 50-yillarda Respublika hukumatitomonidan maktablarda rasm predmetining o'qitilishiga bo'lgan e'tibor kuchaydi. Bu avvalo maktablar uchun o'qituvchi kadrlar tayyorlashda o'z mksinitopdi. Ma'lumki, maktabda badiiy ta'limni rivojlanirish ko'p jihatdan pedagogik kadrlar tayyorlashga bog'liq edi. 1950 yillarda bu masala bilan Samarkand va Toshkent badiiy bilim yurtlarini birlashtirish natijasida tashkil topgan badiiy bilim yurti shug'ullana boshladi. Bu badiiy bilim yurti xalq xo'jaligini, xususan umumta'lim maktablarini yuqori



malakali kadrlarga bo'lgan yehtiyojini qondira olmasa-da, maktablarda rasm o'quv predmetlarning o'qitilishini sifat jihatidan yaxshilashga ma'lum mikkorda ta'sir ko'rsatdi. Bu ta'sir maktablar bilan bir qatorda, maktabdan tashqari olib boriladigan seminar, konferensiya, yig'ilishlarda ham o'z ifoda-sini topdi. Shuningdek, badiiy bilim yurtini bitirib chiquvchilar maktablarda tashkil etilgan ko'rgazmalarda ham ishtirok etdilar.

1964-70 yillarda kadrlar tayyorlash boshqa yo'nalishlarda amalga oshirildi. Bu davrda boshlang'ich sinf metodikasi fakultetlarida «Boshlang'ich sinf va tasviriy san'at o'qituvchisi» mutaxassisligi bo'yicha kadrlar tayyorlandi. Bunday yo'nalishlardagi, mutaxassislar Toshkent, Urganch, Qarshi, Namangan pedagogika institutlarida tayyorlandi. Keyinchalik bu yo'nalish o'zini oqla-magach, yana Toshkent va Buxoro pedagogika institutlarida badiiy-grafika fakultetlari ochildi.

1970 yilda tasviriy san'at va chizmachilik o'qituvchisi mutaxassisligi bo'yicha Toshkent va Buxoro pedagogika institutlari bilan bir qatorda Andijon, Kattaqo'rgon, Samarqand, Xiva, Xo'jayli, Shahrixon pedagogika bilim yurtlarida ham kadrlar tayyorlana boshlandi.

1980 yil boshlarida tasviriy san'at o'qituvchisi ixtisosligi bo'yicha tayyorlangan kadrlar soni 800 kishidan ortdi. Bu faqat O'zbekiston umumiy o'rta ta'lim maktablarinint tasviriy san'at o'qituvchilariga bo'lgan ehtiyojlarini yaqin yillarda qondirish mumkinligini bildirar edi.

1965 yildan boshlab Pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot institutining estetik tarbiya bo'lmida tasviriy san'ag o'qitish metodikasi bo'yicha olib borilayotgan ishlarni tartabga solish maqsadida darslik yaratishga kirishildi. 1970 yildan boshlab maktablarda institutning tasviriy san'atni o'qitish muammosi yuzasidan estetik tarbiya sho'basi qoshida Toshkent va Buxoro pedagogika institutlarining o'qituvchilari, Ushinskiy nomidagi o'qituvchilar malakasini oshirishva qayta tayyorlash Markaziy instituti va viloyat o'qituvchilari malakasini oshirish institutning metodistlari, O'zbekiston maorif vazirligining metodistlari, aspirant-tadqiqotchi sifatida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib bordilar. Mazkur masalalar bilan bir qatorda maktab tasviriy san'at o'qituvchilari ham shug'ullandilar.

Tasviriy san'at o'qituvchilarining mahoratini oshirish va ilgor pedagogik tajribalarni tashviqot qilishda Respublika miqyosida o'tkazilayotgan seminar va konferensiyalar katta rol o'ynadi.

1969 yilda estetik tarbiyaga bag'ishlangan Respublika seminar kengashi 1970 yilga kelib an'anaviy Respublika konferensiyaga aylandi va u har yili galma-galdan Respublikamizning viloyatlarida o'tkazib turildi. Samarqand, Jizzax, Xorazm, Buxoro, Namangan, Andijon konferensiyalarida o'qituvchi, tarbiyachi, xalq maorifining rahbar xodimlari bilan bir qatorda ilmiy xodimlar, metodistlar ham ma'ruzalar bilan ishtirok etdilar. Ma'ruzalarda dolzarb masalalarni ko'tarib chikdilar. Bunday ilmiy-amaliy konferensiyalar faqat Respublika miqyosida emas, balki viloyat, shahar, tuman miqyosida ham o'tkazib turildi.

O'zbekiston vazirlar mahkamasining 1966 yil 31 dekabr qaroriga muvofiq, O'zbekiston Vazirlar kengashining 1967 yil 22 martidagi farmoyishi asosida O'zbekiston maktablaridagi ta'lim mazmunini aniqlash bo'yicha komissiyalar tuzildi. Boshqa fanlar qatori maktablarda tasviriy san'at bo'yicha ham komissiya



ishladi. Bu komissiyaga maktab o'qituvchilari, xalq maorifining xodimlari, metodist, ilmiy xodim, rassom, san'atshunoslar jalb etildi. «Tasviriy san'at» deb nomlangan yangi dastur loyihasi shu vaqtgacha amalda qo'llanib kelingan «Rasm» predmeti asosida O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot institutida yaratildi.

Uni tuzishga yuqorida qayd etilgan qaror asos bo'ldi:

a) maktabda ta'limning mazmuni va strategiyasini fan, texnika va madaniyat taraqqiyotining hozirgi darajasiga mos keltirish;

b) maktabda ta'lim va tarbiyani hayot bilan, mehnat bilan bog'lanishini yanada mustaxkamlash;

v) bir-biriga bog'liq bo'lgan o'quv fanlari o'rtasida aloqa o'rnatish. Bu orqali o'qitish samaradorligish oshirish, zarur bilimlarni egallashda bolalarning bilish va fikrlash qobiliyatlarini o'stirishga yordam berish;

g) o'quvchilarning o'quv mashg'ulotlari va mustaqil ishlarining kengaytirilishi, ularni ortiqcha ish bilan band qilmaslik va xokazolar.

Shuningdek, dasturni tuzishda quyidagi tomonlar ham hisobga olindi:

a) so'nggi yillarda yaratilgan O'zbekiston tasviriy san'ati asarlaridan keng foydalanish;

b) boshlang'ich ta'limni 1-3-sinflar bilan chegaralanishi munosabati bilan boshlang'ich va 4-6-sinflarda tasviriy san'ati mashg'ulotlari mazmuniga anikdik kiritish;

v) zamon talablari asosida tasviriy san'at predmetini vazifalarini aniqlash;

g) naturadan rasm chizish darslari uchun o'zbek halqining hayotidya keng qo'llaniladigan narsalar va iste'mol buyumlaridan keni fpydgshanish;

d) dekorativ rasm darslarida o'zbek halq amaliy san'ati na-munalaridan chizish uchun tavsiya etish.

1967-68 o'quv yildan boshlab yangi dastur loyihasi Respub-iikamizning Namangan, Samarqand, Buxoro, Toshkent, Xorazm iiloyatlari va Toshkent shahrining qator maktablarida sinab ko'rildi. O'zbekiston Maorif vazirligi va O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot institutining tekshiruvlari natijasida yangi ta'lim mazmuni ko'pchilik o'quvchilar tomonidan yaxshi o'zlashtrilmayotganligini ko'rsatdi. Shuningdek, dasturdagi badiiy qurish-yasashga doir materiallar esa o'quvchilar kuchiga mos emas-iigi ham ma'lum bo'ldi. Shuning uchun bu bo'lim keyingi yillarda sasturdan chikarib tashlandi.

Yangi dastur o'quvchilarning estetik tarbiyasiga aloqador bo'lgan tashkilotlar muassaslar, uyushmalarning faoliyatini quyidagi yo'nalishlarda faollashtirishni nazardatutganedi:

a) har yili mantazam ravishda o'quvchilar rasmlari respublika ko'rgazmalarini o'gkazish;

b) tasviriy san'at bo'yicha olib borilayottan ilmiy-tadqiqotlar ko'lamini kengaytirish natijasida maktab to'garaklari, san'at maktablari, medagogika bilim yurtlari va institutlari uchun bir





qator dastur, darslik, qo'llanma va to'plamlar tayyorlash va nashr etish;

v) umumiy ta'lim maktablarida yirik rassomlar asarlaridan ko'chma ko'rgazmalar tashkil etish;

g) O'zbekiston rassomlar uyushmasi qoshida o'quvchilar estetik tarbiyasi bo'yicha komissiya tashkil etish.

Keyinchalik yangi dasturlar asosida R.Hasanovning «Boshlang'ich sinflarda tasviriy san'at darslari», «Birinchi sinfda tasviriy san'at darslari», «Ikkinchi sinfda tasviriy san'atni o'qitish», «Uchinchi sinfda tasviriy san'at darslari», «Maktabda tasviriy san'atni o'qitishni takomillashgirishtirish yo'llari» nomli metodik qo'llanmalari chop etildi. O'zbekiston maktablarida tasviriy san'atni o'qitishga doir Respublikada birinchi bor «O'zbek maktablarida badiiy talim va tarbiyaning metodikasoslari» nomli monografiya R.Hasanov muallifligida tayyorlandi va «Fan» nashriyoti tomonidan nashr etildi. Budavrlarda R.Hasanovning «Tasviriy san'at», «O'zbekiston tasviriy san'ati tarixi» nomli fakultativ mashg'ulotlar dasturlari birinchi bor ishlab chiqildi va maktablarga yetkaziddi.

### **Mustaqillik davri tasviriy san'atining rivojlanishi.**

Bundan 29 yil muqaddam-1991 yilning 31 avgustida xalqimiz hayotida tarixiy tub burilish yuz berdi: O'zbekiston Respublikasi mustaqil davlat deb e'lon qilindi. Shu tariqa vatandoshlarimizning avlod-avlodlari qalbida asrlar davomida yashab kelgan orzu va armon-mustaqillik, erkinlik, o'z taqdirini o'zi belgilash huquqi haqiqatga aylandi. Faqat 24 yil burun biz boshimizni tik tutib, hech narsadan hadiksiramay, hayiqmay, bor ovoz bilan milliy erkinligimiz to'g'risida gapirish imkoniyatiga ega bo'ldik. Shuning o'zi istiqlolning ilk hayotbaxsh ma'naviy samarasi edi.

Istiqlolni tarixiy taraqqiyotning o'zi zaruriyatga aylantirib qo'ydi. Bu zaruriyat omillari Respublikamiz Prezidenti Islom Karimovning xalq orasida kelgusi rivojlanishimiz dasturlari tarzida xaqli ravishda baholanib, keng tarqalgan «O'zbekistonning o'z istiqlolni va taraqqiyot yo'li», «O'zbekiston kelajagi buyuk davlat», «Yangi uy qurmay eskini buzmay», «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q», «O'z yo'lini topgan yurt», «Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch» va boshqa ko'plab asarlarida atroflicha sharhlab berilgan.

Istiqlolni biz uchun tarixiy zaruriyat, negaki u bizga mustaqil, milliy davlatga xos bo'lgan ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy kamolot va taraqqiyot yo'lini topishimizga imkoniyat yaratdi. Istiqlolni tufayli O'zbekiston o'z xududiga, Konstitutsiyasiga, chinakam bayrog'iga, gerbiga, madhiyasiga, mustaqil irodali va qat'iyatli prezidentiga ega respublika bo'lib qoldi. Uning behisob yer osti va yer usti boyliklari-o'ziniki. Tarixi, ma'naviy-ijtimoiy qadriyatlarini o'zgaralar ko'zi va manfaatlaridan kelib chiqib emas, balki o'zi vijdonan qayta baholaydi va o'rganadi.

Istiqlolni O'zbekiston qaddini tikladi. O'zbekistonning mustaqil rivojlanish yo'lini bugunga kelib jahonning yuzlab mamlakatlari tan oldi. U bilan diplomatik darajada mustaqil, ikki yoqlama va ko'p tomonlama siyosiy, iqtisodiy, madaniy aloqalar o'rnatayotgan davlatlar soni kun sayin ko'paymoqda. O'zbekiston bugun



BMT va boshqa ko'pgina nufuzli halqaro tashkilotlar va forumlarning haqiqiy teng huquqli a'zosi. U dunyo miqiyosida avvalo suveren demokratik davlat va ayni payitda xalqaro munosabatlarning to'la huquqli sub'ekti sifatida ish yuritmoqda. Istiqlol uni xuddi shu tariqa qayta yaratmoqda.

Istiqlol siyosiy va ma'naviy uyg'onish sohalarida katta yutuqlarni in'om etdi. Halqimiz o'zini siyosiy va ma'naviy mustaqilligini tobora aniqroq tushunib yetmoqda. U eski mafkuraning va mutelik psixologiyasining kishanlaridan tozalanib, o'z tarixiga, hozirgi kuni va istiqboliga boshqacha ko'z bilan qaramoqda. Milliy-ma'naviy qadriyatlarimizni tiklash va rivojlantirish yo'lidan bormoqda. Navro'z bayrami, asriy an'analarga ega milliy urf-odatlar, diniy bayramlar nishonlanadigan bo'ldi. Sho'ro mafkurasi inkor etgan tarixiy qadriyatlar, siymolar, manba'lar, madaniy boyliklar qayta tiklanildi. Amir Temur, Bobur, Ahmad Yassaviy, At-Termiziy, Bahovuddin Naqshband kabi ulug' siymolarning taqdiri, hayoti, merosi ma'naviyatimizga qaytarilayotgani istiqlolning bebaho g'alabalaridir.

Hozirgi kunda oldimizda turgan jiddiy vazifalardan biri ijtimoiy voqealik taraqqiyotining qonuniyatlariga amal qilingan holda mafkuraviy qarashlarning yangi tizimini ishlab chiqish, uni xalq qalbi va ongiga singdirish tadbirlari ustida mehnat qilishdir. Ayniqsa, fan, madaniyat, adabiyot va sana't nomoyondalari bugungidan ko'ra faollroq ishlari, istiqlolning ijtimoiy-insonparvarlik mohiyatini tadqiqotlarda, asarlarda chuqur, ta'sirchan ochishlari, istiqlolning yangi mafkurasini yaratishga har bir ziyoli o'zini munosib hissasini qo'shishga intilmog'i kerak. Yangi mafkuraga, istiqlolning yo'li va yo'nalishlariga qalb va iymondan e'tiqod tarbiyasi ko'p narsani xal qiladi. Inson ichidan ma'naviy mustahkam bo'lsa, uning hayotidagi yo'li, ham ishonchli bo'ladi. Tarixiy chorrahani ilk bosqichini o'tayotgan o'lka va xalqning yangi dunyoqarashi, ma'naviyatini shakllantirishi fan va ijod ahli uchun ilhombahsh vazifalaridandir.

1991-2015 yillar ichida Mustaqil O'zbekistonni barcha sohalarida rivoj topishda ayniqsa ma'naviy-madaniyat va ma'rifatning yuksalishi katta qadam bo'ldi. Shu yerda ayniqsa 24 yillik ichidagi ma'naviyat sohasida bo'lgan yangiliklarini ko'rib chiqish o'rinli deb bo'ladi.

1991 yilda «**Hamar xalqaro aloqalar**» markazi tashkil etildi. Uning vazifasi Respublikada va horijda ko'rgazmalar, yarmarkalar va kim oshdi savdolarni tashkil qilish shaklida badiiy merosni va hozirgi tasviriy hamda amaliy bezak, haykaltaroshlik san'atlarining amaliyotini ommalashtirish. Badiiy salon huquqlari asosida san'at asarlarini sotishni amalga oshiradi.

1993 yilda «**O'zbekiston xalq an'analari va san'ati**» markazi tashkil etildi. Uning faoliyati tasviriy va amaliy bezak san'atini rivojlantirish, Respublikada va chet ellarida madaniy merosni targ'ib qilish hamda ko'rgazmalarni tashkil etish bo'lib, hozirda u markaz tomonidan katta ishlar qilinmoqda.

1997 yil 23 yanvarda **O'zbekiston Badiiy Akademiyasini** tashkil etish haqidagi farmoni va Vazirlar Mahkamasining 1997 yil 11 martdagi «O'zbekiston Badiiy Akademiyasining faoliyatini tashkil etish» to'g'risidagi qarori e'lon qilindi.



Badiiy Akademiya iste'dodli ijodkor yoshlarni, yuksak malakali rassomlar, dizaynchilar, me'morlar, amaliy san'at ustalari va san'atshunoslarni tarbiyalash uchun zamin berdi.

O'zbekiston nafaqat mahalliy ijodkor rassomlarning balki, chet ellarda eng yuksak va professional darajadagi rassomlarning badiiy ko'rgazmalarni tashkil etish markaziga aylandi.

Dastlab O'zbekiston Badiiy Akademiyasining rahbarlari tarkibi tayinlandi, 21 nafar faxriy a'zolar saylandi. Shulardan O'zbekiston Badiiy Akademiyasining haqiqiy a'ziligini xalq rassomlaridan, amaliy san'at ustalaridan kulollar Sharif Azimov, Akbar Raximov, Xudoyberdi Haqberdiev, Sharofiddin Yusupov, miniatyurachi-rassomlar Niyozali Xolmatov, O'zbekiston Badiiy Akademiyasining faxriy a'ziligiga naqqosh-rassomlar Saidahmad Maxmudov, ganchkor Maxmud Usmonovlar bo'ladilar.

Akademiya tarkibida muassasalarning tegishli tarmoqlari bo'yicha faoliyati asosida yo'nalishlari muvofiqlashtirilib turishga da'vat etilgan, akademik-kotiblar rahbarlik qiladigan beshta bo'lib, rangtasvir va grafika, xaykaltaroshlik dizayn, amaliy san'at va san'atshunoslik bo'limlari tashkil etildi.

Avvallari boshqa idoralar tizimiga kiradigan qator muassasa va o'quv yurtlari O'zbekiston Badiiy Akademiyasi tarkibidan o'rin oldi. Akademiya tizimida akademik o'quv yurtlari tarmog'i tashkil etildi. Chunonchi Kamoliddin Behzod nomidagi milliy rassomlik va dizayn instituti, Respublika badiiy kolleji, barcha viloyatlarda tasviriy va amaliy san'at akademik litseylar tashkil qilindi.

Ushbu o'quv yurtlarining hammasi yuksak malakali mutaxassislarni tayyorlashga doir optimal dasturi tayyorlandi. Iste'dodli rassomlar va ustalarni izlab topib ularga shart-sharoitlar yaratildi.

O'zbekiston Badiiy Akademiyasining muassasalaridan biri bo'lmish San'atshunoslik ilmiy-tadqiqot institutida amaliy san'at turlari bo'yicha ham katta ilmiy tadqiqot ishlari olib borilyapti. Institutda aspirantura va doktorantura shuningdek «teatr san'ati», «musiqa san'ati», «tasviriy san'at» hamda shu qatori amaliy san'at ixtisosliklari bo'yicha nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalarini yoqlashga doir ixtisoslashtirilgan ilmiy kengash ishlab chiqilmoqda.

1997 yilda Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy Rassomchilik va Dizayn instituti tashkil etildi. Unda tasviriy san'at dasgoxi, monumental va teatr dekoratsiyali rangtasvir, kino va televidenie rassomlari, kitob va muzeyshunoslik, amaliy-bezak san'ati, amaliy grafika, interer va uskunalar, me'morchilik yodgorliklarini ta'mirlash, me'morchilik nafis bezaklari, kulolchilik, malaka oshirish, sirdan o'qish bo'limlari, va shuningdek horijlik talabalar uchun ham ta'lim olish imkoniyatlari yaratilgan.

1997 yili O'zbekiston Badiiy Akademiyasining maxsus jamqarmasi tashkil etildi. Uning vazifasi Ijodiy xodimlarning ijtimoty-iqtisodiy jihatidan himoya qilishni taminlashdir. Badiiy ko'rgazmalar direksiyasi 1959 yilda tashkil topgan edi. U muzey muassasasi maqomiga ega bo'lib uning tarkibiga badiiy boyliklar fondi –13000 ta tasviriy va amaliy-bezak san'ati asarlarini o'z ichiga oladi, ishlab chiqarish bo'limlari–ko'rgazmalarni komplekslash va tashkil etish, asarlarni saqlash hamda ta'mirlash va markaziy ko'rgazmalar zallari kiradi. O'zbekiston va



xorijda ko'rgazmalarni tashkil etish direksiyasining asosiy vazifalarini tashkil qiladi.

Respublikamizda ta'lim-tarbiyaga va jahon standartlari talablari darajasida bo'lishga e'tibor berilgan. O'zbekiston Respublikasining Oliy majlisining IX sessiyasida Prezidentimiz I.Karimovning «Barkamol avlod-Mustaqil O'zbekiston taraqqiyotining poydevori» mavzusidagi nutqi va bu sessiyada qabul qilingan «Ta'lim to'g'risidagi qonun», «Kadrlar tayyorlash Miliy dasturi» hamda O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasini-«Akademik litseylar va kasb hunar kolledjlarini tashkil etish va ularning faoliyatini boshqarish» to'g'risidagi qarorlar qabul qilindi.

Shulardan kelib chiqqan holda 1997 yil ayrim viloyatlarda tasviriy va amaliy san'ati litseylari tashkil qilindi:

- 1.Andijon tasviriy va amaliy san'at litseyi-internati
- 2.Buxoro tasviriy va amaliy-bezak san'at litseyi
- 3.Qashqadaryo tasviriy va amaliy-bezak san'at litseyi
- 4.Qoraqolpoqiston Respublika tasviriy va amaliy-bezak san'at litseyi
- 5.Navoiy tasviriy va amaliy-bezak san'at litseyi
- 6.Namangan tasviriy va amaliy bezak san'at litseyi
- 7.Samarqand tasviriy va amaliy bezak san'at litseyi
- 8.Sirdaryo tasviriy va amaliy –bezak san'at litseyi
- 9.Xorazm tasviriy va amaliy –bezak san'at litseyi va kabilar ochildi.

1997 yil mayida Toshkentda bo'lib o'tgan XII Xalqaro kinofestival doirasida O'zbekiston Badiiy Akademiya birinchi akademiklari ishlarining ko'rgazmasi uyushtirilib turli mamlakatlardan tashrif buyurgan ko'plab san'at arboblari uni tomosha qilishga muvaffaq bo'ldilar.

1997 yil yakunlariga ko'ra O'zbekiston Badiiy Akademiyasi oltin va kumush medallar, Akademiya diplomlari bilan taqdirlandilar. Hozirgi paytda akademiya tizimida Yaponiya, Iordaniya, Gresiya va boshqa mamlakatlardan kelgan mutaxassislar aspiranturada bakalavriantura va magistraturada taxsil olishmoqda.

Mustaqil O'zbekistonda san'atning jahon madaniyatining hazinasini boyitishda muhim o'rin tutib kelmoqda. Germaniya, AQSh, Italiya, Fransiya va Buyuk Britaniyada «Rang tasvir va sano'at dizayni» ixtisoli klari bo'yicha bakalavriatura, magistraturada ta'lim olish va amaliyotdan o'tish uchun O'zbekiston Prezidenti grantini olish yuzasidan tanlovlarning o'tkazilishi Akademik o'quv yurtlari uchun muhim voqea bo'ldi.

1997 yil mart oyida O'zbekiston Badiiy Akademiyasi tassarufidagi rassomlik kolleji amaliy san'at guruhi talabalari Pokistonning Islomobod shahriga ijodiy safar qildilar. Islomobod shahrining ko'kalamzor maskanida joylashgan «Xalq merosi», «Lok virsa» muzeyida O'zbekiston galariyasi tashkil qilindi.

Mustaqillik to'yi arafasida «Sharqdan kelgan ziyo» shiori ostida ko'rgazma tashkil etildi. Bu ko'rgazma ikki buyuk bobokolonimiz yubileyiga baqishlanib, San'atshunoslik ilmiy tadqiqot institutida ochilgan bo'lib, ushbu ko'rgazmaga taniqli ijodkorlar yaratgan rang tasvir,xaykaltaroshlik,kulolchilik va xalq amaliy san'ati asarlari qo'yildi. Mazkur ko'rgazmada Malik Nabiev, Javlon Umarbekov,



Aziza Mamatova kabi ko'plab o'zbek rassomlari qatori shuningdek hindistonlik Ahmad Safarov, misrlik Said al Xazar, AQShlik Richard Dan, turkmanistonlik Qubon Maredovning Ahmad Farg'oniya bag'ishlangan asarlari ham o'rin oldi.

Mustaqillik sharofati bilan yuzaga kelgan muhim o'zgarishlaridan yana biri bu hozirgi zamonda tasviriy va amaliy san'atga oid ilmiy tadqiqot ishlarning avvaliga nisbatan ko'proq foizda davlat tilida bajarilganligidir. Jumladan, bu vaziyat mustaqillik yillarida tasviriy va amaliy san'at olimlarimiz muallifligida nashr etilgan monografiya, darsliklar, o'quv qo'llanmalar, albom va ilmiy maqolalarda o'z aksini topa boshladi. Aynan shu davrda ular o'zbek, rus, ingliz, fransuz, nemis, arab va boshqa tillarda ham chop etilayapti. Shular jumlasidan, «O'zbekiston san'atshunoslik muammolari», «San'atshunoslik nihollari», «San'at tarixini davrlashtirish muammolari», «Buxoro Sharq durdonasi», «Xiva ming gumbazlar shahri», «Amir Temur davrining me'moriy koshonasi», «G'ijduvon kulolchiligi san'ati», «XX asr O'rta Osiyo rang tasviri: o'z-o'zini anglash muammolari» va hakoza maqolalar majmui, shuningdek P.Zohidovning «Me'mor olami», M.Nabievning «Rangshunoslik», «O'zbek xalq amaliy san'ati», izohli luqati, «Yoshlarga hunar o'rgatishning milliy an'anaviy asoslari», A.Egamberdievning «Rahim Ahmedov», Sh.Asqarovning «Me'moriy tanqidchilik». B. Boymetovning «Portret qalamtasviri», «Qalamtasvir», «Plastik anatomiya», «Chizmatasvir» va boshqa kitoblari «Tasviriy san'at texnologiyasi va nus'ha ko'chirish» misol bo'la oladi.

Shu yerda yana e'tiborga loyiq dalil-avvallari o'zbek tilida ilmiy tadqiqot ishlarining bajarilishi olimlarimizdan katta jasorat talab qilgan bo'lsa, endilikda nomzodlik va doktorlik ilmiy ishlar o'zbek tilida yozilib ixtisoslashgan Ilmiy Kengashda himoya qilinmoqda. Olimlarimiz milliy sana'timizni tarqib etish uchun Amerika, Fransiya, Yaponiya, Germaniya va boshqa davlatlarda ilmiy maqolalar, kitoblar, albomlar chop etishmoqda. Germaniyada o'tkazilgan O'zbekiston madaniyati kunlariga badiiy merosimiz va hozirgi san'atga bag'ishlangan mahsus materiallar turkumi tayyorlash va nemis tilidagi «San'at» jurnalida e'lon qilindi.

1997 yil O'zbekiston Badiiy Akademiyasining «SAN'AT» jurnali tashkil etildi. Jurnalning maqsadi O'zbekiston va Markaziy Osiyo san'atlari tarixi va O'zbekiston Badiiy Akademiyasini targ'ib qilish hamda ommalashtirish, jahon san'atining eng yaxshi yutuqlari bilan tanishtirishdir. Badiiy Akademiyaning «San'at» jurnali rangli suratlar, rang-barang maqolalar bilan chop etilmoqda. Mazkur jurnal uch oyda bir marta; o'zbek, rus, ingliz tillarida chop etiladi. Jurnalda «san'at tarixi, zamonaviy badiiy jarayon, xalq amaliy bezak san'ati, musiqa va teatr, xalqaro aloqalar ruknlari ostida san'atshunos olimlarning maqolalari chop etilmoqda.

1998 yilda Germaniyada chiqadigan «VOSTOK» jurnali Respublikamiz san'atiga baqishlab mazkur son e'lon qildi. Ushbu nashr «O'zbekiston san'ati an'anaviy va zamonaviylik» deb nomlangan, uning sahifalarida mustaqil yurtimiz san'ati va madaniyatiga doir maqolalar, suhbatlar, fotosuratlar o'rin olgan. Ushbu jurnalning bosh muharriri Britta Volonchenveber xonim «O'zbek zamoniy tasviriy san'ati o'z tarixi singari va serqirra boy nomli maqolasida o'lkamizning madaniyati va san'ati haqida fikr yuritadi. Maqolaning «Javlon Umarbekov



olami», «Xakim Ibragimov ranglari», «Akmal Ikromjonov falsafasi», «Akmal Nur umidi» deb nomlangan boblarida esa ijodkorlarning go'zallik olamiga sayohat qilasiz.

### **3. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng tasviriy san'atda erishilgan yutuqlarni o'rganishning ilmiy-nazariy asoslari.**

1990 yillar O'zbekiston tasviriy san'ati rivojida yangi bosqich boshlandi. Bu nafaqat ob'ektiv zaruriyat tufayli tuzilishi isloh qilingan Rassomlar uyushmasi va uning negizida tashkil topgan O'zbekiston Badiiy Akademiyasi, balki bu yillardagi badiiy jarayon mohiyatiga, uning o'rganilishiga ham taaluqlidir.

Bozor iqtisodiyoti munosabati bilan yuz berayotgan jarayonlar avvallari san'atida haqiqatan ham boqimandalik kayfiyati hukm surganini tobora oydinlashtirmoqda. Mustamlaka va qizil «imperiya» davrida ma'naviy va madaniy merosni o'rganib, asrab-avaylash masalasiga yuzaki, munosabatda bo'lib, sinfiylik nuqtai-nazaridan qarab kelindi. Qog'ozlarda va og'izda asrab-avaylash haqida gap bordiyu, lekin amalda qanchadan-qancha me'morlik obidalari buzilib tashlandi: Buxoro, Samarqand, Shahrisabz, Qo'qon kabi shaharlar vayron qilindi, ne-ne san'at turlari, san'at asarlari, hunarlar, urf-odatlar, bayramlar, marosimlar barham topdi. Shuni aytib o'tish lozimki, sho'ro davrida ijodkorlar asosan mafkura asosida, partiya ilgari surgan g'oyalarni xalq ongiga singdiruvchi qurol sifatida faoliyat ko'rsatar edilar. Shu jumladan rassomlar ham turli g'oyaviy-siyosiy tadbirlarga buyurtma asosida bajariladigan ishlarga alohida e'tibor berishga majbur edilar. Ko'pgina ko'rgazma zallarini ana shunday davr ruhi bilan sug'orilgan katta-katta hajmdagi ishlar egallagandi.

Mustaqillik mana shu ma'shum yemirilish jarayonining oldini oldi, hamda ma'naviy qadriyatlar, an'analar, ilmiy va madaniy merosni saqlab qolish va o'rganish va demokratik yo'nalishda rivojlana boshlagan jamiyatimizga xizmat qildirish uchun keng yo'l ochib berdi, moddiy-ijtimoiy shart-sharoit yaratdi. Shu bilan birga mustaqillik davri va bugungi bozor iqtisodiyoti jarayoni ijodkorni ham oldindan hamma narsani hisob-kitob qilib, halol yo'l bilan obro' orttirishga undamoqda.

Shunday ekan bu murakkab jarayonda faqat jismonan va aqlan kuchli, tadbirkor, ishbilarmon, kechayu-kunduz butun vujudini, qalbini barcha ruhiy va jismoniy imkoniyatlarini ishga solib harakat qilgan shaxsgina biror natijaga erishadi.

Rassomlar ijodiga, umum ijodkorlar izlanishlariga shu nuqtai nazarda yondoshsak, boqimandalik davlat buyurtmasi, balandparvoz gaplar, maG'rurlanishlar, o'ziga zeb berishlar davri o'tib ketdi. Endi faqat haqiqiy talanti, bo'lsagina, uni tarbiyalash, voyaga yetkazish, barcha imkoniyatlarni ishga solib, iste'dodini yuzaga chiqarishga yordam beradigan zamonlar yetib keldi. Zero, bozor iqtisodiyoti munosabati bilan jamiyat hayotida yuz berayotgan o'zgarishlar va turlanishlar rassomlar ijodiga sezilarli ta'sir qildi. Ijod yo'lga tasodifan kirib kelganlar o'z-o'zidan bu sohadan chetlashmoqdalar. Bundan keyin xar bir soxada va ayniqsa ijodda faqat shu sohaning fidoyiylari, o'z fikri-zikri, dil amri bilan ish yuritadigan insonlargina qolish tabiiy xol.



Bu tabiat qonuni desak xam bo'ladi. Uni inkor qilib bo'lmaydi. Faqat shu kunda mavjud bo'lgan badiiy qadriyatlar, talantlar, ijodiy intellektual kuchlar ular yaratgan durdonalarni saqlab qola bilish darkor. Bu yo'nalishda hozirgi payitda bir qancha ishlar qilinmoqda. Masalan: «Markazbank» tomonidan ko'pgina ishlar sotib olinmoqda, ularning katalogi muntazam ravishda chop-etish ishlari asta-sekin yo'lga qo'yilmoqda. Prezident devoni huzuridagi halq akademiyasi ko'plab rassomlar ishlarini xarid qilib oldi va xokazo.

Shunday qilib, O'zbek milliy tasviriy san'ati nomoyondalarining professional san'at turlarini egallash va yaratish ana shu 24 yillik-istiqlol davrini tashkil etdi. Shu davrdan boshlab tasviriy san'atning professional dunyoviy turlarini egallash va rivojlantirish davri boshlandi. Shu yerda aytib o'tish zarurki, tarixan uchramagan miniatyura, devoriy monumental tasvir, xalq amaliy va bezak san'atlari bilan chegaralangan Yevropa uslubidagi musavvirlik sirlarini egallab, bu sohani xam ma'naviy mulkiga aylantira boshladi. Barcha shakllanish va ulG'ayish jarayonlarida sodir bo'ladigandek, bu davr o'zbek tasviriy san'atida xam boshqa xalqlar tasviriy san'at tarixida uchragan turli-tuman/naturalistik tasvirlashdan avangardizmga G'oyaviy uslubiy izlanishlar, tajribalar davom etib, realistlik va romantik tasviriy prinsiplari yilma-yil mustahkamlanib, chuqurlashib bormoqda.

Bu davrning mantiqiy davomi va jahon tasviriy san'atida yuz berayotgan shakliy va uslubiy izlanishlari O'zbek tasviriy san'atida qaror toptirish kuchaytirish davri istiqloq davri bilan izohlanishi mumkin. Bunda J.Umarbekov, B. Jalolov, M. To'xtaev, V. Oxunov, Alisher Mirzaev, A. Ikromjonov, Akmal Nur, A. Nuriddinov, Abduvali Mo'minov va boshqa qator iste'dodli rassomlarning erkin ijodiy faoliyati katta ahamiyat kasb etmoqda.

Xulosa qilib aytganda, tasviriy san'at tarixini birinchidan millat hayoti va taqdiri bilan bog'liq ijtimoiy xodisa sifatida, ikkinchidan, san'atining ob'ektiv taraqqiyot yo'lini ifodalovchi spesifik jarayon tarzida, uchinchidan, ayrim rassomlarning O'zbekiston san'ati tarixida tutgan o'rni mavqei va ahamiyatini nazarda tutib, masalan: 20-illarda A.Volkovning, 30-yillarda P. Benkovning, 50-yillarda U. Tansiqboevning va xokazo o'rganib chiqish mumkin.

Umuman olganda, rangtasvirida badiiy jarayon bir muncha shiddatli va serharakat bo'lib o'tdi desak ham o'rinli. 1991-2014 yillarda bo'lib o'tgan ko'p sonli ko'rgazmalar shuni tasdiqlaydiki, istiqloq davri rangtasviri uslub va kompozitsion yechimining turli-tumanligi bilan alohida ajralib turadi. Bu esa hozirgi payitda rangtasvirchi rassomlariga ijodiy erkinlik, shuningdek badiiy tasvirni akslashtirishda shakl va vositalarni mustaqil tanlash imkonini yaratuvchi yangi davrga ko'p jihatdan bog'liqdir.

### ***Talabalarga tasviriy san'at tarixini o'tishda o'zbek xalq rassomlari ijodini o'qitishning amaliy ahamiyati.***

Mustaqil respublikamizda ijod qilayotgan milliy musavvirlarimizning soni anchaga yetib qoldi. Ular yosh va keksa avlod vakillari juda oz, barmoq bilan sanagudek qolgan. Bu musavvirlarni barcha «ustoz», deb hurmat bilan tilga oladi. Ularni hayotlik payitida qadriga yetib, ardoqlashga tajribalaridan saboq olishga intiladi. Ma'lumki hayotdan o'tgan O'rol Tansiqboev, Chingiz Axmarov, Hikmat



Raxmonov, Zokir Inog'omov, Samig' Abdullaev kabi iste'dodli, musavvirlarimiz ham o'z paytida yoshlarga ustozlik qilib, sahiyliklari bilan nafosat gulshanini fayzlarga to'ldirishgan edi.

Yoshlarga bosh-qosh bo'lib, bilganlarini ayamadan, tinim bilmayotgan murabbiy musavvirlarimiz hozirgi kunda ham talaygina. Bular A. Abdullaev, R. Ahmedov, Malik Nabiev, G'ofur Abdurahmonov, Javlon Umarbekov, Bahodir Jalolov, Alisher Mirzaev va boshqalardir.

Shuni aytib o'tish zarurki, professor Malik Nabiev, shuningdek «O'zbekistonda hizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi» unvoni sohibi G'ofur Abduraxmonovdir. Ular o'z ijodlari bilan O'zbekiston istiqloli davri san'atini rivojlanishiga katta hissalarini qo'shganlar. O'zbekiston mustaqillik davri rangtasviri haqida fikr yuritar ekanmiz, ana shu insonlar ijodi va hayotidan boshlasak o'rinlidir.

**Malik Nabiev** yoshlik yillarini xotirlab, suhbatlardan birida shunday deb qoldilar: «1934 yili badiiy bilim yurtida ikkinchi kursda o'qib yurardim Toshkentning «Sebzor» dahasidagi 15-yetti yillik maktabda tug'ma qobiliyat sohibi, ustoz rassomlarimizdan Bahrom Hamdamiy (1910-1943) rasmdan dars berardilar. Bir kuni vaqtlari ziqligi tufayli o'rinlariga dars berishimni iltimos qilib qoldilar. Yuragim dov bermasa-da, ustoz gaplarini ikki qilolmadim. Sentyabrdan e'tiboran dars bera boshladim. Bu muallimlik faoliyatimning debochasi edi».

1937 yili Toshkent badiiy bilim yurtini muvaffaqiyatli bitirgan Malik Nabievni hech qayoqqa qo'yib yuborishmadi. Rasm va rangtasvirdan dars bera boshladi. Muallimlik sohasi Malik Nabievga tobora yoqar, bilganlarini hech kimdan ayamasa, kunu-tun ishlasa-da, xorimasligini his etar, bu uning kasbiga bo'lgan ixlosi, ishtiyoqi tufayli edi. Murabbiylik ishi sitqidillikni, sahiy qalb egasi bo'lishni taqazo etishini u o'sha payitlardayoq payqagandi chamasi.

1934 yili «Mushtum» jurnali tahririyatiga yo'lim tushib qoldi,-deb eslaydi musavvir.- Meni bu yerga taniqli hajvchi rassom Vohid Odilov boshlab kelgandi. U chizgan rasmlar jurnalda tez-tez chiqib turardi. Muharrir G'ulom G'ofurov huzurida bo'lganimizda, yozuvchi Abdulla Qodiriy xonasiga kirishimizni, topshiriqlar olishimizni aytdi. Jurnalda barcha rasmlar u kishi orqali qabul qilinarkan.

Murabbiy musavvir bo'lish tinmay o'qib-o'rganishni, keng dunyoqarashlarga ega bo'lishni talab etardi. Va u o'qishdan, izlanishdan erinmadi. Yoshlarni tarbiyalash uchun tashkil qilingan ikki yillik kursga kirib o'qidi. Mutaxassislik bo'yicha dasturga qalamtasvir, rangtasvir va uning texnologiyasi, san'at tarixi, plastik anatomiya fanlari kiritilgan bo'lib, shuningdek, Peterburg Badiiy akademiyasida 2-3 oy tahsil olish ham rejalashtirilgan edi.

Ikki yil ichida ko'p narsalarni o'rgandim. Xususan, P. Benkov rangtasvirida ishlashni, plastik anatomiyani esa professor A. Matveev (Parij universitetida plastik anatomiya fakultetini bitirgan) o'rgatishdi,-deb eslaydi M. Nabiev.

M. Nabiev malaka oshirishlar bilan chegaralanib qolmadi. Buni qarangki, 1938 yildayoq O'zbekiston rassomlar uyushmasi a'zoliciga qabul qilingan mohir musavvir murabbiylik sir-asrorlarini yanada puxtaroq egallash uchun oradan o'n to'qqiz yil o'tib, Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika instituti badiiy-





grafika fakultetininig sirtqi bo'limiga kirdi va uni 1962 yili muvaffaqiyatli bitirdi. Oliy o'quv yurti rahbariyati 1958 yiliyoq Malik Nabievga muallimlik qilishga yo'l ochib bergan edi. Institutni bitirgach, 1963-1988 yilga qadar rangtasvir va qalamtasvir kafedrasini mudiri, professor lavozimlarida uzoq ishladi.

Malik Nabievning xonasi ham qabulxona, ham ijodxonasi vazifasini o'tar, rangtasvir kafedrasini bo'lgani uchun eshiklari hamkasblar, talabalarga doim ochiq edi. Ularga maslahatlar shu yerda berilardi. Musavvir ishlab turgan paytida kirib kelgan kishilarga hech vaqt «ijodimga xalaqit berding» demagan. Bu xona o'zimga xos kichik muzeyni eslatar, uning devorlariga badiiy asar yaratish jarayonlari aks etgan qo'llanma suratlar, tasviriy san'at asarlari namunalari ilib qo'yilgandi.

Malik Nabiev asarlari soni mingdan ortadi. O'zbek tasviriy san'ati tarixida Malik Nabiev yaratgan asarlaridan buyuk allomalarimiz: Abu Rayxon Beruniy, Al-Xorazmiy, Ibn Sino, Al-Roziy, Mrzo Ulug'bek, Zahriddin Muxammad Bobur, Amir Temur, Ahmad FarG'oniy, Kamoliddin Behzod portretlari yetukligi, inson ruhiyatini ochilishi bilan ayniqsa mashhurdir. Barcha darsliklarda va tarixiy merosimizda ushbu portretlardan foydalanilmoqda.

O'zbekiston tarixi muzeyida saqlanayotgan «Spitamen qo'zg'aloni», Jizzax o'lkashunoslik muzeyidagi «Jizzax qo'zg'aloni» va boshqa o'nlab tarixiy asarlari tomoshabinlarimizga yod bo'lib ketgan. Xalqimizning asl farzandlari, adolat deb bosh ko'tarib, qatag'on qilingan Fayzulla Xo'jaev, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriylar qiyofalari o'ziga xos ko'rinishlarda jonlangan. Bosqinchilar bilan mardonovor olishgan Dukchi Eshonga bag'ishlangan asar.

Malik Nabiev o'z xalqi hayotini puxta bilgan musavvirlikni unutmazlik kerak. U ijodini o'z millati «O'zbek portreti» (1937 yil)dan boshlagandi. U ustozlari Akrom Toshkanboev va Bahrom Hamdamiylarning «Sen o'zbeksan, o'zbek rassomisan, shunday ekan, o'z xalqing hayotini chuqur o'rgan, o'zbeklarni tasvirla, keyin boshqalarni» degan vasiyatlariga amal qilgani uchun ishlari o'ngidan kelaverdi. Lekin muvaffaqiyat osonlikcha qo'lga kiritilmasligini Malik Nabiev yaxshi bilardi. Masalan, sakson yoshni qoralab qolgan bir paytda chizilgan «Sohibqiron Amir Temur» portreti o'ziga xos tarixga ega. 1941 yilda tarix muzeyiga keltirilgan Temur va temuriylarni mumyolab qo'yilgan jasadlarini o'z ko'zi bilan ko'rgan rassom uni tasvirlashda juda qiynaldi. O'y-hayollar og'ushida G'arq bo'lgan payitlaridan birida tush ko'rdi. Tushiga sohibqiron Temur kirib, go'yo uni ruhlantirgandek bo'ldi. Mana shu yerda ushbu shox-asar hisoblangan Malik Nabievning «Amir Temur» portretini qisqacha taxlilini qilsak o'rinli hisoblanadi.

Tarixiy shaxslar portreti borasida uzoq yillar davomidagi ijodiy tajriba, bilim va malakalar evaziga yuzaga kelgan Amir Temur portretida takrorlanmas obrazni ko'ramiz. San'at ixlosmandlari e'tiborini o'ziga jalb qilgan bu portretda Sohibqiron sarkarda qiyofasida gavdalantirilgan. Boshiga oltin toj kiygan Temurning nigohi bir nuqtaga qaratilgan bo'lib, jiddiy xayol o'g'ushida ekanligi, chap qovoG'i biroz ko'tarilib, qoshi tepaga chimirilganidan sezilib turadi. Yuz qiyofasi asosan bug'doyrang tuslar orqali tasvirlangan. Peshona, yuz qismidagi chiziqlar, shuningdek, burun, lab, quloq, soqol-mo'yablarning holati Temurning



nuroniyligini ko'rsatsada, uning hali tetik va baquvvat ekani yaqqol sezilib turibdi. Ayniqsa bu holat yuzda ko'zga tashlanayotgan pishiqlik, chayirlikda aniqroq ko'rinadi. Jiddiy fikr va xayol bilan bandligi Sohibqironni yanada salobatli qilib ko'rsatadi. Yelkador qo'llari esa bamayli xotir qilichga tayangan holda. Qo'l barmoqlari shunday xarakterli tasvirlanganki ular Sohibqironning mashaqqatli jangu jadallardan mardonavor o'tganini tasdiqlab turibdi. Portretidagi o'tkir va sinchkovli ko'z qarashlar rassomning Temur obrazi borasidagi chinakam izlanishlari natijasidir.

Amir Temur qiyofasida mag'rurlik va kuch-qudratga egaligi uning xotirjam o'tirishi holatida aniq gavdalangan. Sharqona bezatilgan shoh saroyining bir bo'lagi derazadan Samarqand shaxri manzarasi ko'rinadi. Devordagi fonda naqshin bezaklar, Sohibqiron o'tirgan saltanat kursisining badiiy ko'rkamligi, shuningdek, Amir Temur egnidagi liboslarning boy ko'rinishi tomoshabinni zamona haqida to'liqroq tushunchaga ega bo'lishida yordam beradi. Umuman musavvir Amir Temur obrazini tasvirlash borasida butun mahoratini ishga solib ulkan muvaffaqiyatni qo'lga kiritadi.

Musavvirning dunyo miqiyosida qabul qilingan, YuNESKO tan olgan ishi Abu Rayxon Beruniy portreti bo'lsa, endigisi qarigan choG'ida tasvirlangan Amir Temur portreti bo'lganligi ham bejiz emas. Bunisi ham mezon sifatida qabul qilindi. Poytaxtimizdagi, Samarqand va Shahrisabzdagi, xullas, barcha yaratilgan Amir Temur haykallarida ana shu qiyofa o'z aksini topgan. Aynan shu qiyofa asosida taqvimlar, plakatlar, markalar chiqdi.

Malik Nabievni «Ustozimiz» deydigan shogirdlarini nomma-nom sanab, sanog'iga yetish qiyin. Ular ko'p, ular har joyda. Eng muhimi, ustozning to hanz kasbdoshlari safida unumli mehnat qilayotganligi, hormay-tolmay yangi-yangi ijod namunalarini taqdim etayotganligi dillarni quvontiradi.

O'zbek milliy rangtasvir maktabining taniqli vakillaridan biri, ustoz rassom G'ofur Abdurahmonovdir. Rassom ijodiy faoliyatining mukammal xususiyati kompozitsiyalarining keng qamrovliligi, asarlarning hayotiligi, davr kayfiyati va ruhiyatini har tomonlama ochib bera olishidadir.

**G'ofur Abdurahmonov** rangtasvir san'atining ko'pgina janrlariga dadil murojat qilolgan rassom sifatida ajralib turadi. Bu o'rinda, ayniqsa, mavzuiy kompozitsiyalar, manzara, natyurmort, portret janrlaridagi asarlarini ta'kidlash maqsadga muvofiqdir.

G'ofur Abdurahmonov 1936 yili Toshkent viloyatidagi Toshkent (eski Kalinin) rayoni Ko'kterak qishlog'ida ishchi oilasida (otalari Muhammadjon aka paxta zavodida ishchi bo'lib ishlaganlar) dunyoga keladi. Tasviriy san'atga bo'lgan ishtiyoqi juda erta uyG'ongan bo'lib, dastlab maktabdagi tasviriy san'at o'qituvchisi K. P. Chibisov tashkil etgan badiiy to'garakda shakllandi. O'quvchilik kezarida maktab o'qituvchilariga turli devoriy gazetalar, sinf badiiy jihozlari, grafik tasvirlar, hatto ko'rgazmali qurollar ishlab berishda yordamchi o'quvchilardan edi. Rasmga bo'lgan qiziqishning mustahkamlanishida turli hayotiy sabablar ta'sir o'tkazganini eslab G'ofur aka shunday hikoyat qiladilar: «Eski shaharbozorining bir chetida shiddat bilan matoga tasvir tushirayotgan bir



rassomning jonli obrazlari hali hamon ko'z oldimdan ketmaydi. Obrazlar shunday jonli, ta'sirli ediki, bozordagi harakat yaqqol sezilib turardi, ayniqsa, qop ko'tarib ketayotgan hammol, bozorning orqasidagi masjidga tashrif buyurayotgan qariyalar tasvirlarini ko'rib rasm chizish naqadar zavqli ekanini yana bir bora his qilgan bo'lsam kerak». Xullas rasmga bo'lgan qiziqish uni 14 yoshida P. P. Benkov nomidagi jumhuriyat badiiy bilim yurtiga o'qishga yetakladi. Muvaffaqiyatli imtihonlardan so'ng rassomlar H. Rahmonov, M. Nabiev, keyinchalik yuqori kurslarda esa T. Oganosov, N. Qo'ziboev kabilarning qo'llarida tasviriy san'at sirlarini o'rgandi. O'sha yillarda P. P. Benkov nomidagi jumhuriyat badiiy bilim yurtida rangtasvir sirlarini ancha mukammal o'zlashtirib olishga ancha imkoniyat bo'lganini rassom quvonib ta'kidlaydi. Bilim yurtini tugatar ekan, paxta mavzusiga bag'ishlangan «Xirmonda» nomli diplom ishini himoya qildi. Talabalik yillaridagi qiziqishlar va intilishlar, eskiz-etyudlar ustida olib borilgan izlanishlar zoe ketmadi. Bilim yurtidan keyin 1955 yili Toshkent shahridagi M. Uyg'ur nomli san'at (o'sha payitdagi A. N. Ostrovskiy nomli Toshkent teatr va rassomlik) institutiga o'qishga kirdi. Oliy o'quv yurtining dastlabki yillarida ustozlari e'tiboriga tusha boshladi. 1-kursdaligidayoq ishlarining rang-barangligi, pishiqligi, tugal fikrlarga egaligi hamda etyudlarning tezkorligi bilan ajralib turar ekan. Bu yerda R. Ahmedov, A. Krivonos kabi rassomlar qo'lida ta'lim oladi. G'ofur Abdurahmonov talabalikning birinchi yozgi ta'til payitida yuzdan ortiq etyud ishlab ustozlarining maqtoviga sazovor bo'lgan.

Institutni 1961 yili «Shaxtyorlar» nomli diplom asari himoyasi bilan muvaffaqiyatli tugatdi. Talabalik yillaridagi asarlarini kuzatar ekanmiz, rassom Issiqko'l, Angren, Olmaliq kabi shaharlarda o'nlab etyudlar ishlaganligi, o'sha vaqtdayoq manzara janriga nisbatan qiziqishi shakllanganligi yaqqol sezilib turibdi. «Ustozlar aytgan narsani bajarish eng sevimli ijod jarayoni edi. Yaxshi ishlarni kurib, shunday ishlashni orzu qilardik, lavha chizmalar muhimligini bilar edik. Ustozlarimizning esa ishimizga fikr berishini juda istardik», -deb ta'kidlaydi G'ofur aka biz bilan suhbatda. Shunday qilib, rassom 1965 yili rassomlar uyushmasi a'zoliciga qabul qilinadi. Bir necha yillik izlanishlardan so'ng rassomlar bilim yurtida direktor bo'lib ishlay boshlaydi. Rassom uchun yana ma'suliyatli davr boshlandi. Ijod va rahbarlik qattiq mehnatni talab qilar edi. 17 yilga yaqin direktor, 14 yil rassomlik bilim yurtidagi pedagogik faoliyati davrida ko'plab navqiron yoshlar ta'lim olishib yurtimizning iqtidorli rassomlari bo'lib yetishdi. Rassom G'ofur Abdurahmonovning tarixiy mavzularga qiziqishi talabalik yillaridayoq paydo bo'lgan edi. Institutda o'qib yurgan payitlarida «Amir Temurning Samarqandga qaytishi» degan mavzuda diplom himoya qilmoqchi bo'lib, eskizlar tayyorlashga urinib ko'rgan ammo bu mavzuni ancha murakkab ekanligini bilgan ustozlar unga hozircha boshqa mavzuda diplom himoya qilishni tavsiya etadilar. Tarixiy mavzuga bo'lgan ishtiyoq keyinchalik yanada rivojlanadi. Rassomning bir qancha muvaffaqiyatli kompozitsiyalar yaratganiga guvoh bo'lamiz. Buyuk bobomiz Sohibqironning 660 yiliga bag'ishlab esa rassom bir qator asarlar yaratishga erishdi. Sohibqiron siymosi va temuriylarni aks ettiruvchi portret Husayin Boyqaro obrazida mujassamlashgan.



Rassom yaratgan kompozitsiyalar keng qamrovli va rang-barangligi bilan alohida ajralib turadi. Bulardan, ayniqsa, «To'y», «o'alaba», «Baxmallik qizlar», «Qirq birinchi yildagi kuzatuv», «Hosil bayrami» kabi asarlarida bir necha o'nlab inson shaklini o'ziga xos obrazli qilib tasvirlanishi diqqatga sazovordir. Ana shu asarlar o'z davri uchun G'oyaviy jihatdan katta e'tiborga molik bo'lishi bilan birga ishlanishi, kompozitsion yechimlarini to'laqonligi, inson qiyofasini ichki va tashqi xususiyatlarini aks ettira olishi bilan xarakterlidir.

Rassom **G'ofur Abdurahmonovning** ustaxonasiga har safar tashrif buyurar ekanmiz, yangi-yangi asarlarning guvohi bo'lamiz. Mana yana bir yangi polotno-«Afsonalar makoni» o'tmish sirlarini eslatuvchi bahaybat tog' manzarasi aks ettirilgan. Kompozitsiyada o'ziga xos ajdodlarimiz tarixini namoyon qiluvchi unsurlar ko'zga tashlanadi. Mashhur Alpomish, ErtuG'i, Spitamén, To'maris, Muqanna kabi xalqimiz o'tmishidagi qahramonlar kishi e'tiborini o'ziga tortadi. Xullas rassom hayotini, dunyo sirlarini tasvirlashni, uning siru-asrorlari haqida fikr yuritishni sevadi. Shuning uchun ham G'ofur Abdurahmonovning asarlarida olam-olam ma'nolarga duch kelamiz.

Endilikda ushbu yuqorida ijodlarini yoritib chiqqan Malik Nabiev, G'ofur Abdurahmonov hozirgi payitda juda ko'p zamonaviy yosh rassomlar talabalar «ustozimiz» deyishadi. Ularning shogirdlarini sanab sanog'iga yetishish qiyin. Xammalarining murabbiylik faoliyatlari boshlaganiga 30 yildan ziyod bo'lgan. Ammo xanuz murabbiy-musavvir ekanliklarini unutmagan holda tinim bilmay mehnat qilishayapti. Ijod qilish bilan bir vaqtda yoshlarga qimmatli maslahatlarini berib, san'atga, kelajak yosh avlodni to'G'ri tarbiyalashga, iqtidorli musavvirlar yetishtirishga qiziqirmoqdalar.

**Ustoz Chingiz Axmarov** o'zining porloq hayoti va ijodi bilan Navoiy zamonidagi Kamoliddin Behzod kabi san'atda butun bir davr yaratgan juda ulkan san'atkor edi. Uning shogirdlari Ne'mat Qo'ziboev, Javlon Umarbekov, Bahodir Jalolov, To'xtabek Soipov, Nizom Xoliqov, Temur Sa'dullaev, Ulug'bek Boltaboev kabi iste'dodli rassomlarning ijodi shu tabarruk maktabning ziyobahsh baG'rida yetilgan. Halima Nosirova kabi san'at ustalari, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov kabi shoirlar, Mahkam Mahmud, Hojiakbar Shayxov kabi obidalar ustoz Chingiz Axmarovga bag'ishlab she'r va hikoyalar yozishgan.

Musavvir Chingiz Axmarov nomi O'zbekiston san'atining chaqnoq yulduzlari orasida haqli ravishda eng fahrlilardan birini egallaydi. Bu ulkan rassomning ijodi o'zbek tasviriy san'atining ajralmas bir qismi bo'lib qoldi va keng xalq ommasining olqishiga sazovor bo'ldi.

Atoqli, san'atkorning iste'dodi ko'p qirralidir. U badiiy adabiyot, tarix, musiqa, me'morchilikka ham qiziqardi.

Chingiz Axmarovni yoshlar ayniqsa qattiq sevadilar. O'zining boy ruhiy dunyosi, mehribon murabbiyligi va samimiyatga limmo-lim qalbi bilan u hammani o'ziga maxliyo etardi. Kishilarni qalbiga kira bilish esa, o'z navbatida rassom ijodiy hayotining sarchashmalaridan biri hisoblanardi.

O'zining sevgan ishiga chinakam mehr fidoyilik, ilhom va muhabbatdan boshlanadi. San'atdan ilxomlanish va unga nisbatan muhabbat tuyg'ulari Chingiz



Axmarovning yuragida juda erta-bolalik chog'ida o'zi tug'ilib voyaga yetgan oila quchog'ida paydo bo'ldi.

Bo'lajak rassom tug'ilib o'sgan oilada tarixni, xalq badiiy ijodini, Sharq adabiyoti va san'atini bilar va qadrlar edilar. Bu uyda qo'lyozma va toshbosma kitoblarga boy katta kutubxon mavjud edi.

1920 yillarning ohirda Ahmarovlar oilasi Qarshiga, so'ng Samarqandga ko'chib keladi. Chingizning qarshisida go'yo u bolalik choG'idan buyon o'ylab yurgan afsonaviy shahar darvozasi lang ochilgandek bo'ldi. Perm badiiy texnikumida taxsil olar ekan, Chingiz barchata'til kunlarini Samarqandda o'tkazardi. Sharq shahrining qaynoq, suronli hayoti, uning bir-biridan yorqin ranglarga to'lib toshgan bozor va choyxonalari, plastik aniqligi, ulug'vorligi, mahobatlilik, me'morchilik yodgorliklaridagi boy naqshlar va bo'yoqlar, xalq san'atining bepayonligi va rangbarangligi, umuman butun shahar hayoti Ch. Ahmarovga juda katta, balki hal qiluvchi ta'sir ko'rsatdi. «Badiiy texnikum menga san'at asoslarini o'rgatib, hayotga yo'llanma berdi. Ammo mening rassom bo'lib yetishuvimga haqiqiy tamol toshini qo'ygan bu-Samarqand»-deydi keyinchalik Axmarovning o'zi.

1935 yili Ch. Axmarov Moskva badiiy institutiga o'qishga kiradi va shu yerda bir yo'la aspiranturani ham bitirib chiqadi. Institutda u I. Grabar, V. Favorskiy, N. Chernishev, L. Bruni, I. Repinning shogirdi F. Shemyakin singari rus san'at ustalaridan ta'lim oldi. San'at tarixining zo'r bilog'oni I. Grabar Axmarovni uyg'onish davrining buyuk san'atkorlari- Rafael, Mikelandjelo, Veronezeni sevishga o'rgatgan bo'lsa, iste'dodli monumentalist N. Chernishev qadimgi Rusning mashhur rassomlari-Feofan Grek, Deonisiy, Andriy, Rublevni qadrlashga, ularning milliy badiiy merosi an'analaridan hozirgi zamon tasviriy san'at tajribasiga suyangan holda ijodiy foydalanishga da'vat etdi. L. Bruni esa Ch. Axmarovga rassom-monumentalist mahorati «Sirlarini» ochib berdi.

Qariyb yarim asrlik ijodiy faoliyatida Chingiz Axmarov yuzlab grafik asarlar yaratdi. Bular-kitoblarga ishlangan rasmlar, Hindiston, Indoneziya, Turkiya, Misr, Yaman, Livan, Afg'oniston, Iroq safarlari, taasurotlari aks etgan turkum ishlar, o'nlab portret va tematik polotnolar, spektakl va kinofilmlarga ishlangan dekoratsiya eskizlari va nihoyat, respublikamizdagi va undan tashqaridagi jamoat binolarining ichki devorlariga ishlangan qator suratlar, ularni devorga ko'chirguncha chizilgan qanchadan-qancha qoramalar, eskiz va parchalar.

«Yuz marta eshitgandan bir marta ko'rgan afzal»,-degan gapni dastavval yo rassom aytgan yoki bevosita rassomning asarlari xususida aytilgan bo'lsa, ehtimol. Darhaqiqat, Chigiz Axmarovdek nihoyatda o'ziga xos bir mahorat egasi bo'lmish rassomning asarlari to'g'risida bir narsa deyish oson emas. Uning asarlarini odam o'z ko'zi bilan ko'rib, dildan his etmoG'i kerak, uning ishlarini ta'riflab yozilgan har qanday so'zlar rassomning ijodiy intilishlarini, fikrlarini va bu fikrlarining tadrijini anglab yetishda vosita bo'lishi mumkin xalos. O'zining chindan ham betakror usuliga, o'ziga xos maneraga ega bo'lgan har qanday yirik rassomning, shu jumladan, Chingiz Axmarovning istalgan asari: u xox devoriy surat bo'lsin, xoh nabroska bo'lsin-hammasida ijodkorning o'ziga xosligi va individual uslubi,

manerasi va quli aniq sezilib turadi. Binobarin, rassomning umumiy ijodi haqida tasavvurga ega bo'lish uchun uning ayrim asarlari bilan tanishib chiqish kifoya.

Rassomning qiziqarli ishlaridan biri uning «Ayol» deb nomlagan asari. Ch. Axmarovning tasvir qamrovi konturli rasmning plastik chiziqlari hamda ahyon-ahyon soya va yorug'lik tushayotgan tomonni munosib rang berib ko'rsatish va ranglar ohangdoshligi bilan amalga oshiriladi.

To'lin oyni eslatadigan yuzlar, bodom qovoqlar, yoyday qoshlar, o'q kipriklar. Bir so'z bilan aytganda, bularning bari an'anaviydek. Ayni vaqtda Ch. Axmarov suratlaridagi personajlar chehrasidan chuqur ma'no o'qiysiz, ular ruhiy jihatdan ishonarli qilib talqin etilgan, bir andozaga solingandek tuyuladigan imo-ishoralar jonli, harakatchan, qahramonlarning ruhiy boyliklarini to'laligicha namoyon qiladi.

Rassom ranglar boyligiga, ularning G'oyaviy, badiiy vazifasiga alohida ahamiyat beradi. U ko'pincha feruza-nilliy, pistoqi-yashil, shaftoli guli-pushti, tilla rang-sariq, arg'uvoniy-qirmiz kabi serjilva tovlanuvchan bo'yoqlardan foydalanadi. Shuni aytish joizki mazkur ranglarni xat ustalari, yoG'och o'ymakorligi ustalari, do'ppi va so'zana tikadigan chevarlar, me'morlar, miniatyurachi rassomlar keng istifoda etganlar.

Lekin bu boy ranglarni rassom bir asarida bir varakay ishlatmaydi. Har bir ayrim holda u bu ranglar boyligining ma'lum bir qismi bilangina chegaralanadi. Rassom bitta rangni tanlaydida, uning juda ko'p jilvalaridan foydalanadi. Natijada, boshqa ranglar «Kamsuqum» bo'lib qoladi, tanlangan rang suratda «yakkaxonlik» rolini ijro etadi.

Xususan, Adabiyot muzeyi uchun ishlangan suratlarni eslasak ular pistoqi-yashil, Sharqshunoslik intitutidagi devoriy rasmlarda esa yashil va och-nilliy ranglar hokim.

Ch. Axmarovning keyingi suratlaridan biri «Sug'd to'yi»da iliq-tilla rang va och-noran ranglar tanlab olingan. Mazkur devoriy rasm xuddi qimmatbaho harir matoga o'xshaydi.

Xulosa qilib aytganda Ch. Axmarov ijodi hamma tomonidan so'zsiz qabul qilinaveradi, bir yoqlama tushuniladi, degan gap emas. Uning Navoiy teatridagi ilk devoriy rasmdan boshlab, bu ajoyib o'ziga xos rassomning asarlari har gal qizG'in bahs va munozaralarga sabab bo'lib keladi. Uning ishlari bazilarni hayajonga solib, mahliyo etsa, bazilarga yoqmaydi. Rassomning bazan obrazlarining bir xilligida, oldin xal etilgan masalani takrorlashda ayblaydilar. Uning dunyoni betakror ko'rish qobiliyatini, inson go'zalligi idealini, qahramonlarning ko'tarinki romantik ruhini, katta rassomlargagina xos bo'lgan diliga yaqin g'oya va syujetlari doirasini, G'oyaviy-badiiy talqinini ana shunday qabul qiluvchilar ham topilib qoladi.

Bu borada Ch. Axmarovning shunday so'zlari bor: «Men o'z asarlarimni miniatyuralarga o'xshatib» yaratishni hech qachon maqsad qilmaganman va maqsad qilmayman ham. Men aql bovar qilmas badiiy maktab yaratgan mashhur miniatyurachilarning asarlarini yurakdan sevaman, o'rganman. Miniatyura san'ati u tasvirlayotgan voqealarning, odamlarning, tabiat go'zalligining jonliligi, ranglarning hayratomuz uyg'unligi, rassom tuyg'ularining hoqqonligi bilan meni hayajonga soladi. Uni men tinimsiz qidirishni talab qiluvchi bitmas-tuganmas



xazina, san'atning yuksak cho'qqilari sari chorlovchi vosita, deb bilaman. U mening ilxom bulog'im, mening maktubimdir. Miniatyura san'ati men uchun buyuk italyan rassomlari Jotto va Mazachcho san'ati bilan birday ahamiyatga ega».

Rassomning bu so'zlarida uning g'oyaviy-badiiy konsepsiyasi negizi, ijodiy intilishlariga va ishiga estetik quvonch baG'ishlaydigan chinakam san'atning katta, murakkab yo'llarida qo'lga kiritkan muvaffaqiyatli omili yorqin ifodalangan.

Endilikda yana bir musavvirning ijodini yoritib ekanmiz, shuni aytib o'tishimiz kerak-ki, ushbu musavvir ko'proq portret janrida ijod qilgan bo'lib va aynan shu janrda dunyoga tanilib shuhrat qozondi.

Portret janri O'zbekiston rang tasvirchilarining kuchli jihatlaridan biri hisoblanadi. O'zbekistonda kuchli realistik maktab tarkib topishi ajoyib portretnavis-rassomlar sulolasini vujudga keltirdi. Ular orasida A. Abdullaev, R. Ahmedov, R. Choriev, T. Oganesev. V. Burmakin kabi portret usullari jahonda keng tan olinganligi e'tirof etiladi. Mustaqillikning ijobiy ta'siri o'laroq, san'atning turli yo'nalish va uslublarida erkin ijodga yo'l ochildi. Jumladan portret janrida ham. Buning natijasida portret zamonaviy badiiy jarayonida yetakchi bo'lib qoldi. Respublikamizning yetakchi badiiy oliygohi K. Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayin institutida aynan, realistik maktab asosida o'quv mashg'ulotlari olib boriladi. Bu esa rangtasvirning realistik janrida ijod etgan o'tmish ijodkorlarimizning boy merosini tan olinganligi, shuningdek, jahon san'ati ilG'or tajribasini chuqur o'rganishdan dalolat berib, butun dunyoda avangard yo'nalish bilan bir qatorda, aynan, realistik yo'nalish rivojiga e'tibor bilan qaralganligini ko'p jihatdan namoyon etadi.

1990 yillarda o'zbek rangtasvirida portret janrining asoschisi-yetakchi portretnavis, akademik **Abdulxaq Abdullaev** edi. Butun umri davomida u iste'dodli va ma'naviy go'zal insonlarga hurmatini saqlab qoldi. Musavvir mo'yqalamiga mansub har bir portret kishilarning chuqur ma'naviy dunyosini akslantiruvchi, rassom bilan portret qahramoni va portret bilan tomoshabin o'rtasidagi haqiqiy va ochiq munosabatini taqozo etuvchi manbadir. 1999 yilda A. Abdullaevning 1984 yilda yaratilgan mashhur avtoportretini turli davr va halqlarga mansub buyuk rassomlar avtoto'plami, Uffitsidagi (Italiya) kartina galereyasiga berilishi O'zbekiston san'ati uchun olamshumul voqea bo'ldi. Yaqin davr (2001 y)da esa musavvir «Ofarin» respublika Sovrinining «San'atga bahshida umr» nominatsiyasi bilan taqdirlandi.

Istiqlolimiz davrida tavalludining 80 yilligini va ijodiy faoliyatining 50 yilligini nishonlayotgan **Raxim Axmedov** asarlari kishida olam-olam taasurotlar uyG'otadi.

**Raxim Axmedov**ning hayot yo'lida u umrini butkul baxshida etgan ijodiy intilishlar ustozlik faoliyati bilan chambarchas bog'lanib ketgan. U hayot murakkabliklariga bir umr tayyor yashab kelmoqda, umrning qimmatli lahzalarini band etuvchi jamoatchilik yumushlaridan ham o'zini chetga olmagan. Inson va rassom shaxsini shakllantiruvchi bunday murakkab va ko'p qirrali jarayonda u o'z iste'dodi, hayotidagi o'rnini havas qilsang arziydigan darajada erta anglab yetdi.



**Raxim Axmedov** san'atga 1950-yillarda kirib keldi. O'zbek tasviriy san'atining umumiy taraqqiyot jarayonida bu yillar beqiyos katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Rossiya Badiiy Akademiyasida ta'lim olib, mahoratini oshirgan rassom u yerda ta'lim olib yurgan kezlari rus G'oyaviy realizmi an'alariga qat'iy amal qildi, lekin tayyor badiiy tizimlarni takrorlashdan ongli ravishda voz kechdi. Chunki bu uning tabiatiga batamom yot bo'lib u hamisha o'zligicha qolishga intilardi. O'rta asrlar qadimiy Sharq an'alariga hos uslubkashlik-stilizatorlik G'oyasi ham uni o'ziga jalb qila olmadi. U, yuksak badiiy-milliy an'alariga chuqur hurmat bilan qaragani holda hozirgi dunyodagi uslubga solingan tasvir vositalarining cheklanganligini ham ko'ra, aniqrog'i, rassom sifatida his qila bildi. U avval boshdan milliylik muammosini o'ziga xos badiiy tushunish, hayotiy materialga san'atkorona yondashuvda o'z uslubini topishga intildi va unga erishdi. Halq turmush mohiyatining ich-ichiga nafosat bilan kirib bosh, xalq karakterining tarixan yuzaga keltirgan sobit xususiyatlarini aniqlashga intilish u tutgan yo'lning asosini tashkil etadi.

Rahim Axmedov-botinan milliy rassom. Uning asarlari buning isboti. Zero, uning har bir asarini keskin taasurotlar uchquni yoritib turibdi. Surxondaryolik samimiy, ochiq ko'ngil, favqulotda kuchli karakterli, dadil, mag'rur va erkin ayollarning O'zbekiston portret rangtasvirining mumtoz asarlari bo'lib qolgan rasmlari ayni shunday asarlaridir. Rassomning turli yillarda chizgan o'z rafiqasining portretlari uning ruhiy va his-tuyg'ulari teran aql egasi obraziga nisbatan bo'lgan qiziqishidan dalolat beradi. Qizlari Elmira va Nigoraning portretlari ularning bolaligi, o'smirligi, yaqinlashayotgan balog'at yoshi haqidagi rangtasvir qissasidir.

Natyurmotlar ham Rahim Axmedov ijodida alohida o'ringa ega. Ularda rassomning kutilmaganda quyilib keluvchi his-tuyg'ular dunyosi sezilib turadi. Bu asarlar bexos erkinlikka chiqqan ijodiy kuch-qudrat mujassamdek tasavvur uyG'otadi. (Natyurmort. Mevalar (1999y), (Buldonej guli 2000 y)

Rassom mo'yqalamiga mansub manzaralar esa butunlay boshqacha tarzda namoyon bo'ladi. (Kuz 1995), (manzara 1996 y) Boy tajribaga ega rangtasvirchi bu shaharda o'zligini nafis va nafosat bilan ifodalash vositasini ko'rdi.

Yarim asr mobaynida yaratilgan asarlar rassom qo'lga kiritilgan yutuqlar va uning O'zbekiston san'ati ravnaqiga qo'shgan hissasi unutilmas ekanligini namoyon etadi. Uning asarlari oddiy bo'lmay, endilikda moziy qa'ridan o'rin olgan asrimiz tarixi aks etgan.

Badiiy ijodining ilk davrida sovuq manzaralar va mulohazali natyurmotlar muallifi, 1980 yillar o'rtalariga kelib esa, «Inson tafakkuri», va «Men insonman» singari oddiy, shuningdek, tasviri oliyjanob, yuksak, kayfiyat va hitob bilan ifoda etuvchi rassom **Javlon Umarbekovni eslasak**, ushbu o'n yillik ichida tomoshabinga quvnoq va hatto nimasi bilandir G'ayri tabiiy asar («Taomil», «Ko'cha charxchisi», «Lo'li»)larni namoyish etishi uning ijodiga bo'lgan qiziqishini yanada jonlantiradi.

O'zining koloriti bilan ohangrabo qo'shiq singari jaranglab turuvchi «Havorang musiqachilar» kartinasi go'yo uzoq vaqt kutilgan tongdan darak





berayotgandek tasavvur uyg'otadi. Bu asar ma'lum darajada uning 1990-yillar boshlarida vujudga kelgan turkum kartinalarning mantiqan zid tomonlarini tushuntirishga xizmat qiladi.

Milliy xususiyatga ega bo'lgan palitraning barcha qudrati va boy tomonini ko'rsatishga bo'lgan intilish J. Umarbekovni tor doirasidagi milliy uslubiy «chegara»dan chiqib ketishga undaydi (ushbu chegarada-yorqin bezakdor ranglar, maishiy atributlar, shuningdek, hayotga ijobiy munosabat bir-biridan aralashib fikran bo'g'lanadi). Ruhiiy kayfiyatning rangin jilosi va o'zbekona milliy xususiyatlar shubxasiz keng va boydir. J. Umarbekov buni his qiladi, uning ishlarida kayfiyatning keng gammasi, oxang, jo'shqin qiyofali nozik ranglar, xalqning o'ziga xos milliy fazilatlari ishtirok etadi. 90-yillarning boshlarida yaratilgan yangi masrur oxangdagi asarlar yuqoridagi fikrlarni to'la tasdiqlaydi, ya'ni o'z-o'zini anglash va uni ijodda erkin ko'rsatish mantiqan O'zbekiston davlati mustaqilligi jarayoni bilan bog'lanadi.

O'zbekiston badiiy madaniyatining XX asr ikkinchi yarmidagi taraqqiyotida namoyon bo'lgan eng muhim muammolar va mayllar **Bahodir Jalolov** ijodida aks etdi va g'oyat xususiy-ruhiy ravishda o'z ifodasini topdi. Milliy o'ziga xoslik, milliy san'at maktabining ijodiy asoslarini izlash ana shunday muammolardan edi. Bu azaliy muammo O'zbekiston rassomlarini har doim qiziqtirib kelgan va o'tgan o'n yilliklar mobaynida ko'plab yangicha talqinlarga sabab bo'ldi. Mustaqillik yillarida ham uning hal etilishi murakkab, ko'p qirrali, ba'zan ziddiyatli, qarama-qarshilikli kechdi. Bu sohada B. Jalolov Respublikaning yetakchi rangtasvir ustasi hisoblanib, istiqlol davrida uning ijodi samarali bo'ldi. Shu davrda yaratilgan asarlari 80-yillarda yuzaga kelgan asarlarining tadrijiy davomi tarzida shakllanib, mutloq yangi shaklliy va yorqin G'oyaviy-plastik yechimlarni o'zida namoyon etdi. Binobarin musavvirlarning o'ziga xos yuksak mahorat, rangtasvir plastik yechimlarining betakror nafosati, koinot va tabiat, inson va borliq uyG'unlashuvi, mavjudlik va ruhiyat musaffoligi kabi mavzular o'z muhimligini saqlab qoladi.

Musavvirning chizmakashlik iste'dodi yana takror va takror shaklii rangtasvirga murojat etishga undaydi. Rassomning ijodiy zakovati respublikada kechayotgan ijtimoiy evrilishlarga hamohangdir. B. Jalolovning yangi tarixiy voqealikning G'oyaviy qadriyatlarini aks ettiruvchi «Oltin asr» (1999) asari siyosiy voqealikka munosabat tarzida vujudga kelgan bo'lib, unda Xumo qushining qanoti ostida otliq Amir Temur homilador ayol hamrohligida tasvirlangan. Kompozitsiya, rasm va ranglar majmuasi nazokati Salvador Dalining hayoli asarlarini yodga soladi. Milliy timsollarning o'arb estetikasi bilan uyG'unlashuvida musavvirga xos Sharq bilan o'arbn uzviylikda mushohada etish xususiyati ayon bo'ladi.

Musavvirning hayotiy shakllar olami chegaralarini buzib, beintihom fantaziyalarni gavdalandirish istagi ma'joziy-silsilaviy talqindagi ko'plab asarlarning yaratilishiga olib keldi. U mahobatli rangtasvir sohasida avvalgidek shaklii ifodaga moyilligini saqlab qolsa-da, dastgohli rangtasvirda o'z hayolotiga cheksiz erk beradi. Biroq, u rang, shakl, chiziqnlarni jilolantirar ekan, har safar rangtasvirning yangi imkoniyatlarini ishga solib, o'zini hech takrorlamaydi.



Shunday qilib, 1990 yillar boshida bir qator turkum ishlar paydo bo'ldi va ularda dekorativlik boshchilik qilar edi. «Borliq sirlari» (1999), «Muhabbat bog'i» (1992), «Koinot ustunlari Buxoro» (1991), «Temur minorasi» (1996) asarlari bunga yaqqol misol bo'la oladi. Ushbu asarlarda chuqur falsafiy yechim yorqin dekorativ va aplikatsiya kompozitsiya tamoyillari bilan uyg'unlashgan. B. Jalolov ba'zi bir kompozitsiyalarida yumshoq chizgilarni afzal ko'rib «Me'roj» (1996), «Shoir va ilhom parisi» (1996) ularda islom san'ati estetikasini targ'ib etsa, boshqalarida esa o'tkir va aniq shakl hamda chizgilarni tasvirlash bilan mudroq tuyg'ularni uyg'otishga harakat qiladi. «Oy nuri» (1995), «Kushonlar xotirasiga» (1998).

Musavvir go'yo bo'yoqlar yorqinligi va rang baranglikdan tin olgandek, sokin kayfiyatdagi kompozitsiyalar yaratadi va ularda asosiy urug'ni palotnoning fakturasi va durrang jilolarga beradi «Chor-minor» (1996), «Tush payti Buxoro» (1996).

Xulosa qilib aytganda ushbu yuqorida ijodi yoritib o'tgan musavvirlar M. Nabiev, G'. Abduraxmonov, R. Axmedov, Ch. Axmarov, B. Jalolovlarning tasviriy san'at asarlarida ilgari taqib ostiga olingan iymon, e'tiqod, din muammolariga e'tibor oshib bormoqda. Negaki ular asarlarida Ajdodlar ruhi, xotirasi, qadamjolar ziyorati, qadriyatlar ushbu rassomlar ijodida o'z ifodasini topgan.

### Nazorat savollari

1. O'zbekistondagi eng qadimgi tasviriy san'atda namunalari qaerda topilgan.
2. Tasviriy san'at o'qitish metodikasi sohasidagi O'zbekistonlik olimlarni sanab o'ting.
3. G'arbiy Yevropada birinchi badiiy akademiyalar qaysi asrdan boshlab tashkil etilgan?
4. O'zbek milliy Tasviriy san'atning portret janrida ijod qilgan eng mashhur rassomlarni keltiring.
5. O'zbekistonda Badiiy- grafika fakultetlari qaysi davrdan boshlab faoliyat ko'rsata boshlagan?
6. M.Nabiev tasviriy san'atning qanday janrida ijod qilgan?

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdirasilov S., Tolipov N. Rangtasvir. -T.: Bilim, UMKXTM. 2005.
11. Abduraxmonov G'.M. Kompozitsiya asoslari – T.: “TDPU”, 2008.
12. Baymetov B. Haykaltaroshlik va plastik anatomiya. – T.: “Iqtisod-moliya” 2007.
13. Baymetov B., Tolipov N., Abdirasilov S. Tasviriy san'at. Cho'lpon, -T.: 2006.
14. Baymetov B, S. Tolipov M, Azimov S. Plastik anatomiya. «Ilm ziyo», -T.: 2012 (4- qayta nashri).
15. S.L.Vitman. «Pedagogika v voprosax i otvetax», 2006g.
16. V.S.Kukushina. «Pedagogicheskie texnologii». Moskva: I.K.S. «MarT» Rostov na –Donu, 2004 g.
17. Boltabayevich, B. B. & Pardaboy, K. (2020). Scientific and theoretical aspects of the formation of compositional abilities of students in painting classes.



European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 8 (3), 93-96.

18. Botir Boltabaevich Baymetov, Khusan Kholmuratovich Muratov. [Self Sketches as a Tool in the Professional Training of a Future Artist-Teacher](#). Solid State Technology. 2020/2/29. [Vol. 63 № 2 \(2020\)](#). 224-231.

19. Boltabayevich, B. B., & Shodieva, B. O. (2020). Individual Approach To The Formation Of Artistic And Creative Talents Of Students In Art Schools. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 2(08), Website: [www.usajournalshub.com/index.php/tajssei](http://www.usajournalshub.com/index.php/tajssei) 637-642.



## IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI

### Amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish bo'yicha umumiy yo'riqnoma

Amaliy mashg'ulotlarda tinglovchilar tasviriy san'at ta'limining turli normativ-huquqiy hujjatlari, tasviriy san'at o'qituvchisining faoliyat funksiyalari: ta'lim sohasidagi innovatsiyalar bilan tanishadilar va ular asosida amaliy ishlarni bajaradilar. Amaliy mashg'ulotlar zamonaviy ta'lim uslublari va innovatsion texnologiyalarga asoslangan holda kichik guruhlarga bo'lib o'tkaziladi. Bundan tashqari, mustaqil holda o'quv va ilmiy va xorijiy adabiyotlardan, elektron resurslardan, internet materiallaridan, tarqatma materiallardan foydalanish tavsiya etiladi.

### 1-AMALIY MASHG'ULOT.

**Tasviriy san'atdan o'quv jarayoni va o'quv-uslubiy faoliyatni modernizatsiyalashda innovatsion ta'lim texnologiyalari. tasviriy san'at fanlarining umumiy va xususiy tushunchalari**

Tasviriy san'atdan o'quv jarayoni va o'quv-uslubiy faoliyatni modernizatsiyalashda innovatsion ta'lim texnologiyalari. Ta'lim Texnologiyalari asosida mashg'ulotlarni tashkil etish. Tasviriy san'at fanlarining umumiy va xususiy tushunchalari. Oliy pedagogik maktab tizimi, tasviriy san'at estetik tarbiyaning bir qismi shaklida, tasviriy san'atda ilmiy asoslangan bilimlar, badiiy ijodning amaliyotda sinalgan tajribalarini o'rganish

O'tmish tarixda ijod etib o'tgan buyuk tasviriy san'at ijodkorlari, tasviriy san'atdagi badiiy ta'limida o'rganiladigan asosiy predmet, rassomlar asarlarini o'rganish va taxlil qilish.

#### 1-ilova

#### Quyidagi tushunchalarni sharxlab bering:

- XVII asrning akademik rasm chizishning nazariy qoidalari.....
- Innovatsion ta'lim texnologiyalari bu.....
- Tasviriy san'atdan o'quv jarayonini tashkil etish.....
- yosh rassom-o'qituvchilarga ta'lim berish usullari....
- ijodiy qobiliyatlar rivojlanishiga omil bo'luvchi jihatlar.....
- pedagogika va psixologiyada ijodiy qobiliyatlar va ijodiy faollikning rivojlanishi.....
- tasviriy san'atni o'qitishda qonun qoidalar.....

#### 2-ilova

#### Munozara uchun savollar:

1. Qadimda «Erkin ijod» usuli tarafdorlarining asosiy g'oyalari qanday bo'lgan?



2. Badiiy ta'limni rivojlanishida oliy pedagogik ta'limning roli.
3. Tasviriy san'at qonun – qoidalari rassomning ijodiy imkoniyatlarini oshirishdagi ahamiyatini ayting.
4. D.N.Kardovskiy taklif etgan «kesish» usullarida foydalanib, to'g'ri tasvirlash usullari qanday bo'lgan?
5. Akademik tarzda tasvirlagashga izoh bering.
6. Realistik rasmni yaratish ijodiy jarayoni qanday?
7. Uyg'onish davri rassomlarinin "Qo'l bilan emas, balki bosh bilan chizamiz" - deb aytgan firlarini izohlang

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdirasilov S., Tolipov N. Rangtasvir. -T.: Bilim, UMKXTM. 2005.
2. Abduraxmonov G'.M. Kompozitsiya asoslari – T.: "TDPU", 2008.
3. Baymetov B. Haykaltaroshlik va plastik anatomiya. – T.: "Iqtisod-moliya" 2007.
4. Baymetov B., Tolipov N., Abdirasilov S. Tasviriy san'at. Cho'lpon, -T.: 2006.
5. Baymetov B, S. Tolipov M, Azimov S. Plastik anatomiya. «Ilm ziyo», - T.: 2012 (4- qayta nashri).
6. S.L.Vitman. «Pedagogika v voprosax i otvetax», 2006g.
7. V.S.Kukushina. «Pedagogicheskie texnologii». Moskva: I.K.S. «MarT» Rostov na –Donu, 2004 g.
8. Boltabayevich, B. B. & Pardaboy, K. (2020). Scientific and theoretical aspects of the formation of compositional abilities of students in painting classes. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 8 (3), 93-96.
9. Botir Boltabaevich Baymetov, Khusan Kholmuratovich Muratov. [Self Sketches as a Tool in the Professional Training of a Future Artist-Teacher](#). Solid State Technology. 2020/2/29. [Vol. 63 № 2 \(2020\)](#). 224-231.
10. Boltabayevich, B. B., & Shodieva, B. O. (2020). Individual Approach To The Formation Of Artistic And Creative Talents Of Students In Art Schools. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 2(08), Website: [www.usajournalshub.com/index.php/tajssei](http://www.usajournalshub.com/index.php/tajssei) 637-642.

## 2-AMALIY MASHG'ULOT.

**Tasviriy san'at fanlarini o'qitishda ilg'or ta'lim texnologiyasidan foydalanish. Tasviriy san'at asarlarini yaratishda borliqni idrok etish masalalari**

Rasm chizishni o'rgatishda jism shaklini masofadan ko'rish va tasvirlash, ijodiy qobilyatlarni shakllantirishda jism shaklini masofadan ko'rish va tahlil qilish, jismni «to'la hajmda», uch o'lchamli shaklda (balandligi, eni va qalinligini) ko'rish masalalari, naturani xaqqoniy uning o'lchamlarini to'g'ri ifodalash, ko'z



bilan o'lchash (masofa va jism o'lchamlarini ko'zda chamalash) qobiliyatini rivojlantirish, ko'zni to'g'ri qaratish orqali jism o'lchami va masofani aniqlash, ko'z bilan chamalash qobiliyatini rivojlantirish, chamalash qobiliyatini shakllantirish va doimiy ravishda ko'z bilan nisbatni aniqlash mashqlari

## 1-ilova

### Quyidagi tushunchalarni sharxlab bering:

- borliqni idrok etish.....
- shakllarni tasvirlashda borliqni idrok etish masalalari.....
- «xotiradan», “tasavvur va anglash” asosida tasvirlash.....
- tasviriy san'at asarlarini yaratishda borliqni idrok etish masalalari.....
- qismlarni umumiy jism bilan tasvirlab ish yuritish.....
- sferik yuzalarda to'q rangdan och rangga o'tish uchun shtrixlar orasidagi intervallar.....
- realistik tasviriy san'atning qonun-qoidalarini belgilab beruvchi omillar.

## 2-ilova

### Munozara uchun savollar:

1. Naturadan rasm chizish bo'yicha olib borilgan doimiy mashqlar qanday natija beradi?
2. Ko'rib eslab qolish qobiliyati rivojlanishida qaysi turdagi mashqlar asosiy o'rin egallaydi.
3. Tasviriy san'atga endi qadam bosayotgan yoshlar qanday mashg'ulotlarni ko'proq o'tkazishlari maqsadga muvofiq.
4. Tasavvurni – jismlarning tabiiy ko'rinishini xotirada yanada mustahkamlanishida asosiy o'rin tutadigan mashq turi.
5. Shaklning nisbatlari va chiziqli-konstruktiv tuzilishini gapirib, misollar keltiring.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdirasilov S., Tolipov N. Rangtasvir. -T.: Bilim, UMKXTM. 2005.
2. Abduraxmonov G'.M. Kompozitsiya asoslari – T.: “TDPU”, 2008.
3. Baymetov B. Haykaltaroshlik va plastik anatomiya. – T.: “Iqtisod-moliya” 2007.
4. Baymetov B., Tolipov N., Abdirasilov S. Tasviriy san'at. Cho'lpon, -T.: 2006.
5. Baymetov B, S. Tolipov M, Azimov S. Plastik anatomiya. «Ilm ziyo», -T.: 2012 (4- qayta nashri).
6. S.L.Vitman. «Pedagogika v voprosax i otvetax», 2006g.
7. V.S.Kukushina. «Pedagogicheskie texnologii». Moskva: I.K.S. «MarT» Rostov na –Donu, 2004 g.
8. Boltabayevich, B. B. & Pardaboy, K. (2020). Scientific and theoretical aspects of the formation of compositional abilities of students in painting classes.



European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 8 (3), 93-96.

9. Botir Boltabaevich Baymetov, Khusan Kholmuratovich Muratov. [Self Sketches as a Tool in the Professional Training of a Future Artist-Teacher](#). Solid State Technology. 2020/2/29. [Vol. 63 № 2 \(2020\)](#). 224-231.

10. Boltabayevich, B. B., & Shodieva, B. O. (2020). Individual Approach To The Formation Of Artistic And Creative Talents Of Students In Art Schools. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 2(08), Website: [www.usajournalshub.com/index.php/tajssei](http://www.usajournalshub.com/index.php/tajssei) 637-642.

### 3-AMALIY MASHG'ULOT.

#### **Ilg'or ta'lim texnologiyalari va vositalariga asoslangan ta'lim jarayonini ishlab chiqish. Tasviriy san'at fanlarining nazariy asoslari va qonuniyatlari**

Ilg'or ta'lim texnologiyalari va vositalariga asoslangan ta'lim jarayonini ishlab chiqish. Qalamtasvir – barcha tasviriy san'at turlarining asosi, tasviriy san'at turlari, asar kompozitsiyalari ustida izlanish, qalamtasvirning boshqa san'at turlari orasida mustaqil tugallangan dastgohli san'at asar sifatida, tush, sangina, pastel, sous, qalam bilan bajariladigan asarlar.

Buyumlarni tasvirlash jarayoni, chizilayotgan narsani chuqur tahlil qilish, tasviriy san'atda rus pedagoglaridan P.P.Chistyakov ta'limoti, tasviriy san'atda atrof muhtni keng va atroflicha o'rganish, bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisining tasvirlash sohasida yuksak natijalarga erishishining omillari.

#### **1-ilova**

#### **Quyidagi tushunchalarni sharxlab bering:**

- Ilg'or ta'lim texnologiyalari bu..... va vositalariga asoslangan ta'lim jarayonini ishlab chiqish.
- Uyg'onish davrining buyuk rassomlari, Leonardo da Vinchi, Alberti va Dyurer va boshqalar.....
- Tasviriy san'atda ilg'or ta'lim texnologiyalari .....
- Inson qomatini tasvirlash jarayonlari.....
- Qadimgi yunon musavvirlarining inson qomatini tasvirlashdagi qonunlar.....
- Borliqdagi voqea va hodisalar hamda buyumlarning nafaqat tashqi shaklini bajarish.....
- Qalamtasvirida yetuk malakaga erishish ko'p jihatdan.....

#### **Munozara uchun savollar:**

1. Narsani o'ziga qarab tasvirlashning tasviriy san'atdagi o'rni.
2. Narsani o'ziga qarab tasvirlash mahorat maktabi qachon va qanday rivojlanadi?



3. P.P.Chistyakov shunday degan edi: tasvirlashda “Avvalo chizilayotgan.....” fikrini davom ettiring
4. Rassom qanday yetuklikka erishishi uchunnimalar qilishi lozim?
5. Tasviriy san'atda ilmiy asoslar deganda nimalarni tushinasiz?
6. Konstruktiv tuzilishga izoh bering.
7. Rus rassom va nazariyotchisi A.P.Sapojnikov buyumlarni tasvirlashda qanday usuldan foydalangan?

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdirasilov S., Tolipov N. Rangtasvir. -T.: Bilim, UMKXTM. 2005.
2. Abduraxmonov G'.M. Kompozitsiya asoslari – T.: “TDPU”, 2008.
3. Baymetov B. Haykaltaroshlik va plastik anatomiya. – T.: “Iqtisod-moliya” 2007.
4. Baymetov B., Tolipov N., Abdirasilov S. Tasviriy san'at. Cho'lpon, -T.: 2006.
5. Baymetov B, S. Tolipov M, Azimov S. Plastik anatomiya. «Ilm ziyo», -T.: 2012 (4- qayta nashri).
6. S.L.Vitman. «Pedagogika v voprosax i otvetax», 2006g.
7. V.S.Kukushina. «Pedagogicheskie texnologii». Moskva: I.K.S. «MarT» Rostov na –Donu, 2004 g.
8. Boltabayevich, B. B. & Pardaboy, K. (2020). Scientific and theoretical aspects of the formation of compositional abilities of students in painting classes. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 8 (3), 93-96.
9. Botir Boltabaevich Baymetov, Khusan Kholmuratovich Muratov. [Self Sketches as a Tool in the Professional Training of a Future Artist-Teacher](#). Solid State Technology. 2020/2/29. [Vol. 63 № 2 \(2020\)](#). 224-231.
10. Boltabayevich, B. B., & Shodieva, B. O. (2020). Individual Approach To The Formation Of Artistic And Creative Talents Of Students In Art Schools. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 2(08), Website: [www.usajournalshub.com/index.php/tajssei](http://www.usajournalshub.com/index.php/tajssei) 637-642.

#### 4-AMALIY MASHG'ULOT.

**Yuqori malakali tasviriy san'at o'qituvchilari tayyorlashda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o'rni va ahamiyati. Tasviriy san'atning rivojlanish tarixi**

Tasviriy san'atning tarixiy rivojlanish bosqichlari, Zaravutsoy, Chust, Dalvarzintepa, haykaltaroshlik namunalari, eramizdan avvalgi III-II asrlarga mansub kulolchilik buyumlari hamda devorlarga ishlangan rasmlar, hayvonlarning tasvirlari.

##### 1-ilova

##### Quyidagi tushunchalarni sharxlab bering:

- Tasviriy san'atning rivojlanish tarixi.....





- Yuqori malakali tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlashda ta'lim texnologiyalari.....
- Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va tasviriy san'at.....
- Tasviriy san'at taraqqiyot bosqichlari.....
- O'zbek milliy tasviriy san'atining tashkil topishi.....
- Tasviriy san'atining o'qitilish tarixi.....
